

X.A. Abduvaliyeva

BOLALARNING MUSIQIY TA'LIMI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

ABDUVALIYEVA XAYRİNISO ABDURASUL QIZI

BOLALARNING MUSIQIY TA'LIMI

O'quv qo'llanma

60110200-Maktabgacha ta'lif yo'nalishi bakalavr bosqichi
talabalari uchun mo'ljallangan

Toshkent
“NIF MSH”
2024

UDK : 37.013

KBK: 74.268.43

A15

Abduvaliyeva X.A.

**Bolalarning musiqiy ta'limi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "NIF MSH", 2024,
264 b.**

O'quv qo'llanma O'zbekiston Olyi ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi olyi, o'rta va professional ta'limga yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvoqilaqchilashuvchi kengash tomonidan tasdiqlangan namunavly dasturlarga asosan yozilgan. 60110200 – "Maktabgacha ta'lim" bakalavr yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan. Ushbu o'quv qo'llanma maktabgacha ta'lim mutaxassisligining malaka talablarini fanning nazariy va amaliy tushunchalarini, qo'shimcha ravishda olyi ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, mutaxassislik bo'yicha o'quv-tarbiya va ilmiy-tadqiqot jarayonlari bilan shug'ullanuvchi ob'ektlar majmuasini qamrab oladi.

O'quv qo'llanmadan pedagogika sohasi vakillari, maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi magistrantlar shuningdek ilmiy tadqiqotlari olib borayotgan izlanuvchilar ham soydalishlari mumkin.

Учебное пособие написано на основе типовых программ, утвержденных Советом по координации деятельности учебно-методических объединений в сфере высшего, среднего и профессионального образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан. 60110200 – предназначен для студентов бакалавриата по программе «Дошкольное образование». В данном учебном пособии описаны квалификационные требования специальности дошкольного образования, теоретические и практические положения предмета, а также преподавание предметов, связанных со специальностью в высших учебных заведениях, обучение и научные исследования по специальности объекты, связанные с процессами.

Учебное пособие может быть использовано представителями сферы педагогики, аспирантами, обучающимися в сфере дошкольного образования, а также научными сотрудниками, проводящими научные исследования.

The study guide is written based on the model programs approved by the Council for Coordinating the Activities of Educational and Methodological Associations in Higher, Secondary and Professional Education Areas under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of Uzbekistan.. 60110200 - Intended for students of "Preschool education" bachelor's programs. This study guide describes the qualification requirements of the specialty of preschool education, theoretical and practical concepts of the subject, as well as the teaching of subjects related to the specialty in institutions of higher education, training and research in the specialty. covers a complex of objects dealing with processes.

The study guide can be used by representatives of the field of pedagogy, graduate students studying in the field of preschool education, as well as researchers conducting scientific research.

**Taqrizchilar:
Bolibekov A.**

**Guliston davlat universiteti maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi mudiri, p.f.n, dotsent
Berdaliyeva G.**

Sirdaryo VPYMO'MM direktori o'rinnbosari PhD, dotsent

Guliston davlat universitet o'quv – uslubiy kengashining 2023-yil 20-dekabrdagi 5-sonli bayonnomasi hamda universitet rektorining 2023-yil 21-dekabrdagi 193-sonli buyrug'iiga asosan nashr etishga ruxsat berildi.

ISBN 978-9910-785-30-6

© Abduvaliyeva X.A., 2024.

© "NIF MSH", 2024.

KIRISH

*Insoniyatning nafosatli va go`zal hayotini ohanglarda aks ettirishning o`z mushkulotlari mavjud. Avvalo, insonning o`z iste'dodi bo`lsa, ikkinchisi uning xohishidir. Uchinchi tomoni kasbga bo`lgan munosabatning shakllanishi va bu kasbga mehr qo`yilishidir. Eng muhimi, uni sevib hayotining mazmuniga aylantirish bilan bog'liqdir. Bu bilan shug'allanish pirovardida ruhiyat ozig'iga aylanadigan sehrli ohanglarni tarannum etuvchi namoyanda bo`lishi bilan izohlanadi. Uning bir umr chekkan barcha qiyinchiliklarini hayot mazmuniga aylantiradi. Ularning ijodi esa insoniyat ma`naviyati, ruhiyat uchun xizmat qiluvchi musiqiy merosga aylanadi.*¹

Yurtimizda musiqa san'atini rivojlantirish. yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bolalar va san'at maktablari, kasb-hunar maktablari, litseylar, oly o`quv yurtlaridagi o`quv-tarbiyaviy ishlarni zamon talablari darajasida tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Musiqa – inson ma`naviy olamining tarjimonи, u inson tuyg'usiga ta'sir etish bilan kishini ma`naviy jihatdan tarbiyalaydi. Bugungi kunda musiqa san'ati insonlarga va ayniqsa yoshlarga ko'tarinki ruh berishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka yo`naltirishi bilan ahamiyatlidir².

*Donishmand xalqimiz azaldan musiqa va qo'shiqni o`z ijtimoiy va madaniy hayotlarining muhim bo`lagi deb bilgan. Oilada farzandni qo'shiq aytishga, soz chalishga o'rgatish ota-onalarining orzusi sanalgan, shu niyat bilan xonadonda biron cholg'u soz saqlanishi odat qilingan. Kuy va ohangni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, ruhiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, xulq-odobi va yaxshi fazilatlarni shakllanib borishida katta ta'sir kuchiga ega bo`lishi chuqur anglab yetilgan.*³

Mamlakatimizda so`ngi yillarda ta'lim sohasiga bo`layotgan e'tibor, xususan maktabgacha ta'lim tizimidagi keng ko'lamlı

¹ N.Sobirov "Rubob va ud cholg'u ijrochiligidagi shakllangan ustoz sozandalar" "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal – (2) I/2020 ISSN 2181-063X 3-b

² T.Ortigov. Musiqa o`qitish metodikasi. O`quv qo'llanma. T.2010 y.

³ B.Tursunov "Cholg'u ijrochiligi tarixiga bir nazar" Oriental Art and

Issue 5 / 2020 ISSN 2181-063X 123-b

islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko`rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus. kasb-hunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralar kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi.

Hozirgi vaqtida respublikada 10000 dan ortiq davlat hamda xususiy ta'lim muassasasi faoliyat olib olib borayapti. Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada davlatimiz tomonidan qabul qilingan qator farmon, qaror va farmoyishlar maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga yo'naltirilganligi barchaning e'tiboridadir.

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-maydag'i PQ4312-sonli O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi. 2016-yil 29-dekabrdagi –2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-2707-sonli. 2017-yil 30-sentabrdagi Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-5198-sonli Farmoni. 2017-yil

9-sentabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261-sonli qarori, shuningdek, hamda Ilk qadam maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturini amalda joriy etish kabi davlat hujjatlarida bu sohaga oid masalalarini hal etish nazarda tutilgan.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2017-yil 17- noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tog'risida"gi qarori esa san'atimiz tarixida unutilmas voqeа bo'ldi. Mamlakatimizda har ikki yilda "Sharq taronalari". Xalqaro musiqa festivali 2019-yil iyun oyida Marg'ilon shahrida o'tkazilgan "Buyuk ipak yo'li" Xalqaro folklor festivali va 2019-yil 10-15 sentyabr kunlari Qo'qon shahrida o'tkazilgan Xalqaro hunarmandchilik festivallarining o'tkazilishi

o'zbek milliy san'atining naqadar go'zalligi va boy tarixga ega ekanligini namoyon qildi.⁴

Ushbu e'tibordan mazkur o'quv qo'llanma bolalarning musiqiy ta'lim va tarbiya olish ehtiyoji davlat dasturida ko'rsatilgan me'yor va talablar asosida yaratildi. Bolalarni milliy qadriyatlar xalq musiqa ijodi namunalari misolida tarbiyalash, ularda zaruriy bilim va ko'nikmalami tarkib toptirish maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Mazkur o'quv qo'llanmada maktabgacha ta'lim muassasalarida turli shakldagi musiqa mashg'ulotlari, nafosat soatlari, o'yin-kulgi, bayram tadbirlarini o'tkazish usullari, yo'l-yo'rqliqlari, ularga qo'yiladigan talablar atroficha yoritilgan. Shuningdek bo'lajak muttaxassislarga "Bolalar musiqiy ta'limi" fani bo'yicha metodik bilim va ko'nikmalarni o'rgatish, musiqiy ta'lim jarayonida yangicha innovatsion, interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash malaksasini shakllantirish kabi masalalarni yechish asosiy maqsad qilib olingan.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning musiqiy didini shakllantirishda musiqani ongli ravishda idrok etish ko'zda tutiladi. Musiqa mashg'ulotlarini ilmiy-metodik jihatdan har tomonlama takomillashtirib, zamon talabiga mos ravishda olib borish bugungi kun bo'lajak musiqa rahbarlari oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bu vazifalarni musiqa mashg'ulotlarini o'tishga doir metodik tavsiyalar. mashg'ulotlaming reja namunalari, bog'chalarda o'tkaziladigan ertaliklar, bayramlar, tadbirlar ssenariylari batafsil yoritilgan ushbu o'quv qo'llanmadan unumli foydalangan holda amalgalash mumkin deb o'ylaymiz.

* R.Ahmedov "Milliy musiqiy ijrochilik san'atiga bir nazar" "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (2) I/2020 ISSN 2181-063X 6-b

1-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA MUSIQAVIY TARBIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

- 1.Maktabgacha ta'lismuassasasida musiqaviy tarbiyaning maqsadi.**
- 2.Musiqaviy tarbiyaning vazifalari**
- 3.Musiqaviy qobiliyatini rivojlantirish.**
- 4.Bolalarni ashula aytish. musiqa tinglash va musiqaviy-ritmik harakatlarni o'rgatish.**
- 5.Bolada badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.**

Tayanch so'z va iboralar: musiqa ta'limi, musiqiy tarbiya, did, musiqa o'quvi, temr, ritm, estetik tarbiya, qobiliyat, iste'dod.

Maktabgacha ta'lismuassasalarida musiqa ta'limi va tarbiyasining asosiy maqsadi bog'cha yoshidan boshlab bolalaming dunyoqarashini shakllantirish hamda musiqiy didini o'stirib, bolalarga musiqani o'rgatish jarayonida unda hayot o'z aksini topishini anglatishdir. Shuni qayd etish lozimki, musiqa mashg'u lotlari oldiga qo'yilgan pedagogik maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun avvalo bolalarning musiqiy o'quvi va qobiliyatlarini muntazam ravishda o'stirib borish lozim.

Bolalarning musiqiy o'quv va qobiliyatlarini quyidagi faoliyatlardan iborat:⁵

- musiqiy o'quvi (musiqiy tovushlar baland-pastligini his etish qobiliyat);
- tembr o'quvi (musiqiy tovuslarni bir-biridan farq qilish);
- ritm tuyg'usi (musiqaga mos harakat bajarish. qada'in tashlab, chapak chalib musiqani xotirada saqlab. his etish va ifodalash).

Bolalarning musiqiy qobiliyatları musiqiy mashg'ulotlarning barcha elementlarini amalga oshirish jaayıyonida muntazam ravishda rivojlanib boradi

⁵ G. Sharipova, Sh. Yakubova "Maktabgacha ta'lismuassasalarida musiqa o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma Cho'lpox T-2007, 4-b

Bolalar bog'chalarida olib boriladigan musiqa ta'limgarbiyasinin asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolalarni musiqaga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish;
- musiqiy asarlar bilan tanishtirish jarayonida bolalarda emotsiyonal his-tuyg'ularini hosil qilish yo'li bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitish;
- bolalarni musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, musiqa ostida ritmik harakatlarni bajarish, bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish faoliyatları yordamida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib borish;
- bolalar ovozini asrab tarbiyalash, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish va odatlantirish;
- musiqiy asarlardan zavq olishni, shu asosda musiqiy did va badiiy fikr yuritishni rivojlantirish;
- musiqa mashg'ulotlari jarayonida musiqiy asardagi badiiy obrazlarni o'yin va raqs shaklida ifoda etishga o'rgatish;
- musiqa mashg'u1otlarida bolalaını milliy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish, milliy cholg'u sozlarimiz jo'rligida milliy musiqiy-ritmik harakatlarni bajarishga o'rgatish;
- musiqa mashg'u1otlari mazmunini bog'cha hayoti bilan bog'lash, bog'chada o'tkaziladigan tadbirlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlar bilan ishtiroy etish. Turli ertaliklar, konsertlar tashkil etish.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagini, ertasini yoshlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Musiqa san'ati insonning yoshligidan unga bevosita va kuchli ta'sir o'tkazib. uning umumiyl madaniy rivojida katta o'rin tutadi. Demokratik jamiyat madaniy hayotida yanada kengroq o'rin tutayotgan musiqa kishiga butun hayot davomida uning doimiy hamrohi hisoblanadi. Musiqa yagona san'at bo'lib, inson yuragiga juda chuqur kirib borib, ana shu qalb tug'yonini yorqin ifodalash qudratiga yega.

Demak, ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalashda musiqaning ham munosib o'rnı borligi ayni haqiqat, bolani estetik tarbiyalashdek sharafli ishni to'g'ri yo'lga qo'yish bizga, ya'ni, bo'lajak kadrlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Musiqa - estetik tarbiya, demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ulkan ishning

tarkibiy qismiga aylanmog'i kerak. Bolalar bilan musiqali ish olib borish ayniqsa katta ahamiyat kasb yetadi. Musiqa bola qalbida kuchli yemotsional tuyg'u uyg'otadi.

Demak, musiqa san'ati va ta'lif-tarbiyasi kishidagi insoniy fazilatlarni rivojlantirib, ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat yetadigan. insonning ichki olamini boyitadigan. iymon-e'tiqodini. irodasini mustahkamlaydigan, ijodini uyg'otadigan qudratli botiniy kuch - ma'naviyatning yuksalishini ta'minlaydi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyotini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqaviy idrokni o'stirmay, ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqtirmay turib. har tomonlama jismoniy boy, ma'naviy va qat'iy axloqiy sifatlarni tarbiyalab bo'lmaydi.

Yunon faylasufi Platonning fikricha, davlatning kuch-qudrati unda qanday musiqa, qaysi ohang va qay ritmda yangrayotganligiga to`g'ridan-to`g'ri bog'liq, Davlat uchun insonni yuksaklikka ko'tarishga yordam beruvchi musiqa kerak deb hisoblagan.

Musiqa yoshlikdan uyg'ongan qiziqish kishining keyingi musiqaviy rivozida kuchi ta'sir o'tkazadi, boshqa ko'nikma va didlarning shakillanishini ta'minlaydi, yaxshi musiqali didni tarbiyalaydi. Musiqa estetik va manaviy kayfiyatning ulkan manbayidir. Musiqaning bola hissiyoti va shakillanishiga, uning mazmuninmi tushunish va his yetishga katta ta'sirini hisobga olganda haqqoniy va voqiylikni to`g'ri aks yetirgan musiqali asardan o'rinni foydalanish alohida o'rinn tutadi. Musiqali obrazlar shakillanishining asosiy manbayi tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrof-olamdag'i go'zallikni idrok yetishiga bevosita bog'liqdir.

Ibn Sino ham musiqaning hissiy ta'sir kuchini e'tirof yetgan holda uni o'zining meditsina kitoblarida aks yetirgan hamda ruhiy kasalliklarni davolashda shifo dasturi sifatida tavsiya qilgan. "Tib qonuni" asarida bir o'rinda musiqaning ruhiy ta'sir kuchiga baho berib, gudakning tarbiyasidagi ahamiyatini shunday ta'riflaganlar: "Gudakning tanasi chiniqishi uchun ikki narsa zarur: biri uni asta qimirlatib tebratish, ikkinchisi onasining qo'shig'i (allasi). Birinchisi tanasiga, ikkinchisi - ruhiga tegishlidir".

Musiqali idrok yetishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning har tomonlama rivoji. Jumladan, estetik tarbiyasi vazifalar bilan bog'liq, umumiy maqsadlar bilan belgilanadi. Bunday vazifalar bolalarni musiqa sohasidagi faoliyatga jalb yetish, badiiy musiqaga estetik idrok yetishni va yemotsional o'zlashtirishni rivojlantirish, unga muhabbatni tarbiyalash, musiqali qobiliyatni o'stirish, musiqali didni shakllantirish, bolalarda badiiy ijodkorlik iqtidorini rivojlantirishdan iborat bo`lmog'i kerak.

Musiqaning bola hissiyoti va intilishiga, mazmuniga va his yetishiga katta ta'sirini hisobga olganda, haqqoniy va voqeylekni to`g'ri aks yettirgan musiqali asardan o`rinli foydalanish alohida o`rin tutadi. Musiqiy san'at uchun odamning fikrlash va ifodalash hissiyoti asos bo`lib xizmat qiladi. Musiqa tovush bilan hamohanglik rivojida dastlab nutq va raqs bilan bog'liq bo`lgan yedi. Musiqa mehnat harakati ritmi bilan moslashib, bir maqsadga intilayotgan kishilarni bir-birlariga birlashtirishni osonlashtiradi.

Nutq ohanglarini, mehnat jarayonlari ritmlari va musiqali ohanglarning umumlashuvi natijasida xalq musiqasi shakllanadi. Xalq san'ati manbalariga asoslangan musiqa hamisha jozibador bo`lib, qalbda turli his-hayajonlar uyg'otadi. Shu bilan birga, musiqada tovushlarga va tasviriy holatlarga taqlid qilish hollari bor, ammo masalaning mohiyati bular bilan belgilanmaydi. Musiqali obraz o`zining aniq ko`rinishi bilan bog'liqdir.

Mustaqil O`zbekistonning kelajagi, yertangi kun taraqqiyoti yegalari bo`lmish bolalarni estetik va ma'naviy boy, tarbiyali shaxs sifatida tarbiyalash muhim masaladir. Bu maqsadni amalga oshirishda musiqaning ham alohida o`rni va o`ziga xos xususiyatlari bor. Maktabgacha tarbiya muassasalarida musiqiy tarbiya - bu bir aniq maqsadga yo`naltirilgan, ya'ni maktabgacha yoshdagи bolani estetik, axloqiy, aqliy rivojini amalga oshirish, bolani shaxs sifatida tarbiyalash, uni dunyoqarashini kengaytirish, o`z iqtidorini namoyon qila olishga, estetik jihatdan musiqani tushunishga, unga ijodkorona yondasha olishga o`rgatishdan iboratdir.

Har bir bola musiqaning qaysi yo`nalishini o`rganishidan qat'iy nazar uning yosh xususiyatlarini, psixologik rivojini musiqa

rahbari nazarda tutishi lozim. Unda uzlusiz davom yetadigan bir butun ta'lim-tarbiya jarayonining belgilovchi ilk turi "maktabgacha ta'lim" deb ataladi. Birgina shu yondashuvning o'ziyoq tarbiyaga mehribonlik va adolat bilan qarashni talab yetadi. Negaki, bugunki yosh avlodlarni XXI asrda kuchga to'lib, sog'lom, bilimli, aqli bo'lib jamiyatimizning faol a'zolariga aylantirishdek ulkan vazifa musiqa rahbari va tarbiyachi zimmasida turibdi.

Agar kichik yoshlарimizdagи shijoatni. kuch-qudratni. bilimdonlikni hamda vatanparvarlikni musiqa yordamida uyg'unlashtira olsak, bundanda ziyoda qudratni topa olmaymiz. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga yerishish uchun «Uchinchi mingyillikning bolasi» tayanch dasturi va o'quv qo'llanma asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari ko'pgina o'quv va metodik qo'llanmalar mavjud.

Bularning asosiy maqsadlari bir yo'lga, ya'ni estetik rivojlangan, komil insonni tarbiyalash va voyaga yetkazishdir.

Birinchi Prezidentimiz «Bolalarimiz bizdan ko'ra dono, aqli, bilimdon, sog'lom va albatta baxtli bo'lishi kerak» deb ta'kidlashlari beziz emas. «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi maktabgacha ta'lim bilan shug'ullanadigan barcha muassasalar uchun bajarilishi zarur bo'lgan davlat o'quv dastur hisoblanadi. Davlat o'quv dasturining pirovard natijasi maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablarining bajarilishiga yerishishdan, ya'ni maktabga jismonan, aqlan va ma'nан yetuk bolalarni tayyorlashdan iboratdir.

San'at - kishilik faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, kishi shaxsi san'at vositasi yordamida va ishtirokida to'laligicha yorqin namoyon bo'ladi. Hozirgi kelajak avlodni estetik tarbiyalashda san'at muhim o'rinn tutadi.

San'at insonparvarlik va odamiylik hamkorligi ruhida uning hissiyotini o'stirishda yordam berib, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Hozirgi zamон yoshlарiga estetik idroklarini tarbiyalash borasida g'amxurlik qilar ekanmiz, san'at bilan muomala qilishdan hosil bo'ladigan his-hayajondan uni o'z hayoti

va faoliyatida foydalana olishga o'rgatishimiz kerak. Shu sababli estetik tarbiya tarmog'inining ajralmas qismi sanaladi.

Bolalarda kichik yoshlik chog'idan idrok etish, his yetish, turmush va san'atdagi go'zallikni tushunish ishtiyoqi tarbiyalanadi va bu kabi go'zallikni yaratishga intilish kuchayadi. Bolaning badiiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi ortadi. Unda badiiy-ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Musiqiy-estetik tarbiya demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog'i kerak. Bolalar bilan musiqali ish olib borish ayniqsa katta ahamiyat kasb yetadi. Omma orasida musiqali targ'ibot olib bormay turib, to'laqonli natijalarga yerishib bo'lmaydi. Musiqiy tarbiya bolalarda yerta yoshdan boshlanishi kerak. Musiqa bola qalbida kuchli yemotsional tuyg'u uyg'otadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyotini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqiy idrokini rivojlantirmay ularning musiqaga mehrmuhabbatini yetarli darajada qiziqtirmay turib. har tomonlama jismoniy, ma'naviy boy va boshqa sifatlarni tarbiyalab bo'lmaydi.

Musiqaga kichik yoshlikdan uyg'ongan qiziqish kishining keyingi musiqiy rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra musiqani idrok yetishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan estetik tarbiyasi vazifalari bilan bog'liq umumiylar maqsadlar bilan belgilanadi. Ma'lumki, bunday vazifalar bolalarni musiqa sohasidagi faoliyatlarga jalb yetish, badiiy musiqaga nisbatan estetik idrok yetishni va emotSIONAL O'ZLASHTIRISHNI rivojlantirish, muhabbatni tarbiyalash, musiqiy qobiliyatlarini o'stirish, musiqiy didni shakllantirish, qisqasi bolalarning badiiy ijodkorligi hamda iqtidorini rivojlantirish kerak. Musiqaning bola hissiyoti va intilishiga, uning mazmunini tushunish va his yetishga katta ta'sirini hisobga olganda haqqoniy va voqelikni to'g'ri aks yetirgan musiqiy asardan o'rinni foydalanish alohida muxim o'rinni tutadi. Ma'lumki, musiqali obrazlarning shakllanishining asosiy manbai tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrofimizdag'i dunyo va undagi go'zalliklarni idrok yetishga bevosita bog'liqdir.

Shu borada musiqa mashg'ulotlari mazmuni bolalar tomonidan bajaradigan qator faoliyatlarni taqozo yetadi. Bular dan

tinglash, kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg'ularida ijro yetish jarayonida bolalar ijrochiligi va ijodkorligi malakalari shakllanadi. Musiqa - san'atning bir turi. U san'atning yana boshqa turlari bilan musiqa chambarchas bog'liqdir. Masalan, musiqa mashg'ulotlarini raqs, she'riyat (adabiyot), badiiy san'at va san'atning boshqa turlari, undan tashqari jismoniy tarbiya, tasviriy san'at va boshqalar bilan qo'shib olib borish nazarda tutilgan. Bu masala «Uchinchi mingyillikning bolasi» tayanch dasturi va o'quv qo'llanmada ham alohida ta'kidlanadi. Bolalar ijrochiligi - kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg'ularida ijro yetish va hokazo masalalari hozirgi kunda o'zining dolzarbliji bilan ko'pgina pedagog-olimlarning diqqat markazidadir.

Uzluksiz ta'lif tizimida musiqiy ta'lif tizimi bir necha bosqichlardan iborat. Musiqa ta'limi boshqa fanlar kabi mакtabdan emas, balki maktabgacha ta'lif muassasalaridan boshlanadi va ta'lif tizimining barcha jabhalarida davom yetadi.

Shuning uchun biz kelajak avlodni musiqiy bilimga yega bo'lishlariga zamin yaratar yekanmiz. Ularning musiqiy-estetik tarbiyalariga alohida e'tiborimizni qaratmog'imiz zarur. Buning uchun «Ta'lif to'g'risidagi Qonun»da ta'kidlab o'tilganidek, nafaqat bola shaxsi, balki musiqa rahbarsi shaxsini, uning ma'naviy-madaniy qiyofasini shakllantirishimiz, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, milliy-musiqiy an'analarimizga amal qilgan holda bo'lajak musiqa rahbarlarmizni yosh avlodni tarbiyalashga loyiq hamda munosib inson qilib shakllantirishimiz kerak. Albatta turli guruhlarda ham musiqa fani kichik yoshdag'i bolalar uchun yeng qiziqarli fanlardan biri sanaladi. "Bolalar musiqa ta'limi" o'quv fanida ham kichik yoshdag'i bolalarni estetik tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilub tayanch dastur ishlab chiqildi. Ushbu dasturda umumiyo'rta ta'lif maktablarida musiqiy ta'lif-tarbiyaga qo'yiladigan maxsus talablar ham dasturning asosiy qismlari qatoridan o'rin olgan. Unga ko'ra bolalarni musiqiy-estetik tarbiya uchun quyidagilarga rioxal qilish kerak:

- Musiqiy-estetik faoliyatni atrof muhit hamda zamon bilan hamohangligi;

- Musiqaning san'at sifatida o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;

- Bolalarning musiqiy rivojlanishlarida uzviylikni ta'minlash;

- Bolalarning qobiliyat va imkoniyatlaridan qat'i nazar ularning musiqiy tarbiyalariga qo'yiladigan majburiyatlar.

Dasturda musiqiy tarbiyaning mazmuni va yo`nalishlari ochib berilgan, bolalarning rivojlanishining dinamikasi begilangan, har xil yoshdagi guruhlarga minimal talablar qo'yilgan va aks yettirilgan.

Dasturning maqsadlari quyidagilardan tashkil topadi:

- bolalarni quvnoq, g'amgin, yengil va vazmin musiqani tinglashga past va yuqori registrni yeshita olishga, musiqa tilini tushunishga, past ovozli va baland ovozli musiqaga mos chapak chalish orqali musiqa dinamikasini ajratishni o`rgatish;

- kattalar ketidan musiqani taqlid qilib, intonatsion mos ravishda

qaytara olish;

- musiqiy rahbar boshchiligidagi raqs harakatlarini bajarish;

- kompozitorlar, musiqiy cholg'u asboblari haqida gapirib berish orqali

- bolalarda musiqa san'atiga muhabbat uyg'otish;

- bolalarni musiqani diqqat bilan tinglashga o`rgatish, yengil va oson xalq qo'shiq hamda kuylarini musiqasiga mos ritmik harakatlar bajarib ijro etishga o`rgatish. Musiqa sur'atiga mos chapak chalish yoki oyoq bilan jo'r bo`lish orqali qo'shiqni ijro eta olish.

Bolalar musiqiy ta'limi fanining umumiy maqsadi: Bakalavrлarni maktabgacha yoshdagi bolalarga musiqiy tarbiya metodikasi, musiqiy tarbiya turlari, musiqiy mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi bilan tanishtirish.

Fanning vazifalari:

-maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqaga mehr-muhabbat va qiziqish uygotish, boshlang'ich musiqali didni tarbiyalash.

-maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqani idrok yetishga, uning tinglash qobiliyati, estetik didi, umumiy madaniyatni rivojlantirish.

-maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqali qobiliyatni o'stirish, musiqali didni shakllantirish, badiiy ijodkorlik iqtidorini rivojlantirish.

-musiqa asarlarini idrok etishni tarbiyalash.

-musiqa tinglashga, kuylashga, musiqa asboblarini chalishga, musiqali ritmik harakatlarga o'rgatish metod va usullari.

-musiqaviy qobiliyat: musiqaga yemotsional munosabat, musiqani tinglay bilish, ritmni his etish malakalarini shakllantirish.

-bolalarda musiqa hamda ashula aytish, ritmika, bolalar musiqa asboblarini chalish sohasida eng oddiy ijrochilik malakalarini shakllantirish.

-umumiyyusini o'stirish.

Musiqiy tarbiyaning asosiy vazifalari:

1. Musiqaga muhabbat va qiziqishni o'stirish.
2. Bolalarning musiqiy tajribasini boyitish (musiqiy asarlar asosida).

3. Bolalarni oddiy musiqiy tushunchalar bilan tanishtirish, musiqa tinglash, kuylash, musiqiy ritmkasi borasida malakalarni rivojlantirish.

4. Bolalarda emotsiyalarni shakllantirish. Ularda lad hissi. ritm tuyg'usini o'stirish va harakatni o'tirish.

5. Musiqiy didni o'stirish (musiqiy taassurotlar asosida).

6. Bolalarda ijodkorlikni o'stirish (barcha faoliyatlar asosida).

Tarbiyachi o'z dasturiga o'zbek kompozitor va bastakorlarning bolalar uchun yozilgan kuy va qo'shiqlaridan kiritishi lozim. Musiqiy asarlar bolalarning psixologik xususiyatlarini, ularning qiziqishlari va dunyoqarashlarini hisobga olgan holda tanlanishi kerak.

Musiqa tarbiyasi bolalar bog'chasi va umumiyyusini o'rta ta'lim maktablarida umumiyyusini fanlar tarkibida o'qitiladi.

Hozirgi kun talabi maktabgacha ta'lim muassasalarini oldiga musiqiy-estetik tarbiya berish borasida aniq vazifalarni qo'yadi:

- ❖ bolalarni tabiat go'zalliklarini, badiiy asarlarni idrok etish;
- ❖ estetik did va hissiyotni shakllantirish;

❖ hayotda go`zallik tushunchasini to`liqligicha anglashni o`rgatish;

❖ bolalarga badiiy ijodkorlikni shakllantirish;

❖ bolalarda go`zallikni o`z hayotlariga, o`z faoliyatlariga olib kirishni o`rgatish va hokazo.

Uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim muhim o`rin egallaydi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarining ahamiyati uzluksiz ta'limning oldingi bosqichi sifatida muhim rol o`ynamoqda. Shuning uchun har bir fanning alohida o`qitilish ahamiyati oshib bormoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi har bir fanning asosiy vazifasi bolalarni fikrlash va o`ylashga o`rgatishdir.

Musiqa san'atining ahamiyati Musiqa shunday san'at turiki, u insonlarni kechinmalari, emotsiyal hissiyotlari orqali birlashtiradi. Ular orasidagi aloqa vositasiga aylanadi. Bir kompozitor tomonidan yaratilgan musiqa boshqa insonlar qalbida turli-tuman kechinmalar uyg'otishining o`zini bir mo`jiza deb, atash mumkin. Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson shaxsini shakllantiruvchi yetakchi omillardan biri - ta'lim- tarbiyadir. Estetik tarbiya esa uning tarkibiy qismi sifatida go`zallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning birligi, san'atning xalqchilligi to`g'risidagi ta'limotga suyanib, bolalarning obektiv dunyo haqidagi bilimini kengaytiradi va chuqurlashtiradi. ijodiy qobiliyatini va iste'dodini o`stiradi hamda ularda yuksak ma'naviy fazilatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Odatda, estetik tarbiyaning maqsadi bolalarda estetik histuyg'u va fikrlarni rivojlantirish, go`zallikni ko`ra bilish va ulardan zavqlana olishdan iborat, deb tushuniladi.

Aslida estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari bu bilan chegaralanib qolmaydi. Bolalarni go`zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik, kulfatni anglash va ko`ra bilishga o`rgatadi. Estetik tarbiya umuminsoniy va milliy qadriyatlar qaror topishiga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, histuyg'ulariga, tasavvuriga, e'tiqodiga, dunyoqarashiga, xattiharakatlariga, xulq-atvoriga ta'sir o`tkazadi.

Musiqa tili barchaga tushunarli va yaqindir. Shuning uchun ham barcha xalqlar musiqalari jozibadordir.

Musiqa tovush tovlanishlari orqali fikr va tuyg'ularni aks ettiradi. Hayot bosqichlarida insoniyatni to'lqinlantirib kelgan axloqiy muammolarni bayon qiladi. Bunda musiqaning falsafiy mohiyati ham namoyon bo'ladi. Ajoyib musiqa asarlari chuqr falsafiy mazmun bilan sug'orilgan bo'ladi, musiqada hayot va o'lim, shaxs va jamiyat, yezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks yetadi.

Musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir qilishining tugallanmas imkoniyatlari haqida qadimdan musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o'ziga tortgan. Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va jamoat arboblari san'atlar ichida musiqa san'atining insonni shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladigan xususiyatlari haqida aniqlashga uringanlar.

Qadim zamonlardan musiqaning, ayniqsa, uning komponentlari - ritm va kuyning inson kayfiyatiga ta'sir, uning ichki dunyosini o'zgartirishi haqida fikrlar mavjud bo'lgan.

Musiqa san'ati estetik tarbiyaning muhim omili sifatida shaxs shakllanishiga kuchli ta'sir yetadi. Oilada, MTMda, mакtabda musiqa mashg'ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyuştirish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san'atni to`g'ri tushunishdagi samarali yo'ldir. Musiqa inson his-tuyg'ularini, orzu-umidlarini, xohish-istikclarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda yetadi va kishining his-tuyg'ulariga faol ta'sir yetadi. Musiqa ham fan, ham san'atdir. U fizika va matematikaga asoslanadi, bu fanlar musiqani fanga aylantiradi. Lekin musiqa asariga shu fanning turg'un tushunchasi sifatida qarab bo'lmaydi. Chunki musiqa har doim rivojlanib turuvchi jonli san'atdir. Musiqa san'ati inson hayotining ilk yillardanoq uning hamrohiga aylanib, umumiyl madaniy rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadi. Musiqa inson umrining doimiy yo'ldoshi, Stendalning aytishiga ko'ra, musiqa - san'at turlari ichida insonning yuragiga chuqr kirib, uning ichki kechinmalarini aks ettirishga qodirdir. «Musiqa san'atning ifodali turi tizimiga kiradi. Musiqa ham voqeа- hodisalarni ifodali aks yettiради. Ammo u me'morchilikdagi kabi fazo va moddiy ashyo o'lchovlari bilan belgilanmaydi. Musiqa ko'rish orqali emas, balki yeshitish vositasida idrok qilinadi. Musiqa mavzui o'z xususiyatiga ega bo'lib, inson va vogelikdagi barcha tomonlarni qamrab

ololmaganligi uchun eng avvalo, inson ichki ma'naviy dunyosini, uning tuyg'u va kayfiyatini ifodalaydi. Musiqa voqelikning his-tuyg'uli qiyofasini yaratadi. » Musiqa kayfiyat holatini ifodalashda keng imkoniyatga ega. Inson kayfiyati murakkab hissiyot bo'lib, u hech narsa bilan bog'lanmagan. Kayfiyat umumlashgan xususiyatga yega bo'lib, undan ikkilamchi tomonlar chiqarib tashlanadi va insonning voqelikka bo'lgan tuyg'u munosabatini belgilaydigan eng muhim tomonlari ajratib olinadi. Musiqaning kuch-qudrati shundaki, u shodlanish, qayg'urish, hayol surish, bardamlik, jasurlik, tushkunlik va shunga o'xshash inson ruhiy holatlarini xususiy va umumiylar tarzda o'zaro bog'liqlikda, bir-biriga singib ketishida namoyish qila oladi.

Musiqa «til»i barcha qismlarning uzviy birligini, asar shaklini ifodalaydi. Shakl - musiqa mazmunining moddiy ifodasi. Bastakor fikri, tuyg'ulari, tasavvurlari eshituvchilarga musiqiy shakl orqali yetib boradi. Shu bois musiqa «til»ini egallahga, uning mazmun-mohiyatini anglashga, musiqadagi fikrlar, tuyg'ular, kechinmalar boyligini o'zlashtirishga keng yo'l ochadi. O'sib kelayotgan avlod uchun musiqiy tarbiyaning ahamiyatini nihoyatda buyuk ekanligini qadimiy mutafakkirlar alohida urg'u bilan ta'kidlashgan.

Kelajak jamiyat a'zosining insoniy va ijobiy fazilatlari aynan bolalikdan boshlab shakllana boradi. Aynan shu davrda musiqa ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi vosita hisoblangan. Musiqa ashula va raqs tarkibida ham vujudga keladi va keyinchalik badiiy ijodning mustaqil turiga aylanadi, o'ta o'ziga xos badiiy ifoda «til»iga yega bo'lib, maxsus ishlab chiqilgan va tanlab olingan tovushlar ana shu «til»ning manbaidir.

Albatta, musiqa shaxsni shakllantirishning, uning ijobiy fazilatlarining yo'nalishlarini o'z-o'zidan belgilab bermaydi. Tarbiyaviy ta'sirning yeng muhim tomonlari musiqiy asarning g'oyaviy mazmuniga bog'liqdir. Ana shu bilan musiqiy-estetik tarbiyaning vazifalari belgilanadi. Mashhur polyak kompozitor K. Shimanovskiy o'zining «Jamiyatda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati» nomli maqolasida, musiqaning tabiiy kuchi haqida gapirar yekan.

- uning ikki qarama-qarshi yo'nalishda;

- yaratish va buzish uchun ishlatish mumkinligini;
- «kerakli ishga yo`naltirgan holda. tez oqar daryoning suvlaridan foydalanib. foydali va unumli ishlar uchun, ya`ni tegirmонни аylantirish uchun ishlatgандек. musiqa kuchidan ham unumli foydalanish kerak». - degan.

Musiqaning insonga ta'siri, shaxsnинг va jamiyatning ruhiy hayotidagi о`rni kompleks muammo hisoblanadi. Ushbu murakkablik va serqirralik fanga darrov kelmadi. Shu o'rinda Asafevning «... musiqa - bu ham san'at, ham fan, ham til, ham o`yin»-degan so`zlarini eslash maqsadga muvofikdir.

Demak, bolalarning estetik, musiqiy hamda shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda musiqa san'atining о`rni beqiyosdir. Musiqa kishiga har tomonlama ta'sir ko`rsatar ekan: kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga chuqur ta'sir qilib, unda har xil hislarni uyg'otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. Qo'shiqning matni, g'oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning ongiga ham ta'sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga majbur yetadi. Kishilarda asarda aks yetgan ma'naviy muammolarga nisbatan muayyan munosabat uyg'otadi. Bunday ta'sir g'oyat murakkab va kuchlidir.

Musiqa qobiliyatini rivojlantirishning shart-sharoitlari.

Qobiliyat - ma'lum bir turdagи faoliyatni muvaffaqiyatli amalgaloshirishning subektiv sharti bo`lib hisoblanuvchi shaxsnинг individual xususiyatidir. Qobiliyat - faoliyat jarayonida namoyon bo`ladi. Psixologiya fanining ko`rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biron-bir qobiliyatning ro`yobga chiqish va rivojlanish manbai layoqat bilan tug'iladi. Layoqat o`z holicha rivojiana olmaydi, uning rivojlanishi uchun qulay muhit kerak. Bola musiqaga layoqat bilan tug'ilishi mumkin, lekin uning musiqiy xususiyatlari shakllanishi uchun qulay muhit yaratilmasa, musiqaga bo`lgan layoqati rivojlanmay qoladi. Insonning shaxs sifatida shakllanishida yetakchi omillardan biri muhitdir. Muhit deganda kishiga ta'sir yetadigan tashqi voqealar yig'indisi tushuniladi. Muhit o`z navbatida - tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhit va boshqalarga bo`linadi. Insondagi musiqiy layoqatning rivojlanishi va shakllanishi uchun ijtimoiy va oila muhit muhimdir. Inson bolasi, agar insoniy muhitga tushmay, hayvonlar

muhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko`rinishlari saqlanadi. lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti-harakat shakllanmaydi. Odob, axloq, fe'l-atvor - shaxsning barcha ruhiy sifatlari faqat muhit va tarbiyaning o`zaro ta'siri asosida vujudga keladi. Bolalarning musiqa ijrochiligi malakalarini rivojlantirishdagi yeng muhim shartlardan biri - ularning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirishdir. Chunki musiqiy qibiliyatlar - musiqani ritmik his qilish, ladni his qilish, musiqiy yeshitish, musiqiy xotira, musiqaga yemotsional ta'sirchanlik bolalarda ijrochilik malakalarini rivojlantirish omili hisoblanadi. Pedagog N. V. Vetlugina "... musiqa kechinmalari aslini olganda doimo sensor qobiliyatga asoslanadi. chunki musiqa yeng oddiy ohanglar. murakkab obrazlar va yeng avvalo hissiyotlar orqali idrok etiladi va musiqiy qobiliyat rivojlanadi". - deb ta'kidlagan. Qobiliyatning eng yuqori darjası - talantdir. Talant - insonga qaysidir murakkab faoliyatni muvaffaqiyatli, mustaqil va o`ziga xos ravishda amalga oshirish imkonи qobiliyatdir. Shu o'rinda bir narsani aytish kerak, musiqiy qobiliyati bo`lgan barcha insonlarning avlodlari ham musiqiy qobiliyatga ega bo`ladi, degan fikrga qo`shilmaymiz. Ularning bolalarida musiqaga layoqat bo`lishi mumkin, lekin shu layoqat rivojlantirilmasa, layoqat qobiliyatga aylanmay, ya'ni shakllanmay qoladi. Zero, musiqa yosh avlodning ma'naviy, badiiy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy gururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, fikr doyrasini kengaytirishga, ijodiy mahorati va badiiy didi o'sishiga, mustaqilligi va tashabbuskorligini tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu sababli Respublikamizdagi har bir mакtabda hozirgi kunda musiqiy-estetik tarbiyaga pedagogikaning shaxsni shakllantiruvchi eng muhim omili sifatida qaralmoqda. Olimlardan Platon inson qibiliyatları tug'ma yekanligini aytgan va inson bilgan barcha narsa uning ideal bilimlar dunyosida bo`lgan paytidan xotiralar bo`lib hisoblanadi, deb taxmin qilgan.

Frengsiz Galton o`zining "talantning tug'maligi, uning Qonuniyatları va oqibatlari" (1869) nomli kitobida "... buyuklik va iste'dod avloddan avlodga o'tadi, muhit esa bunda ikkinchi darajali omildir. . . ". - deb aytgan. Biroq ko`pgina mashxur ijrochilar buyuklikning sababi to`qson foiz mehnatdandir va

qolgan foizlarigina qobiliyatga bog'liqligini ta'kidlashgan. Lekin faqat mehnat bilan ham qobiliyatni cheksiz darajada rivojlantirib bo'lmaydi. Kishining qobiliyati ma'lum bir imkoniyat va shaxsiy xususiyatlari doirasidagina shakllanadi.

Estetik va emotsiyal muhit musiqa olamida bolaga emotsiyal qulayliklar yaratib, undagi ijodga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi. Biroq, musiqiy muhitning samaradorligi faqat tashqi sharoitlarga gina bog'liq bo'lmay, balki bola musiqiy rivojlanishini tartibga soluvchi muloqot, musiqiy-nazariy hamda psixologik bilimlarga ham bog'liq.

Musiqa mashg'u1ot1arida bola hayotini, tevarak-atrofni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bog'chada musiqiy tarbiya ishlari badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy ravishda bog'langan holda amalga oshiriladi. Turli metodlardan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqa mashg'uloti bolalarda badiiy-estetik zavq uyg'otadi, ularning his-tuy'g'ularini shakllantiradi, ijodiy fikrlash qobiliyati va nuqtini o'stiradi. Bundan tashqari musiqiy o'yinlar va raqslar bolalarda ritm tuyg' usi, chaqqonlik va harakatchanlik malakalarini shakllaniirib, qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi. Bu bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'ljin muassasalarida olib boriladigan barcha musiqiy ta'lim-tarbiyaviy ishlar yosh avlodda olijanob fazilatlarni bog'cha yoshidan shakllantirishda nafosat tarbiyasining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN INTERFAOL METOD




"Intervyu" metodi:

Metod bir-birlari bilan tanish bo'lмаган о'quvchi (talaba)lar о'rtasida о'заро muloqotni tashkil etish, ularning bir-birlari bilan

yaqindan tanishishlari uchun zarur sharoitni yaratib berish maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda bir-birlarini yaxshi tanimaydigan juftliklar tuzilib, o'quvchi (talaba)larning tanishib olishlari uchun 2-3 daqiqa vaqt beriladi. So'ngra juftlikning har bir a'zosi jamoaga biror qiziqarli dalil yordamida o'z sherigi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi. Bunda guruhdagi har bir o'quvchi (talaba)ning bir nafar kishi bilan tanishishi nazarda tutiladi. Metod o'quvchi (talaba)da dadillik, jur'atni hosil qiladi. Biroq, bu metodni 25 nafardan ortiq a'zosi bo'lgan guruhlarda qo'llash samarali hisoblanmaydi.

"Intervyu" metodidan bolalar oromgohlari, volontyorlik guruhlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari, oliy o'quv yurtlari hamda ta'lim oluvchilardan iborat yangi ijtimoiy guruhlar tashkil etilganda foydalanish samarali sanaladi.

"Intervyu" metodi quyidagi sxema asosida qo'llaniladi



Ta'lim jarayonida ushbu metod juftlik asosida mavzu bo'yicha o'quvchi (talaba)lar tomonidan o'rganilgan bilimlarning namoyish etilishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Bunda juftlikdagi o'quvchi (talaba)larning biri "Muxbir", ikkinchisi esa "Taniqli shaxs" bo'lishi lozim. Intervyu jarayonining har ikki qatnashchisi ham mavzuni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi shart. "Muxbir" o'rganilgan mavzu yuzasidan savollar to'plamini ishlab chiqadi, "Taniqli shaxs" esa savollarga javob bera olishi lozim. Savollar va


ular yuzasidan berilgan javoblarni yozma shaklda qisqacha bayon etish maqsadga muvofiqdir. Zero, belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, har bir "Muxbir" jamoa a'zolarini o'zi tuzgan savollar, ular yuzasidan "Taniqli shaxs" bergan javoblar bilan tanishtiradi. Barcha "Muxbir"larning chiqishlari tinglangach, jamoa a'zolari o'qituvchi rahbarligida eng maqbul savollar to'plamini, savollarga berilgan eng to'g'ri, batafsil javoblar variantlarini aniqlab, g'oliblarni belgilaydi. Jamoaning fikrini inobatga olgan holda o'qituvchi g'oliblarni e'lon qiladi.

Nazorat uchun savollar:



1. Maktabgacha ta'lif muassasasida musiqaviy tarbiyaning asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Musiqaviy tarbiyaning vazifalarini sanab o'ting?
3. Musiqaviy qobiliyatini rivojlantirishning uslubiy asoslarini sanab o'ting?
4. Bolalarni ashula aytish, musiqa tinglash va musiqaviy ritmik harakatlarni o'rgatish uchun qaysi turdag'i mashg'ulotlarni tashkil etish tavsiya qilinadi?

Mustaqil ta'lif uchun topshiriq:



"Maktabgacha ta'lif muassasasida musiqaviy tarbiyaning maqsadi" mavzusida taqdimot yarating!

2-MAVZU: MUSIQIY TARBIYA VAZIFALARI

Reja:

- 1. Musiqiy tarbiyaning yoshga xos jihatlari.*
- 2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanish bosqichlari.*

Tayanch so'z va iboralar: hissiy munosabat, eshitish qobiliyati, ijrochilik, ijodkorlik, emotsiyal his, obraz.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi, ertangi kun taraqqiyoti egalari bo`lmish bolalarni to`g'ri va ma'naviy boy, tarbiyali shaxs sifatida tarbiyalashdir. Bu maqsadni amalga oshirishda barcha sohalar kabi musiqa ham alohida o'rinni kasb etadi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida musiqiy tarbiya - bu bir aniq maqsadga yo`naltirilgan, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolani estetik, axloqiy, aqliy rivojini amalga oshirish, bolani shaxs sifatida tarbiyalash, uni dunyoqarashini kengaytirish, o`z iqtidorini namoyon qila olishga, estetik jihatdan musiqani tushunishga, unga ijodkorona yondasha olishga o`rgatishdir.

Musiqiy tarbiyaning yoshga xos jihatlari

Har bir bola musiqanining qaysi yo`nalishini o`rganishidan qat'iy nazar uning yosh xususiyatlari, psixologik rivojini musiqa rahbari nazarda tutishi lozim.

Bolaning musiqiy rivoji bu to`g'ri va uzlucksiz ravishda yo`lga qo`yilgan faol musiqiy jarayondir. Bu rivojlanish quyidagicha kechadi:

- Hissiy munosabat. Oddiy musiqiy tasavvurdan murakkab va ko`p tomonlama rivojlangan musiqiy asarlarni tushuna olish;
- Musiqani eshitish qobiliyati - musiqanining tembri, tovush balandligi, musiqa ifoda vositalari.
- Ijrochilikning ilk shakllanishi. Bola o`zining bilim va ko`nikmalariga tayanib, unga tanish bo`lgan musiqaga matn yoki raqs elementlarini ijro etish.

Musiqa tarbiya boshqa sohalar kabi o`ylab chiqilgan tizim va rejalgarda asoslanib uzlucksiz olib boriladigan jarayondir, ya'ni har bir mashg'ulotda o`ylab chiqilgan ma'lum maqsad sari birin-ketin

qadamba-qadam erishiladi. Bu jarayonda musiqa rahbari sardor vazifasini o'taydi va bolalarni o'zi bilan ergashtirib yuradi. Bu jarayonning yana bir muhim jihatlaridan biri bu – har bir bolaning individual dunyoqarashi va iqtidorini nazarda tutish kerak. Ayrim bolalarga tanbeh berish bilan kifoyalansa, ayrim bolalarga tanbeh salbiy ta'sir ko'rsatib, ular o'z faoliyatlarini ko'rsatmay yanada qisilib qolishadi.

Musiqiy tarbiya vazifalari:

1. Musiqaga muhabbat va qiziqishni o'stirish.
2. Bolalarning musiqiy tajribasini boyitish (musiqiy asarlar asosida).
3. Bolalarni oddiy musiqiy tushunchalar bilan tanishtirish, musiqa tinglash, kuylash, musiqiy ritmikasi borasida malakalarni rivojlantirish.
4. Bolalarda emotsiional hisni shakllantirish. Ularda lad hissi, ritm tuyg'usini o'stirish va harakatni o'tirish.
5. Musiqiy didni o'stirish (musiqiy taassurotlar asosida).
6. Bolalarda ijodkorlikni o'stirish (barcha faoliyatlar asosida).

Bolalarning shaxs sifatida tarbiyalash uchun ta'lim jismoniy va ongli tarbiya uyg'unlikda olib borilishi kerak. Bu maqsadga erishish uchun bolalarda to'g'ri tashkillashtirilgan musiqiy mashg'ulotlar tashkil etiladi. Estetik tarbiya mактабгача yoshdagi bolalarda go'zallikni tushunish, uni his qilish, yaxshi va yomonni, badiiy san'at turlarini farqlay olish va ularga ijodkorona yondashishga yo'naltirilgandir. Estetik tarbiyaning eng ko'zga ko'rigan omillaridan biri bu - musiqadir. Bu maqsaddarga erishish uchun mактабгача yoshdagi bolalarning umumiy musiqiyligini rivojlantirish kerak.

Bolalarning umumiy musiqiyligiga nimalar asos bo'ladi: musiqa bolaning estetik tarbiya omili sifatida unga go'zallikni kabul qilish, tushunish qobiliyatlarini rivojlantirish. Bu masalalarni xal etish uchun umumiy musiqiylikni rivojlantirish zarurdir.

Musiqiy omillar 3 tamoyilga bo'linadi:

1. Musiqaning xarakteri, kayfiyatini his etish, musiqaga emotsiional munosabat bildirish (musiqaning ifodaviyligi va

tasviriyligi). Bolada musiqani tinglaganda uning xarakteriga mos kayfiyatda bo`lishiga erishish kerak.

2. Eng yorqin musiqiy obrazli asarni tinglash, taqqoslash va baho berish. Bunda musiqa ifoda vositalari, musiqiy asboblar tembrlari, eshitish madaniyati talab etiladi. Masalan, cholg'u asboblarning yuqori va past tembrlari (skripka - alt. konstrabas - violonchel va boshqa asboblar).

3. Musiqaga ijodkorlik munosabatini bildirish. Har bir bola biror musiqiy asarni eshitib o`zicha badiiy tasavvur qiladi va qo'shiqda, o`yinlarda, raqs elementlari bilan hissiy munosabat bildirishi mumkin. Bu bolalarda ijrochilikning ilk namoyishlari, ya'ni ilk urug'lari bo`lishi mumkin.

I. Musiqa - bolalarning aqliy faoliyatining faollashtiruvchi omildir.

II. Musiqa - axloqiy olim bo`lib, ma'naviyatning ajralmas qismini tarkib toptiradi. Musiqadan an'analarga hurmat, Vatanni sevish va boshqa tarbiyaviy axloqiy muammolarni tarbiyalaydi.

III. Musiqa - jismoniy tarbiya omili hamdir.

Endi bu omillarnin birma-bir ko`rib chiqamiz:

I. Musiqa bolaning hissiyotiga va kayfiyatiga ta'sir qiladi. Bu bolalarga asarni tanishtirar ekanmiz ularda musiqani his qilish, u bilan birga kechinmalarni boshdan kechirishga o`rgatamiz. Qardosh va chet el qo'shiqlari va raqslarini o`rgatar ekanmiz bu xalqlarning an'analari, tarbiyasi bilan ham tanishtiramiz. Musiqaning boy janrlari - qaxramonlik obrazi yoki lirik obrazlarni, humor yoki raqsonna kuyni eshitib tushunishga undaydi.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarning aqliy rivojlanish bosqichlari.

Musiqa bolalarning ichki dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Ta'lim va tarbiya masalalari jamoa bo`lib kuylashda, raqs va o`yinlarda namoyon bo`ladi, chunki bolalar bu jarayonlarda jamoa deb his qiladilar. Kuylash faoliyati birgalikni, birdamlikni talab etadi. Jamoa bo`lib kuylash jarayonida bola o`zini yolg'iz his qilmaydi va asta-sekinlik bilan uning individual rivojiga ham ta'sir qiladi. Musiqa mashg'uloti bolaning umumiyligi madaniy tarbiyasiga ijobjiy ta'sir ko`rsatadi. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida turli faoliyatlarni qo'llash (qo'shiq kuylash, tinglash, musiqa cholg'u

asboblarida ijro etish, musiqiy ritmik harakatlar) bolalarda diqqatni jamlash, tez reaksiya va irodasini kuchaytiradi: qo'shiq kuylash jarayonida birga boshlab birga tugatish; raqs va o'yin jarayonida musiqani tempini sezish talab etiladi.

Shunday qilib, musiqiy faoliyatlar mактабгача yoshdagи bolalarning aqliy faoliyatini rivojlantiradi.

II. Musiqani idrok etish. Bu bolaning axloqiy va aqliy rivojining uyg'unligi bilan olib boriladi, ya'ni diqqatini jamlash, musiqaga nisbatan kuzatuvchinlik, uni taqqoslash va farqlay olish talab etiladi. Bola musiqiy asarni tinglagandan so'ng bola musiqa haqida ilk fikrlarini bildiradi: asarning umumiy xarakterini, qo'shiqdagi badiiy matnni. musiqa ifoda vositalariga e'tiborini qaratadi. Bu e'tiborni shakllantirish uchun albatta musiqa rahbari ko'magi kerak.

musiqiy asarning lad. o'lchov. sur'at. registrini aytib berishlari emas. balki musiqaning yuqoridagi ifoda vositalari orqali ularda shaxsga xos bo`lgan xususiyatlarni: ijodiy qobiliyat. yerkin yo`naltirilgan diqqat. musiqiy xotira. tasavvur. faollikni. tashabbuskorlikni shakllantirishdir. Bolalar hissiyotining o`ziga xos xususiyatlaridan biri uning muayyan sharoit bilan bog`liqligidir. ya`ni bolalarda sodir bo`ladigan hissiy kechinmalar aniq bir sharoitdagina vujudga keladi. Shunga ko`ra ularni qiziqtiradigan. diqqatlarini jalb yetadigan sharoitni yaratish ularda estetik hissiyotning. musiqiy madaniyatni o`stirishning yeng muhim shartidir. Bolalar biror bir musiqiy asarni tinglar yekanlar. musiqaning rang-barang ovozlari. ifoda vositalarini (temp. ritm. kuy. o'lchov. registr. dinamika va hokazolar). xarakter va kayfiyatini farqlashni. yeshitilgan musiqiy asarlarning qaysi janrga mansubligini. mumtoz. yestrada yoki boshqa musiqalarni bir-biridan farqlay olishni hissiy-emotsional jihatdan idrok yeta boradilar. boshqacha qilib aytganda. ularning musiqiy didlari shakllana boradi. Musiqiy did. musiqiy dunyoqarashning shakllanishida mashg`ulotlardan tashqari va ta'lim muassasasidan tashqari ishlarning qay darajada yo`lga qo`yilganligi. bolalarning yashash sharoitlari. oiladagi muhit va oilaning musiqaga nisbatan munosabati. ota- onalarning va boshqa oila a'zolarining musiqaga qanday munosabatdaliliklari ham g'oyatda muhimdir.

Musiqiy ohangdorlik inson nutqi ohangiga o`xshab ketadi. Odam o`zining his-tuyg'u holatini boshqalarga nutqi ohangi orqali bildiradi. nutq ohangi ovozning balandligi. pastligi. tebranishi. vazni orqali namoyon bo`ladi. Aytish mumkinki. inson nutqi ohangingin ulkan ifoda imkoniyatlari musiqiy ohangga tabiiy shart-sharoit yaratadi. unda ohang butunlay yangi badiiy sifat oladi. Inson nutqi ohangi musiqa badiiy tilining asosi bo`lib. bastakorning voqelikka munosabatini musiqada aks yettirishda vosita bo`lib xizmat qiladi. Ko`p asrlik tajriba nutq ohangi imkoniyatlari insonning musiqiy sezgirligi va idrokligini. musiqani idrok yetish qobiliyatini vujudga keltirdi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki. bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishiga intiladi va binobarin uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan

shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu yesa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlashishga yordam beradi. Bolaning qobiliyatlarini musiqiy faoliyat jarayonida rivojlanadi. Ushbu rivojlanishni bolalarning yosh psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri tashkil yetish va yo'naltirish musiqa tarbiyachilarining vazifasidir. Masalan. bolani ilk bolalik davridan tovushlar balandligini ajratishga o'rgatilmasa. u yetti yoshga yetganida o'zidan kichik bolalar osongina bajara oladigan vazifalarni bajara olmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy rivojlanishning muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1.Ularning yeshitish sezgisi. musiqiy yeshitish qobiliyatini rivojlanib boradi;

2. Har xil xarakterdagи musiqa ga yemotsional ta'sirchanlikning sifati va darajasi ortadi;

3.Qo'shiq kuylash musiqiy-ritmik ijrochilikda qo'llaniladigan sodda ko'nikma va malakalar shakllanadi.

Bolalar yosh xususiyatlari. Maktabgacha ta'lrim muassasalari tarbiyalanuvchilarining yoshiga ko'ra hosil qiladigan qobiliyat va imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz.

Bir yoshli bolalar - psixolog A. Lyublinskayaning to'plagan ma'lumotlariga ko'ra. go'dakning 10-12-kunlarida yeshitish organi ishga tushar yekan. Ikki oylik go'dak yesa. musiqa tovushlarini yeshitganda. qimirlamay. jim bo'lib qolar yekan. 4-5-oylarida bola tovush kelayotgan tomonga qaray boshlaydi. Ilk bolalik davrlaridayoq go'daklarda musiqa tovushlariga nisbatan shaxsiy munosabat shakllana boradi. Birinchi yilining oxirlarida bolaning umumi yeshitish hissi shakllanadi. Bolakay kattalardan har xil musiqani tinglab uni o'ziga xos intonatsion (o'xhash ovozlar chiqaraib) xirgoya qiladi. Musiqa ga nisbatan yemotsional munosabat bildirish. yeshitish hissiyotlarini rivojlantirish ilk bolalikdan musiqiy tarbiyani amalga oshirishga xizmat qiladi.

Uch va to'rt yoshli bolalar - yeshitish hissida individual ajralib turish holllari ko'rindi. Masalan. murakkab bo'limgan kuyni aniq ijro yetishlari mumkin. So'zlarni ifodalashda avval alohida so'zlarni qo'llagan bo'lsalar. yendi ularni bir-biri bilan bog'lagan

holda ishlata oladilar. Tafakkurlarida ham sezilarli o`zgarishlar ro`y beradi. Ko`rgazmali-harakatli tafakkurlari ko`rgazmali-obrazli tafakkurga aylanadi. Bu yoshdagi bolalar o`zlar mustaqil harakatlar bajara oladilar hamda mustaqil ravishda raqsga tushib o`ynaydilar.

Besh yoshli bolalar - bolalarning faol tarzda "nimaga?". "Qaerdan?" kabi savollarni paydo bo`lishi davridir. Bola voqeа va hodisalar o`rtasidagi aloqalarni anglay boshlaydi va ularni oddiy usulda umumlashtira boshlaydi. Bolalar kuzatuvchan. ayniqsa. musiqaning quvnoq yoki g'amgin. tovushlari baland yoki pastligi. qanday cholg'u asbobida ijro yetilayotganligini bemalol aniqlay oladilar. Ular qo`sinqni qanday ijro yetish kerakligini. qanday harakatlar bajarish kerakligini yaxshi tushuna boshlaydilar. Bu davrda bolalarning ovozlari jarangdor va yorqin tus oladi. Ovoz intonatsiyalari turg'unlashib boradi. lekin hali kattalarning ko`magiga muxtoj bo`ladi. Bu yoshda yeshitish qobiliyati shakllana boradi. Bu davrda harakatlarning asosiy turlarini - yurish. yugurish. sakrash kabi faoliyatlarni yaxshi o`zlashtira boshlaydilar. Bolalar o`z individual xususiyatlaridan. qibiliyatlaridan kelib chiqib bir faoliyat turini afzal ko`rishlari mumkin.

Olti va yetti yoshli bolalar - bu davrda bolalar mакtabga tayyorgarlik ko`ra boshlaydilar. Musiqa mashg'ulotlarida olingan bilim va taassurotlariga asoslanib bolalar musiqiy asarlarga sharh berishlari. musiqaning ifoda vositalarini aniqlashlari. musiqiy kayfiyat belgilarini ajrata olishlari mumkin.

Bu davrda bolalar rivojlana boradilar va bir necha rivojlanish bosqichlaridan o`tadilar:

- yemotsional rivojlanish - oddiy musiqiy tovushlarga keskin yoki yorqin yemotsional reaksiya berish;

- hissiyot. idrok va yeshitishning rivojlanishi - musiqiy tovushlarni alohida idrok yetishdan. butun. ongli va faol idrok yetish. tovushning xususiyatlari. balandligi. tembri. dinamikasi. ritmini idrok yetish;

- munosabatlar bildirish jarayoni - beqaror qiziqishlardan barqaror qiziqishlarga. yehtiyojlarga o'tish. musiqiy didning ilk qirralarining paydo bo`lishi;

- ijrochilik faoliyati - ko'rib bajariluvchi faoliyatlar. musiqiy ritmik hamda kuylash faoliyatida taqlidchanlik.

Bolaning musiqiy rivoji bu to'g'ri va uzlucksiz ravishda yo'lga qo'yilgan faol

musiqiy jarayondir. Bu rivojlanish quyidagicha kechadi:

Hissiy munosabat. Oddiy musiqiy tasavvurdan murakkab va ko'ptomonlama

rivojlangan musiqiy asarlarni tushuna olish;

Musiqani yeshitish qobiliyati - musiqaning tembri. tovush balandligi. musiqa ifoda vositalari. Ijrochilikning ilk shakllanishi. Bola o'zining bilim va ko'nikmalariga tayanib. unga tanish bo'lgan musiqaga matn yoki raqs yelementlarini ijro yetish.

Musiqa tarbiya boshqa sohalar kabi o'ylab chiqilgan tizim va rejalgarda asoslanib uzlucksiz olib boriladigan jarayondir. ya'ni har bir mashg'ulotda o'ylab chiqilgan ma'lum maqsad sari birin-ketin qadamba-qadam yerishiladi. Bu jarayonda musiqa rahbari sardor vazifasini o'taydi va bolalarni o'zi bilan yergashtirib yuradi. Bu jarayonning yana bir muhim jihatlaridan biri bu - har bir bolaning individual dunyoqarashi va iqtidorini nazarda tutish kerak. Ayrim bolalarga tanbeh berish bilan kifoyalansa. ayrim bolalarga tanbeh salbiy ta'sir ko'rsatib. ular o'z faoliyatlarini ko'rsatmay yanada qisilib qolishadi.

Bolalarning shaxs sifatida tarbiyalash uchun ta'limgiz jismoniy va ongli tarbiya uyg'unlikda olib borilishi kerak. Bu maqsadga yerishish uchun bolalarda to'g'ri tashkillashtirilgan musiqiy mashg'ulotlar tashkil yetiladi. Estetik tarbiya muktabgacha yoshdagagi bolalarda go'zallikni tushunish. uni his qilish. yaxshi va yomonni. badiiy san'at turlarini farqlay olish va ularga ijodkorona yondashishga yo'naltirilgandir. Estetik tarbiyaning yeng ko'zga ko'ringan omillaridan biri bu - musiqadir. Bu maqsaddarga yerishish uchun muktabgacha yoshdagagi bolalarning umumiy musiqiyligini rivojlantirish kerak.

Bolalarning umumiy musiqiyligiga nimalar asos bo'ladi: musiqa bolaning estetik tarbiya omili sifatida unga go'zallikni kabul qilish. tushunish qobiliyatlarini rivojlantirish. Bu masalalarni xal yetish uchun umumiy musiqiylikni rivojlantirish zarurdir.

Musiqiy omillar 3 tamoyilga bo`linadi:

1. Musiqaning xarakteri. kayfiyatini his yetish. musiqaga yemotsional munosabat bildirish (musiqaning ifodaviyligi va tasviriyligi). Bolada musiqani tinglaganda uning xarakteriga mos kayfiyatda bo`lishiga yerishish kerak.

2. Eng yorqin musiqiy obrazli asarni tinglash. taqqoslash va baho berish. Bunda musiqa ifoda vositalari. musiqiy asboblar tembrlari. yeshitish madaniyati talab yetiladi. Masalan. cholg'u asboblarning yuqori va past tembrlari (skripka - alt. konstrabas - violonchel va boshqa asboblar).

3. Musiqaga ijodkorlik munosabatini bildirish. Har bir bola biror musiqiy asarni eshitib o`zicha badiiy tasavvur qiladi va qo'shiqda. o`yinlarda. raqs yelementlari bilan hissiy munosabat bildirishi mumkin.

Bu bolalarda ijrochilikning ilk namoyishlari. ya'ni ilk urug'lari bo`lishi mumkin.

I. Musiqa - bolalarning aqliy faoliyatining faollashtiruvchi omildir.

II. Musiqa - axloqiy olim bo`lib. ma'naviyatning ajralmas qismini

tarkib toptiradi. Musiqadan an'analarga hurmat. Vatanni sevish va boshqa tarbiyaviy axloqiy muammolarni tarbiyalaydi.

III. Musiqa - jismoniy tarbiya omili hamdir.

Endi bu omillarnin birma-bir ko`rib chiqamiz:

I. Musiqa bolaning hissiyotiga va kayfiyatiga ta'sir qiladi. Bu bolalarga asarni tanishtirar yekanmiz ularda musiqani his qilish. u bilan birga kechinmalarni boshdan kechirishga o'rgatamiz. Qardosh va chet yel qo'shiqlari va raqslarini o'rgatar yekanmiz bu xalqlarning an'analari. tarbiyasi bilan ham tanishtiramiz. Musiqaning boy janrlari - qaxramonlik obrazi yoki lirik obrazlarni. humor yoki raqsonna kuyni yeshitib tushunishga undaydi. Musiqa bolalarning ichki dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Ta'lim va tarbiya masalalari jamoa bo`lib kuylashda. raqs va o`yinlarda namoyon bo`ladi. chunki bolalar bu jarayonlarda jamoa deb his qiladilar. Kuylash faoliyati birligini. birkamlikni talab yetadi. Jamoa bo`lib kuylash jarayonida bola o`zini yolg'iz his qilmaydi va asta-sekinlik bilan uning individual rivojiga ham ta'sir qiladi.

Musiqa mashg'uloti bolaning umumiy madaniy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida turli faoliyatlarni qo'llash (qo'shiq kuylash. tinglash. musiqa cholg'u asboblarida ijro yetish. musiqiy ritmik harakatlar) bolalarda diqqatni jamlash. tez reaksiya va irodasini kuchaytiradi: qo'shiq kuylash jarayonida birga boshlab birga tugatish; raqs va o'yin jarayonida musiqani tempini sezish talab yetiladi.

II. Musiqani idrok etish. Bu bolaning axloqiy va aqliy rivojining uyg'unligi bilan olib boriladi. ya'ni diqqatini jamlash. musiqaga nisbatan kuzatuvchinlik. uni taqqoslash va farqlay olish talab yetiladi. Bola musiqiy asarni tinglagandan so'ng bola musiqa haqida ilk fikrlarini bildiradi: asarning umumiy xarakterini. qo'shiqdagi badiiy matnni. musiqa ifoda vositalariga e'tiborini qaratadi. Bu e'tiborni shakllantirish uchun albatta musiqa rahbari ko'magi kerak.

III. Musiqa insonning nafaqat kayfiyatiga. estetik rivojiga balki umumi organizmiga ham ta'sir o'tkazadi. Bola musiqa tinglaganda. kuylaganda. raqs davomida butun organizm faoliyat olib boradi (nafas yo'llari. mushaklar. qon aylanishi. asab tizimi va boshqa a'zolar). Bu masala bo'yicha ko'plab fiziolog olimlarimiz ish olib borishgan va o'z izlanishlarida juda ko'plab ma'lumotlarni berishadi. Shulardan biri fiziolog olim P. N. Anaxin ta'kidlashicha: «Kichkina gudak bola major va minor ladida yozilgan asarlarni tinglab ko'rGANIDA shunga mos kayfiyatini ko'rsatgan yekan». Bu uning ruhiy psixikasiga ta'sir ko'rsatadi. Qo'shiq kuylashda bolalarda ovoz apparati. tovush paylari va hattoki. talafuzi rivojlanadi. Bola to'g'ri o'trib kuylaganida tanasi. ko'krak qavasi va nafas organlari yaxshi ishlaydi va rivojlanadi. Qo'shiq aytish va raqlar maktabgacha yoshdagi bolalar musiqiy rivojlanishida asosiy omillardan biri yekan keyingi bobda shu haqida fikr yuritamiz.

Musiqa tinglash hamda idrok etishda bolalar namoyon qilgan ko'nikma. Malaka va bilimlar

Musiqa bolalarning his - tuyg'ulariga bevosita ta'sir qilishi orqali ularning ma'naviy qiyofasini shakllantiradi. Musiqa san'atining ta'sir kuchi boshqa - ta'kid va uqtirishlarga nisbatan kuchliroq bo'ladi.

Bolalarni har xil emotsiyal - obrazli mazmundagi asarlar bilan tanishtirar ekanmiz. biz beixtiyor ularni hissiyotlariga ta'sir qilamiz va ularni kechinmalar olamiga olib kiramiz.

Bolani musiqaviy asarlarni idrok etish to'g'risidagi masalaga to'xtaymiz.

Idrok san'ati o'zidan kiyin psixologik faoliyatni namoyon qiladi. qaysiki. intellektual. bilish. emotsiyal momentlarni birlashtiradi. Musiqa san'ati asarlarini tushunish masalasi o'zidan o'zi kelib chiqishi mumkin emas. Uni o'rgatish kerak. Musiqa asarlarini idrok etish hissiyotidan boshlanadi. Musiqa asarlarini idrok etish emotsiyal jonkuyarlikni vujudga keltiradi. Bolaning bu holatida unga tanish mazmun va quvonch-idrok asosida emotsiyalarning paydo bo'lismidir. Bolalarda asarni tushunib qabul qilish qobiliyatini tarbiyalash zarur.

Musiqani idrok etish ilk bolalardan shakllanadi. To'plangan emotsiyal musiqaviy taassurotlar qo'shiq aytishga. musiqa asboblarini chalishga. badiiy xalq qo'shiqlarini aytishga olib keladi.

Hissiyot. eshitish. idrokning rivojlanishi asosida bolalarda musiqaviy taassurotlar to'plana boshlaydi. 7 yoshli bola musiqanining mazmuniga qarab qayg'uradi va fikr yuritadi. Biz bola oldiga musiqani idrok etishning payida bo'lishi vazifasini qo'yamiz. Keyin esa tashqi ta'sir etish orqali musiqaviy taassurotlarni yig'indisi vazifasini.


Estetik idrok - bu 2 asosiy komponentlar yig'indisidir: emotsiyonallik va tushunarllilik. Lekin bunga yana hayol va harakat momenti - ritm ham qo'shiladi.

Pedagog bolalarda aktiv faoliyatni vujudga keltirish uchun obrazli va she'riy so'z orqali ashula. o'yin. eshitish uchun pesa syujetini yoritadi. bolada paydo bo'ladigan hayolni qo'zg'aydi. obrazlarni chaqiradi. uni syujet asosida fikrlash harakati musiqa asarini programmasiga jalb qiladi.

Shunday yo'nalishdan keyin musiqani idrok etish bolada emotsiyal tushunarli bo'ladi.

So'z orqali natijani ifodalash va asarga baho berish musiqa rahbarining mohir rahbarligi ostida asta - sekin badiiy - musiqaviy didni paydo qiladi.

Shunday qilib musiqa idrokini tarbiyalash quyidagicha boradi:



Musiqiy badiiy didning darajasi

Shunday qilib. badiiy-musiqaviy did quyidagi jarayonda shakllanadi:

1. Musiqa asarini to'laligicha idrok etish.
2. Uning ma'nosini tushunib olish.
3. Agar o'rinni bo'lsa. bajarish.

Amaliyotda u namoyon bo'ladi:

1. Agar bahosida.
2. Badiiy talablarga javob beradigan asarlarni qabul qilishga intilish.

Asar tanlashda idrokda badiiylikni boshdan kechirish va asarlarni ijro etish.

Bola-yoshlarda milliy g'urur va milliy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish insonning o'z-o'zini anglashidan boshlanadi. O'zlikni anglash esa butun borliq. hayot va adabiyotning tub mohiyatini anglashga yo'l ochadi. Bundan

ko`rinadiki. milliy g`urur o`z yurtining tarixini bilish. xalqining madaniy merosini asrab-avaylab. kelajak avlodlarga yetkazish orqali milliy qadriyatlarni tiklash. shu yo`l bilan millat va vatan taraqqiyotiga xizmat qilishni anglatadi. Bizning eng katta yutug`imiz o`z boyligimiz. o`zligimizga ega bo`lganimizdir. Binobarin. yoshlarga ushbu boyliklarning qadriga yetish zarurligini o`rgatishimiz. ularda minnatdorchilik. g`urur. ishonch tuyg`ularini tarbiyalashimiz kerak bo`ladi.

Estetik ehtiyojlar va munosabatlar esa. eng avvalo. shaxsning estetik qiziqishlari. didi. estetik hissiyotlarida ifodalanadi. Shu bois estetika bilan bog`liq bo`lgan ba`zi tushunchalar haqida to`xtalib o`tishni joiz. deb topdik.

Estetik ong – ijtimoiy voqelik. tabiat. san`at. bilan bevosita muloqot jarayonida – nazariyalar. qarashlar. badiiy ta`lim va tarbiya natijasida shakllanadi. Estetik ongning asosini estetik idrok tashkil qiladi. Estetik idrok – atrof voqelikdagi buyumlar. hodisalarining estetik mohiyatini butun tarkibiy qismlari bilan birgalikda aks ettirishdir. Ya`ni idrok etilgan narsalarni shaxsda mavjud bo`lgan hissiy va aqliy narsalarga qiyoslash jarayonidir. Estetik idrok go`zallik bilan uchrashganda yuzaga keladi va aniq maqsadga qaratilganlik bilan tavsiflanadi. Estetik mulohaza – shaxsning aniq bir estetik qoidasiga munosabatini bildiruvchi aqliy harakatida ifodalanadi. Shaxsning estetik mulohazasi chuqurligi. takomillashganligi. murakkabligi. yuqori yoki pastligi bilan ajralib turadi. Estetik mulohaza darajasi shaxsning hulqatvori va bilim saviyasi. estetik tajribasiga bog`liqidir.

Estetik ehtiyojlar estetik axborotga qiziqishni kuchaytiradi. Estetik qiziqish shaxsning estetik faoliyatga intilishi. o`zi yoqtirgan san`at asarlarini yig`ib to`plab borishi. takror-takror o`qib idrok etishi. o`sha asarlar haqida fikr bildirishga intilishi. boshqalarning shu masalaga doir fikrini bilishga qiziqishi. muayyan san`atkor. janr. yo`nalish kabilarni afzal ko`rishida namoyon bo`luvchi tanlash xususiyatining mavjudligi bilan ifodalanadi.

Estetik did shaxsda uning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarining qo`shilishi natijasida hosil bo`ladigan murakkab

hodisadir⁸. Estetik did estetik axborotlar oqimi. estetik va axloqiy me'yorlar yig'indisi orqali shakllanadi va shaxsning buyum. hodisalarga estetik baho berishida yaqqol namoyon bo'ladi. Estetik tuyg'u - shaxsning buyum yoki hodisaga estetik baho berish munosabatini boshdan kechirishdir. Estetik tuyg'u bolaning mazkur buyumning shakli. rangi va mazmunini mushohada qilishga yordam beradi.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya) bolalarni voqelikdagi. san'at va tabiatdagi kishilarining ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi. shuningdek. turmushidagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish. ularning badiiy didini o'stirish. go'zalikka muhabbat uyg'otish va hayotga go'zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir. Nozik didli bo'lish. go'zallikni fahmlay va qadrlay olish. badiiy madaniyatni tushunish. xullas o'z hayotini go'zallik qonunlari asosida ko'ra olish komil insonning eng zaruriy fazilatidir. Insonda go'zallikni tushunish birdaniga vujudga kelmaydi. balki u jamiyat va odamlar. atrof-muhit ta'sirida shakllanib boradi. Shunga ko'ra. insonning badiiy rivojlanish qonunlari ijtimoiy rivojlanish qonunlari bilan bog'langan. Badiiy tarbiya asosan ijtimoiy-estetik ideallar orqali namoyon bo'ladi. Nafosat tarbiyasi. eng avvalo. har bir kishida badiiy hissiyot tuyg'ularini badiiy tarbiyalashdir⁹. Bunday yuksak nafosatlilik aql-zakovatdan xoli bo'ladi. degan ma'noni tushunmaslik kerak. Shaxsning barkamol inson bo'lib shakllanishida bu ikki tomon bir-birini to'ldiradi. Chinakam san'at asarida hissiyot chuqur g'oyaviy. aqliy mazmun bilan idrok qilish birikib ketadi. Nafosat tarbiyasi aql bilan hissiyotni tarbiyalash. yanada aniqroq qilib aytganda. hissiyot vositasi bilan aqlni tarbiyalashdir. Bu ikki tomon bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Ilmiy dunyoqarashga asoslangan nafosat. did. tuyg'ular va ko'nikmalarning o'sib borishi jarayonida insonning o'zi ham ma'naviy boyib. olijanob bo'lib boradi. uning hayoti yanada sermazmun bo'ladi. Har bin insonning o'zi yashayotgan zamonga nisbatan mehr-muhabbati ortib boradi. Bularning hammasi har bir insonda go'zallikni his etish. bilish kabi qobiliyatni

⁸ Karimova D.A. Musiqiy pedagogik mahorat asosları. – T.: «Iqtisod-molla», 2008. -80-98-b.

⁹ Cathrine Sadolin. Complete vocal technique. 2012. 274 page. 58-69. www.completevocalinstitute.com

shakllantiradi va uni yanada rivojlantiradi. Chinakam nozik did. haqiqiy go`zallikdan lazzatlana olish. mehnat. turmush. yurish-turish. san`atda nafosatni idrok etish va yaratishga ehtiyoj sezish demakdir.

Didsizlik kishining voqelikka bo`lgan ijobiy munosabatini buzib yuboradi. Natijada u nafosatga loqayd qaray boshlaydi. Nafosat tarbiyasi bugungi kunda shuning uchun ham muhimki. did. idrok-farosatlilik mehnat. ishlab chiqarish. kundalik amaliy faoliyatda har bir inson uchun hayotiy ehtiyojga aylanib qolgan. Ba`zan hayotda past didli. ma`naviy qashshoq kishilarni ham uchratib qolamiz. Bunday kishilar aqlan. axloqan va ruhan zaifligini yashirish uchun soxta xatti-harakatlar qiladilar. o`zlariga yarashmaydigan ishlar qiladilar. didsiz kiyinadilar. maza-matrasiz shovqin-surondan iborat musiqa va ashulalarni tinglaydilar. Bundaylarni kuzatarkansiz. ularning mehnat gashtini surmagan. hayot tashvishlariga beparvo loqayd kimsalar ekanligiga guvoh bo`lasiz.

Donolardan biri go`zallik axloq-odobning tug'ishgan singlisidir. degan edi. Darhaqiqat. bu juda to`g'ri ta'rif. Odatda odob va nafosat tarbiyasi chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Chunki nafosat tarbiyasining natijasi axloq-odob. chiroyli hatti-harakat. go`zal munosabat va hayot. kelajak. insonlar. tabiatga muhabbatda ko`rinadi.

Xalqimiz «Kamtarlik ham husn». deydi. Mana shu birligina iborada chuqur ma`no bor. Nafosat tarbiyasi tufayli yoshlarda kamtarlik xislati tarkib topadi. Bu xislat kishilarning eng go`zal. eng chiroyli sifatidir. «Kishining chiroyi yuzida». deydi xalqimiz. Bu go`zal tabassum kishilarga misoli quyosh bo`lib qalblarga iliq nur taratadi. Kishi biror asarni o`qib. chehrasi yorishib ketadi. Yoki yoqimli biror kuy. ashula tinglasa. boshi mayin tebranadi. biror go`zal rasm. manzarali tasvirga boqib. undan ko`z uzolmay qoladi. qalbi quvonchlarga to`ladi.

Yuksak badiiy didni tarbiyalashda san`atning hamma turlari muhim va ularning har biri o`z xususiyati va imkoniyatiga ega. Mamlakatimiz maktablarida estetik tarbiyani amalga oshirish bolalarda yuksak estetik badiiy didni shakllantirish uchun zaruriy zaminni hozirlab berish va yoshlarga san`at asarlarining estetik

mohiyatini singdirishning muhim tarmog'idi. Shu munosabat bilan maktabda musiqa tarbiyasini amalgalashirishda bolalarning musiqaviy ma'lumotlariga alohida e'tibor berish. ularni dastur talablariga muvofiq musiqaviy bilim bilan qurollantirish. musiqa haqida bilim. ma'lumotlarni puxta o'zlashtirishlariga erishish eng muhim vazifalardandir.

Badiiy did tarbiyasining asosi ham maktabda dars jarayoni. o'quv mashg'ulotlari vaqtida vujudga keladi. Xo'sh. hozirgi maktablarimizda bolalarning badiiy didlari biz xohlagandek shakllanayotganmikan? Savol tariqasida shularni aniqlash mumkinki. ko'pchilik bolalarimizda g'arb musiqasiga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Ularni maktab dasturidagi qo'shiqlar borgan sari qiziqtirmay qo'yemoqda. Hatto ulardan «qanday kuy va qo'shiqlarni yoqtirasizlar?» deb so'ralsa. albatta g'arb davlatlaridagi hozirgi mashhur qo'shiqlarni misol tariqasida keltiradilar. Ularning bu darajada g'arb davlatlari madaniyatiga ixlos qo'yishlari natijasida badiiy didlari ham shunga moslashib borishi ommalashmoqda.

Buni ba'zi bolalarning tashqi ko'rinishlari ham isbotlab turibdi. Biz esa maktablarimiz qat'iy suratda. faqat ta'lim maktabi emas. balki estetik maktab bo'lishiga intilamiz. Bolalarda estetik didni tarbiyalashda maktabning butun hayoti barobar qatnashsada. musiqa darsining alohida ahamiyati bor. Ya'ni musiqa darsi badiiy didni tarbiyalashda ta'sirchan vositadir. Bu borada eng mas'uliyatli vazifa musiqa o'qituvchilariga topshiriladi. Badiiy did tarbiyasini maktabgacha ta'lim yoshida tashkil qilinadigan musiqa mashg'ulotlaridan boshlash har bir musiqa o'qituvchisining vazifasidir va bu «temir qoida» doimiy saqlanib qoladi.

Bolalikda aql-farosat. axloqiy ko'nikmalarini tarbiyalash bilan bir qatorda. ularda chiroyli. nafis. go'zal narsalardan zavq ola bilish. go'zallikni dag'allikdan. qo'pollikdan tez ajrata olish qobiliyatini tarbiyalashimiz kerak. Dars jarayonida bolalarni tozalik. tartiblilik. go'zallikni sevishga o'rgatish kerak. Buning uchun. avvalo. Bog'chadagi bolalar xonasini uchun barcha buyumlar did bilan tanlab. joylashtirilgan. toza. saranjom-sarishta bo'lgani ma'qul. Chunki bolalarga ikki narsa ko'proq ta'sir qiladi. Birinchisi bolaning ko'ziga tez-tez tashlanadigan buyumlar. odamlar

o`rtasidagi munosabat bo`lsa. ikkinchisi bolaning o`ziga bevosita tegishli bo`lgan narsalar – kiyim-kechak. idish-tovoqlar. kitoblar. o`yinchoqlar. yozuv stoli va boshqalardir. Bola buyumlarini asrab-avaylab. ozoda. saranjom-sarishta qilib yurishga o`rgansa. u yoshi ulg`aygan sayin go`zallikning murakkab ko`rinishlari. tabiatdagi uyg`unlik. san`atdagi go`zallikni payqab olish uchun tayyorlana boradi. Nafosat tarbiyasining asosi oiladan boshlanadi. go`daklik davridan vaqtida ovqatlanish. uxlash tartibiga rioya etish. uyda ozodalik. saranjom-sarishtalik. oila a`zolari o`rtasidagi o`zaro hurmat. qadr-qimmat bola qalbida o`chmas iz qoldiradi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN INTERFAOL METOD:



“KWHL”-texnologiyasi


Know-nimalarni bilaman?	Want-nimalarni bilishni xoxlayman?	How-qanday qilib bilib olaman?	Learn-nimalarni o`rganib oldim?

Nazorat uchun savollar:



1. Estetik tarbiyaning turlarini sanab o'ting ?
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berishning musiqa tarbiyasiga qanday aloqasi bor?
3. Musiqiy tarbiya did va nozikli kabi tushunchalarga izoh bering ?

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:



O'zbekistonda makatabgacha ta'limning bugungi holati haqida videorolik tayyorlang.

5-MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MUSIQAVIY FAOLIYATI MAZMUNI

Reja:

1. *Musiqa tinglashga o'rgatish.*
2. *Vokal kuyi.*
3. *Cholg'u kuyi.*
4. *Musiqa savodi.*
5. *Bolalar ijodi.*

Tayanch so'z va iboralar: *musiqa tinglash, vokal kuyi, cholg'u kuyi, musiqa savodi, klassik musiqa, zamonaviy musiqa.*

Musiqani tinglay bilish va undan estetik zavqlana olish ham katta san'at hisoblanadi. Kishida musiqa tinglash madaniyati yoshlidan rivojiana boshlaydi. MTMdA amalga oshiriladigan musiqa tinglash esa uning poydevoridir. Zotan bola musiqa mashg'ulotlarining barcha elementlari jarayonida ham musiqa tinglab. uni idrok etadi. Ammo mashg'ulotning musiqa tinglash qismi oldida o'ziga xos jiddiy vazifalar turadi.

Musiqa tinglashga o'rgatish

Avvalo shuni eslatish lozimki. kishining kuylash imkoniyatidan ko'ra tinglash imkoniyati ancha keng bo'ladi. Masalan: orkestr. xor. yakka cholg'u ijrosidagi asarlarni kuylab emas. balki faqat tinglab. idrok etish mumkin. xolos. Shuning uchun olimlar musiqaviy tarbiya jarayonida musiqa tinglashga alohida e'tibor qaratishadi. Chunki kishi musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida musiqa tinglash. malaka. ko'nikmalar katta rol o'ynaydi. Musiqa tinglashda bolalarning badiiy idroki yaxshi rivojlanib boradi. Mashg'ulotning musiqa tinglash qismi oldida quyidagi vazifalar turadi: Mashg'ulotning musiqa tinglash qismi oldida quyidagi vazifalar turadi:

-bolalarni o'z idrokiga mos xalq klassik va zamonaviy musiqa namunalari bilan tanishtirib borish;

-bolalarning musiqani idrok qilish qobilyatlarini rivojlantirib borish;

Musiqa haqida boshlang'ich ma'lumotlar berishni o'rgatadigan asarlar nomlarini eslashga. ularning mazmuni. xarakteri va ifoda vositalarining farqiga borishga hamda tinglagan asarlariga ma'lum miqdorda badiiy baho bera olishga o'rgatish.

Kichik guruh bolalarning diqqati uncha barqaror bo'limganligi tufayli ular yorqin yangraydigan kichik-kichik musiqa asarlarini idrok etishga qobil bo'ladilar. Ular ayniqsa. kichik qo'shiqlarni yaxshi idrok etadilar. Chunki. so'z va ohang birligi musiqa mazmunini oson idrok etishga yordam beradi. Xususan. tarbiyachi ashula aytganda uning tanish ovozi va ifodalash intonatsiya mimikasi va ishoralari bolalarni maftun etadi. Shu vaqtida bolalarda hosil bo'ladigan zavqlanish. ajablanish. quvonish holatlarini kuzatish mumkin. Ammo bu holatlar tez uyg'onib. tez so'nadi.

— 5 yoshli bolalarda diqqat e'tiborning bir muncha emotsiyal turg'unligi vujudga keladi. Ular raqs tipidagi kuylarni jonli. ba'zan jo'shqin holatda idrok etadilar. yengil. kuychan musiqalarni birmuncha xotirjam idrok etadilar. Bu yoshdagи bolalarda musiqa mazmuni va xarakterini bilishga ayniqsa. unda nima haqida hikoya etilishini bilishga qiziqish paydo bo'ladi. Shuning uchun ularda musiqa xotirasi ancha faol rivojlana borib. tinglagan

— 6 yoshli bolalarda esa erkin. ixtiyoriy tarzdagи diqqat e'tibor shakllanib. musiqani diqqatni yig'ib tinglash. uning ayrim detallarini anglab olish qobilyati rivojlangan bo'ladi. Ularda musiqaga qiziqish ko'proq sevimli asarlarni takror-takror tinglash jarayonini yaxshi rivojlanadi. Ular musiqadagi umumiyl kayfiyatni yaxshi sezib. asarda badiiy obrazning rivojlanib borishini kuzatishni o'rganib boradilar. Yangi asar bilan ilk bor tanishtirishga tarbiyachining qisqa va qiziqarli tushuntiruv so'zi katta rol o'ynaydi. Cholg'u kuylari xarakteri va badiiy mazmuni haqida bolalarga tushuncha berilsa. ular asarni yaxshi idrok etadilar. musiqa haqida o'z taassurotlarini hikoya qilib berish ishtiyoqi paydo bo'ladi. Asarni 2 - 3 mashg'ulot davomida takroran tinglash shart. Chunki. har bir tinglashda bola uchun asarning yangi yangi qirralari namoyon bo'ladi va asarga nisbatan ularning muhabbati oshib boradi. Bog'chaning tayyorlov guruhlarida bola o'z yoshiga muvofiq musiqa asarini to'la idrok

etishga qodir bo'ladi. Bog'chada olingan bilim zahirasida malaka va ko'nikmasi. musiqa turlari va uning xarakteri farqiga borishga yordam beradi

Turli guruhlarda musiqa tinglashning nazariy uslubiy vazifalari: 1. Musiqa tinglash orqali bolalarda his-tuyg'ularini rivojlantirish.

1. Boshlang'ich musiqa tinglash tushunchalarini rivojlantirish.

2. Musiqa tinglash alohida metodlar orqali o'tkaziladi.

Shunday qilib. dasturda ko'zda tutilgan va bolaning musiqa madaniyati rivojlanishida kelajakda asosiy rol o'ynaydigan uch faktor amalga oshadi.

1. Musiqaga qiziqish musiqa asarlarini ishtiyoq bilan tinglash va ularni eslash. olingan taassurotlarni o'ylash.

2. Musiqa tinglashga turg'un diqqat-e'tiborni va tinglash madaniyati boshlang'ich elementlarining shakllanishi.

3. Musiqiy didining shakllanishi. musiqa asarlariga badiiy baho bera olish.

Maktabgacha yoshidagi bolalarga musiqa tinglashi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bolalarga ular uchun tushunarli bo'lган. Ayniqsa. milliy musiqalardan ko'proq eshittirish qobiliyatini. musiqiy obrazni farqlay olishni. asardagi his-tuyg'ularni sezishni rivojlantiradi. MYoB ga musiqa madaniyatining elementar asosini singdirishda bolalarning yoshini alohida nazarda tutish kerak.

Musiqa savodi

Musiqa savodining ahamiyati va vazifalari maktabgacha ta'lrim muassasasida va oilada olib boriladigan barcha tarbiyaviy ishlar. bu oliyjanob fazilatlarni yosh avlodda Maktabgacha yoshidan boshlab shakllantirishga bog'liq. Darhaqiqat. musiqa savodini o'rganish Maktabgacha yoshidan boshlanadi. Ko'pgina bolalar maktabgacha tarbiya davrida MTMga qatnab. u yerdagи musiqa mashg'ulotlarida dastlabki musiqaviy malakalarni hosil qiladilar. Ko'pgina qo'shiqlar va o'yinlarni o'rganib olgan hamda ritm va raqs harakatlari bilan tanishgan bo'ladilar.

Darhaqiqat. musiqa savodini o'rganish Maktabgacha yoshidan boshlanadi. Ko'pgina bolalar maktabgacha tarbiya davrida MTMga qatnab. u yerdagи musiqa mashg'ulotlarida dastlabki musiqaviy

malakalarni hosil qiladilar. Ko'pgina qo'shiqlar va o'yinlarni o'rganib olgan hamda ritm va raqs harakatlari bilan tanishgan bo'ladilar.

Uyda tarbiyalangan bolalar ham muayyan musiqaviy tasavvurga ega bo'ladilar: radio va televideniya orqali eshittiriladigan bir qancha musiqa asarlari ularga tanish bo'ladi. Garchi ana shu bilimlar sistemaga solinmagan bo'lsa-da. tarbiyachi bolalarda musiqadan nazariy tushunchalar hosil qilishda o'sha bilimlarga ma'lum darajada suyanib ish ko'rishi mumkin. Bolalar muassasalarida musiqa ta'limiga asos solinadi. shuning uchun tarbiyachi musiqa o'qitish metodikasini yaxshi bilishi. maktabgacha yoshdagi kichik bolalarning yosh va individual xususi- yatlarini. ularning musiqa va qo'shiqchilik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur. Musiqa ta'limini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin. Birinchisi. tayyorlov bosqichi. Bundan ko'zlanadigan asosiy maqsad.

bolalarning musiqa uquvini o'stirishdir. Shu vaqt mobaynida bolalar musiqa tovushlarining baland-pastligi va cho'zimi kabi o'ziga xos xusussiyatlarni ajrata bilishga o'rganishlari va nota yozuvini o'rganishga tayyorlanishlari kerak. Ikkinci bosqichda nota savodi. ya'ni bevosita musiqa tovushlarining grafik usulda ifodalanishi - nota yozuvini o'rganishga kirishiladi.

Musiqa mashg'ulotlari jarayonida bola hayotiy vogelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga mos musiqa asarlari kichkintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi. ularning ruhiy dunyosini boyitadi. MTM sharoitidagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. MTMda olib boriladigan musiqa tarbiyasining asosiy maqsad va vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin:

MTMda olib boriladigan musiqa tarbiyasining asosiy maqsad va vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin: 1. Bolalarning musiqaga qiziqishini oshirish va uni sevishga o'rgatish.

2. Musiqa asarlari bilan tanishtirish jarayonida bolalarda emotsiunal his-tuyg'ularini hosil etish yo'li bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitib borish.

3. Bolalarni oddiy musiqa tushunchalari bilan tanishtirish. musiqa tinglash. ashula aytish. musiqa bilan harakat qilish. raqsga tushish va bolalarning oddiy musiqa asboblarida kuy chalish ko'nikmalarini shakllantirish va ijodiy qobilyatini o'stirib borish.

4. Bolalar ovozini asrab tarbiyalash. ashula aytishning dastlabki ko'nikmalarini hosil etish. qo'shiqlarni sodda. ravon. erkin. tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish.

5. Musiqa asaralaridan ta'sirlanish. shu asosda bolalarda musiqaviy did va badiiy muhokama yuritish malakalarini rivojlantirish.

6. Turli musiqa mashg'ulotlari jarayonida improvizatsiya qilish musiqadagi badiiy obrazni o'yin va xor ovozlar vositasida ifoda etish. ma'lum musiqaviy mavzuga yangi o'yin o'ylab topish.

7. Musiqaviy tarbiya mashg'ulotlarini MTM hayoti bilan bog'lash. MTMda o'tkaziladigan turli mashg'ulotlarda va marosimlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlardan keng foydalanish. turli ertaliklar. konsertlar uyshtirish vositasida musiqa kundalik hayotimizning ajralmas yo'ldoshi ekanligi haqida bolalarda tushuncha hosil qilish.

Musiqa savodi

Musiqa savodi faoliyatida musiqiy tafakkur. tasavvur va musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalar musiqaning yaratilish tarixi. musiqaning ifoda vositalari - ritm. metr. registr. o'lchov. lad. temp. nota yo'li va yozuvi. tovushlar uzunligi va balandligi. musiqa ijodkorlari. ijrochilari haqida bilimga ega bo'lish bilan birga. ularning musiqiy tafakkurlari shakllana boradi. Bu o'z navbatida bolalarni musiqa olamiga olib kiradi va musiqiy dunyoqarashlirini shakllantiradi.

2. Musiqa tinglash faoliyatida musiqiy idrok. musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyatda bolalar musiqa tinglab. uni bevosita idrok eta boshlaydilar. Bu esa ularning musiqiy tafakkurlarini shakllantiradi. shuningdek. ularda musiqiy dunyoqarash ham shakllanib boradi. Tinglangan musiqiy asar haqida mulohaza yurita boshlaydilar.

3. Musiqa ostida ritmik harakat bajarish faoliyatida musiqiy dunyoqarash. musiqiy did. musiqiy tafakkur. musiqiy idrok. musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Bu faoliyat turida

bolalarda deyarli barcha musiqiy psixologik xususiyatlar shakllanadi. Chunki bu faoliyatda ular o'zları bevosita musiqiy asarga jo'r bo'ladilar.

Avval ular musiqiy asarni tinglab ko'radilar (musiqiy idrok). bu esa musiqaning ritmik ko'rinishini eslab qolishni (musiqiy xotira). qaysi asbobda jo'r bo'lsa yaxshiroq jaranglashini (musiqiy did) tanlashni taqozo etadi. Tarbiyalanuvchi bu faoliyatda mustaqil fikrlashni (musiqiy tafakkur). natijada uning musiqiy dunyoqarashi shakllanib boradi.

4. Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish faoliyatida musiqiy dunyoqarash. musiqiy did. musiqiy tafakkur. musiqiy idrok. musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Ayni vaqtida shuni aytish joizki. musiqaning qanday faoliyat turi bo'lmasin. u shaxsnинг barcha psixologik jihatlari shakllanishiga yordam beradi.

Shuni ta'kidlashimiz kerakki. musiqiy faoliyatlarning har biri barcha sanab o'tilgan psixologik xususiyatlarni shakllanishiga qisman bo'lsa ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Jumladan. musiqiy his - tuyg'ular. musiqiy dunyoqarash. musiqiy idrok. musiqiy tafakkur. musiqiy tasavvur va musiqiy qobiliyatni shakllantiradi. Demak. ular bolalarning umumiyligi musiqiy madaniyati. estetik dunyoqarashining shakllanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Vokal kuyi.

Vokal musiqasi -Qo'shiq aytish uchun mo'ljallangan uchta asosiy tur bo'lib. bular yakka ijrochi. ansambl. duet. trio. xor bo'lib ijro etish uchun bir ovozda yoki ko'p ovozda musiqa asbobi jo'rligidagi yoki jo'rligisiz ijro etiladigan musiqiy asarlarni ifodalaydi. Vokal san'ati- Qo'shiq aytish mahorati.

Vokal musiqasi -Qo'shiq aytish uchun mo'ljallangan uchta asosiy tur bo'lib. bular yakka ijrochi. ansambl. duet. trio. xor bo'lib ijro etish uchun bir ovozda yoki ko'p ovozda musiqa asbobi jo'rligidagi yoki jo'rligisiz ijro etiladigan musiqiy asarlarni ifodalaydi. Vokal san'ati- Qo'shiq aytish mahorati.

Bu nafas olish bilan birga talaffuz. tovush xosil kilishning o'zaro bir-biri bilan bog'lanishi tushuniladi. Nafas olish tez va chuqur bo'lishi hamda shovqinsiz bo'lishi. nafas chiqarish esa

sekin bo'lishi so'zlari anik. tushunarli bulishi kerak. Bu borada tilning. labning holati to'g'ri bo'lishi va pastki jag'ning erkin xarakat qilishi nazorat qilib borilishi lozim.

Vokal va xor malakalari.

1. Vokal malakalari.
2. Tovush xosil kilish.
3. Nafas olish.

4. Diktsiya (talaffuz) suzlarni anik talaffuz kilysh.

5. Xor malakalari (soz. tiniklik)

6. Vokal va xor malakalari (intonatsiya. ansambl).

Yoshiga qarab guruhlar.

Kichik guruhda. Tabiiy ovoz bilan zo'riqmasdan qo'shiq kuylash. So'zlarni tiniq va to'g'ri talaffuz qildirish.

O'rta guruhda. Tabiiy ovoz bilan zo'riqmasdan mayin qo'shik kuylash. Qisqa musiqiy frazalar orasida nafas olish. Qo'shiqnini birga boshlab birga tugatish

Katta guruhda. Tabiiy ovoz bilan zo'riqmasdan mayin qo'shiq kuylash. Qisqa musiqiy frazalar orasida nafas olish. Qo'shiqnini birga boshlab birga tugatish.

Tayyorlov guruhda. Jarangdor tovush bilan mazmundor va mayin qilib qo'shik ijro etish.

Qo'shiq aytishni boshlashdan oldin nafas olish. yelkalarni ko'tarmasdan iafasni oxirigacha sarflashga xarakat qilish. Unli tovushlarni to'g'ri

talaffuz qilish va so'zlarni to'g'ri aytishga xarakat kilish. Unli tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish bilan so'zlarni to'g'ri aytishga xarakat qilish.

So'z oxirida unli tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish. Hamma birgalikda mustaqil ravishda kuylash. qo'shiqnini goh tezlatib. goh sekinlatib kuylashga xarakat kilish.

Vokal-xor malakalari qo'shik aytish jarayonida egallanadi. Qo'shik aytish yullari musiqiy asarlarning murakkablashgani sayin qo'shik aytish malakalari xam murakkablashib boradi. Bu jarayon yuqorida keltirilgan jadvalda o'z aksini topgan. Bu javdalda dasturning umumiy xajmi berilgan bulib. bir muncha guruhlararo murakkablashib boradi. U ayrim notali misollar

qo'shik aytish malakalarini oshirishda ishlataladi. Bolalar yilning oxiriga borib quyidagilarni bilishlari kerak.

Kichik guruh. Pedagogning yordami bilan eng sodda qo'shiklarni musiqiy asboblar yordamida kuylash.

O'rta guruh. Musiqiy asboblar yordamida va asboblarsiz eng oson qo'shiklarni kuylash.

Katta guruh. Tarbiyachining yordami bilan musiqiy asboblarning jo'rligi va jo'rsiz tarzda. mustakil ravishda qo'shik kuylashni bilishi. o'rganilgan qo'shiklarni eslashlari. to'g'ri yoki noto'g'ri ijro etilayotganligini sezishi. tovushlarning pastbalandligini va chuzilmalarini sezishi. to'g'ri talaffuz qilishni o'rganishlari kerak. Maktabga tayyorlov guruhi. Kushikni jurli va jursiz. mazmundor qilib aytishlari. urganilgan kushiklarni eslashlari. jamoa va yakka xolda kushik aytishlari. uzarini eshitib. xatolarini tuzatishlari. kuyning xarakatini aniklab farklashlari. notalarning nomlarini bilishlari. tovushlarning nota chizishning kaeriga joylashishini. pastdagi notalarning kayorga joylashishini bilishlari xamda ayrim tovush uxshatmalari kilishni bilishlari kerak. Pedagog bir yilda bolalarga nimalar urgatganligini. kaysi bolalarning musiqiy kobiliyati rivojlanganliklarini va x. k. aniklab borishi va kilingan pedagogik ishlarni xisobga olib borishi kerak.

Shunday qilib. kushik urgatish jarayonida kuyidagi vazifalar amalgA oshiriladi: -Rang- barang qo'shiqlar bilan tanishtirish.

Bu qo'shiqlar bolalarnii ma'naviy dunyosini boyitadigan. yaxshi xislatlarga undaydigan. estetik zavq bag'ishlaydigan hamda bolalarning musiqiy ilhomini ko'taradigan bo'lish kerak;

Maktabgacha yoshidagi bolalarga mos qo'shiqlar va raqslar estetik tarbiya omili sifatida

Qo'shiq aytgan yetar murodga. to'lar kuchga. quvvatga!

Ulug' ajdodlarimiz o'z asarlarida Barkamol shaxs tarbiyasi va inson aql-zakovatining shakllanishida. musiqa ilmining o'rni muhim yekanligini aytib o'tishgan. Bu sohaning o'ziga xos «sho'ba»lari ichida musiqa madaniyati tarbiyasi san'atining ilmiy va tarbiyaviy ahamiyati yuqori baholangan. Shu bois ham ilm-fan. madaniyat va san'at sohasida jahonshumul e'tirof qozongan allomalar (Abu Nasr Forobi. Abdulqodir Marog'iy. Al Kindiy. Abdurahmon Jomiy. Ibn Sino. Darvesh Ali Changiy. Alisher Navoiy)

musiqaga ham ilm sohasi. ham san'at. ham tarbiya vositasi sifatida alohida yehtirom bilan qarashgan. uning turli muammolariga oid yirik asarlar. risolalar yaratganlar. Bu asarlar musiqiy-nazariy bilimlarning tarixiy negizi sifatida bugungi kunda ham o`z ilmiy. tarbiyaviy nufo`zini yo`qotgan emas. Biroq har qanday sohada bo`lgani kabi. musiqiy ta`limda ham shaxsni shakllantirishning zamonaviy talablari mavjud bo`lib. u har bir ijtimoiy davrning ta`limga buyurtmasi. yehtiyoji sifatida kun tartibiga chiqadi.

Maktabgacha ta`lim muassasalari tarbiyalanuvchisi shaxsini shakllantirishda qo`shiqlar o`rgatish texnologiyasining o`rni muhimligi mazkur bitiruv ishi natijalarida yana bir bor o`z tasdig`ini topdi.

Musiqa mashg`ulotlarida qo`shiq kuylash bolalarga ijobiy ta`sir yetibgina qolmay. ularning musiqiy didi va musiqiy dunyoqarashi shakllanishiga ham samarali ta`sir qiladi. Shu bois maqbul mazmun va metodikada berilgan musiqiy bilimlar majmuasi bolalarda musiqaga barqaror qiziqishni tarbiyalaydi. muhimi ular yaxshi musiqani. janrlarni. xalq va mumtoz musiqasini ajratishga o`rganadilar.

Tadqiqot natijalari bolalarning qiziqish bilan qo`shiq kuylab. musiqa tinglab. kompozitorlar hayoti bilan tanisha boshlaganliklarini ko`rsatdi. Hatto avvaliga musiqa madaniyati mashg`ulotlariga e'tiborsizlik bilan qaragan bolalar ham. ohir-oqibatda musiqa mashg`ulotlariga ko`tarinki ruhda. biror bir yangilikdan xabardor bo`lish niyatida kela boshladilar.

Bolalarda Musiqa mashg`uloti tarkibidagi turli xil faoliyatlarga bo`lgan qiziqish va intilish kuchaydi. Ko`pchilik bolalarda musiqa tinglash. qo`shiq kuylash. ritmik harakatlar bajarish jarayonlariga savodli. ya`ni ongli ravishda yondashish malakalari shakllandı.

Bolalarda musiqiy asarning ifoda vositalari va shaklini tahsil qilish malakasini shakllantirish ularda o`z fikrlarini bemalol bayon qilish ko`nikmalarini shakllantirdi.

Musiqa mashg`ulotida yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llash Bolalarning musiqiy bilimlarga. jumladan musiqa savodiga qiziqishlarini kuchaytirdi. Bolalar yendilikda musiqiy boshqotirmalarni bemalol yechadigan. notalarni yaxshi biladigan.

tovush va uning xususiyatlarini anglaydigan. musiqa ifoda vositalari haqida aniq tushunchalarga yega bo'ldilar.

Tajribalar mashg'ulotlarning samaradorligi ularning to`g'ri uyushtirilishiga bog'liq yekanligini ko`rsatdi. Musiqa «til»i hamma va barchaga tushunarli va yaqin. Shuning uchun u insonlarning ruhiyatini ko`tarish. quvonch va rohat baxsh yetish bilan birga. o'sib kelayotgan yosh avlodni shaxs sifatida shakllantirishda benazir yordamchidir.

Qo'shiq kuylash faoliyati Bolalar tarbiyasida musiqa yetakchi o'rinni yegallaydi. Bu faoliyat turi bolalarga boshqa faoliyat turlariga nisbatan yaqin va tushunarlidir. Bolalar qo'shiq kuylashni sevadilar. Kuylash bolalar ijrochiligi faoliyati ichida yetakchi faoliyat turi bo'lib. u bolalarning musiqiy-estetik tarbiyasida muhim o'rinni yegallaydi. Yaxshi qo'shiq bolani quvontiradi. har tomonlama kamol topdiradi va tarbiyalaydi. Cholg'u kuylaridan farqli o'laroq qo'shiq kuylash kuchli yemotsional ta'sir kuchiga yega. Chunki qo'shiqda matn va musiqa badiiy birligi namoyon bo'ladi. Qo'shiq kuylash bola shaxsi tarbiyasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Qo'shiq inson aqliy kamolotini o'sishiga. dunyoqarashini kengayishiga. atrof-olam haqidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi.

Qo'shiq kuylash jarayonida ular musiqani chuqurroq idrok yetadilar. o'z kechinma va his-tuyg'ularini faolroq ifodalaydilar. Qo'shiqning matni bolalarga musiqa mazmunini tushunishga va kuyni osonroq o'zlashtirishga yordam beradi. Biror bir cholg'uda ijro yetilgan kuya nisbatan ovozda ijro yetilgan kuyni bolalar yaxshiroq idrok yetadilar.

Qo'shiq kuylash jarayonida bolalarda musiqiy qobiliyat rivojlanadi: musiqiy yeshitish qobiliyati. musiqiy xotira. ritm hissi. shuningdek. qo'shiq kuylash musiqiy qobiliyatlardan: metr va ritm hissi. musiqiy yeshituvi. lad hissi rivojlanadi.

Jamoa bo'lib kuylash faoliyati bolalarni musiqiy o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Guruhda jamoa bo'lib kuylash jarayonida bola o'z ovoz ijrosini boshqarishni. ustozlari ijrosini yeshitib. kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo'rnovozlik qilishga intiladi. jamoaviy birlik uyushqoqlik. o'zaro do'stlik hislari tarbiyalanadi.

Qo'shiqlarni o'rganish bolalarda nafaqat musiqiy savodxonlikni. balki musiqiy dunyoqarash. musiqiy did. musiqiy tafakkur va shu kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qilishi amalda o'z isbotini topdi.

Bolalar maktabgacha ta'lif muassasasiga kelgan ilk kunlaridanoq. san'atga. ayniqsa. musiqaga intilish va qiziqishlari yuqori bo'ladi. Shuning uchun musiqa mashg'ulotlarida bolalarning shaxs sifatida shakllanishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu rahbarning mutaxassis. o'z sohasining ustasi sifatida bilimdonligi va ijodiy barkamolligiga bog'liqdir.

Qo'shiq kuylash - bolalarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi. U bolalarda nafaqat ruxiy balki jismonii jihatdan rivojlantiradi. Chunki bola kuylayotganda og'iz. burun. nafas yo'llari. ko'krak qafasi. umuman olganda barcha a'zolari faoliyat olib boradi. Bola kuylash jarayonida tik gavdasini yerkin va to`g'ri o'tirishi talab yetiladi. Maktabgacha yoshdagি bolalarda qo'shiqchiligi ko'nikmalarini tarbiyalash. Kuylash jarayonida nafas yo'llari ham rivojlanadi.

Bolalarga kuylash jarayonida matn va musiqa uyg'unligida bo'lganda matn va kuya e'tibor beriladi. Qo'shiqda matn va musiqiy kuy birikib. tinglovchiga yemotsional ta'sir ko'rsatib turli his-tuyg'ularni uyg'otadi. Bu ta'sirchanlik bola tarbiyasida katta ahamiyatga yega.

Bolaning kichik davridan qo'shiqni ma'nosini tushunmasa ham. uning mazmunini va musiqasiga tushunmasa ham unga hissiy munosabatni bildiradi. Bolaning rivojlangani sari. nutqi va hayot davomida olgan ko'nikmalari qo'shiqni umuman kuyni tushuna olishga yordam buradi.

Qo'shiq kuylash bola ruhiyatiga ta'sir qilish barobarida. uning jismoniy o'sishi va rivojlanishida ham katta ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Jamoa bo'lib kuylash mashg'ulotlarida bolalarning diqqat-e'tibori. ongliligi va faolligi oshadi. musiqiy xotira yaxshi rivojlanadi va o'rgangan qo'shiqlarni ijro yetganda. zavqlanish hissi paydo bo'ladi. Qo'shiqni so'z ma'nosi va musiqa ohangini chuqur idrok yetadilar va asarni mazmuni orqali hayotni o'rganadilar.

Qo'shiq kuylash bolalarning nutqini ham rivojlanishiga zamin yaratadi. Qo'shiq so'zлari cho'zib ijro yetilganligi tufayli bolalar yangi so'zлarni bo'g'inlab. xatosiz o'ргanadilar. Musiqiy rahbar va tarbiyachilar so'zлarning to'g'ri ijro yetilishini tekshirib boradilar.

Qo'shiq kuylash jarayoni bolalarni umumiy kayfiyat bilan birlashtiradi. ular hamkorlikda faoliyat bajarishga o'ргanadilar. Ular shoshib ketayotgan yoki orqada qolib ketayotgan o'rtoqlarini yeshitadilar va ularni bir xil sur'atda kuylashga chaqiradilar.

Qo'shiq kuylash - musiqiy tarbiyaning asosiy vositasidir. U boshqa faoliyatlarga nisbatan bolalar uchun juda yaqindir. Qo'shiq kuylab. ular musiqani yanada faolroq idrok yetadilar. Qo'shiq matni yesa mazmunan qo'shiq kuyini anglashga yordam beradi.

Kuylash faoliyatida bolalarda musiqiy qobiliyatlar yeshitish qanday xotira va ritm hissi rivojlanadi. Kuylash bolarning nutqini rivojlantiradi.

Jamoa bo'lib kuylaganda bolaga kuy qo'shiq matnga nisbatan kuchliroq ta'sir qiladi. K. D. Ushinskiy ta'kidlaganidek: «Qo'shiqda. ayniqla xor jamoasida qalbni tarbiyalovchi uning jumbushga keltiruvchi hissiyorlar mavjud»

Ko'pgina hollarda o'g'il bolaning shaxdam yurib marshni kuylayotganini. qiz bolani yesa qug'irchoqni allalashini kuzatishimiz mumkin.

Bolaning ovozi - tabiiy cholg'udir. chunki bu cholg'u u yoshligidan mavjud. Mana shuning uchun xam uning hayoti davomida hamroh bo'ladi va turli o'yinlarda foydalanadi. Undan tashqari qo'shiq bola hayotining boshqa faoliyatlarida ham qo'llanadi. Masalan. raqs. xorovod. bolalar cholg'ularida ijro yetganda.

Qo'shiq - bu bolaning dunyoqarashini kengaytirib. yorqin obratzli tasavvurga yega bo'lishga yordam beradi. Qo'shiqlarda tabiatga. Vatanga muhabbat. kattalarga. ajdodlarga hurmat o'zaro munosabatlarni yaxshilash va boshqa tarbiyaviy axloqlarni o'stirishga yordam beradi.

Qo'shiq o'rgatish jarayonida bolalardan katta aqliy mexnat talab yetladi. U yonidagi bolani yeshitishni. uning qo'shig'iga o'z munosabatini bildirishni. musiqiy jumlalarni bir-biri bilan solishtirishni. taqqoslashni. fortepiano jo'rligini tinglay olishi.

qo'shiqni garmonik va melodik tizimini yeshita olishni va ijro sifatini baholashni o'rgatadi.

Qo'shiq bola organizmiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan. nutqini o'stiradi. ovoz apparatlarini rivojlantiradi. qo'shiqchilik nafasini shakllantiradi. Bola qo'shiq kuylashda asosan musiqiy hissi. yemotsional ta'siri. musiqiy yeshituvi (slux). ritm hissi rivojlanadi. Qo'shiq kuylashning yana bir asosiy xususiyatlaridan biri bu - jamoa bo'lib ko'ylashdir.

Bola yeshituv qobiliyati (slux) va ovozini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.

Qo'shiq - tovush hosil qilishning murakkab jarayonlaridan biri bo'lib. asosan ovoz va yeshituv organlarining mujassamlashuvi asosini tashkil yetadi. ya'ni yeshituv apparati va qo'shiqchilik ovozining o'zaro bog'liqligidir. Eshituv qobiliyatining takomillashuvi - bolalarning kichik yoshidan rivojlanadi. Ular musiqa raxbari yoki tarbiyachi kuylab berganda qo'shiq. kuy yoki ohangni sofligicha yeshitadilar va shundayligicha kuylaydilar.

Kichik yoshdagagi bolalar 2-3 ta nota oralig'idagi qo'shiqlarni ko'ylay oladilar. Bolalar kattalar kuylarini yeshitib. keyin o'zlar ham shu kuyni kattalardek kuylashga harakat qiladilar. Maktabgacha yoshdagagi bolalarda ovoz apparati mukammal rivojlanmagan (tovush paylari rivojlanmagan. nozik. nafas kuchsiz va boshqalar). Bola rivojlangani sari organizm va qo'shiqchilik organlari ham takomillashadi. Maktabgacha yoshdagagi bola ovozi yetarli darjada yorqinligi bo`lmaydi.

Bolaning tabiiy ovozi re1 - si1. ya'ni undan yuqori va pastki notalarni bola kuylaganda tovush zo'riqishi va siqib kuylashi mumkin. Bu bolalarning tovush paylarining shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Bu muammolarga yo'l quymaslik uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan va puxta o'ylab chiqilgan repertuar tanlanishi kerak. Bunda asosiy e'tibor qo'shiqchilik diapazoniga qaratamiz.

Berilgan jadvalda bolalarning ovozi pastki. yuqori va ishchi diapazoni mavjuddir. Bolalarga qo'shiq o'rgatayotganda va repertuar tanlaganda nimalarga e'tibor berilishi kerak? Har bir qo'shiq ma'lum pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni ko'zga tutib tanlanadi. Unda har bir yangi qo'shiq oldingisidan hosil

yetilgan kuylash malakalarini mustahkamlaydi va ularni rivojlantiradi. Qo'shiq diarazoni bolalar ovoziga mosligi. badiiy g'oyaviy mazmuni. bolalar dunyoqarashi va yoshiga mos bo'lishi kerak.

Qo'shiqlarni quyidagi talablarga ko'ra tanlash tavsiya yetiladi:

1. Qo'shiqni tarbiyaviy ahamiyati. g'oyaviy mazmuni. musiqiy tuzilishi va xarakterining bolalar yoshiga mosligi.

2. Qo'shiq matnining osonligi. badiiy yuksakligi. bolalarning lug'at boyligiga mosligi va ularning nutqini va tafakkurini o'stirish uchun xizmat qilishi.

3. Qo'shiq ohangi. uning xarakteri (xushchaqchaq. quvnoq. marsh. mungli. g'amgin. bayramona. ko'tarinki ruxda). lad va tessitura. ovoz diapazoni bolalar yoshiga mos bo'lishi.

4. Qo'shiqning badiiy xususiyatlari va ifodaviyligi. bolalar idrokiga mosligi. garmonik tuzilishi va ohangdoshligi.

5. Qo'shiq shakli (1. 2 qismli yoki kuplet shaklida tuzilganligi) naqarotning mavjudligi.

Qo'shiqni tanlashdagi bolalarga qisqa. mazmunli. obrazli. qiziqarli hikoya qilib beriladi. Qo'shiq mazmunidagi axloq-odob. tabiat. ona Vatan. mehr-muhabbat haqidagi g'oyalarni bolalar ongiga singdirib. ularda qiziqish uyg'otadi.

Badiiy qo'shiqlar sirasiga D. Omonullaevaning bolalar uchun yozilgan «Diloromning qo'shig'i». «Buvijonim». «Aziz bo'ston — O'zbekiston». «Navzo'zim». «O'zbekiston - Vatanim manim»; N. Norxo'jaevning «O'ynasangchi tipratikan». «Nevaralar qo'shig'i». «Kapalak va kamalak». «Kakligim». «Shaftoliga savolim». «Navo'zim - shux sozim». «Salom bergen bolalar». «Buvijonim yaxshisiz». «Gullar manim kulganim». «Yaxshi bola». «Biz askarmiz»; Sh. Yormatovning «Ay-yay-yay». «Islom bobo»; A. Mansurovning «Muzqaymoq». «Vatanginam»; F. Nazarovning «Inoqo'ynaymiz». «Paxtaoy». «Qish chog'lari» va boshqa ko'plab O'zbekiston kompozitorlarining qo'shiqlari bolalar ijodiyotida so'nmas iz qoldirib ularning badiiy tarbiyasi va didini o'stirishga yordam beradi. Qo'shiqni tarbiyachi ifodalil qilib ijro yetib beradi.

Qo'shiq mazmuniga mos tasviriy san'at qo'shiq mazmuniga va tuzilishiga xos savol- javoblar qilib. qo'shiqni musiqiy jumlalarga bo'lib o'rnatadi. So'ngra qo'shiq mazmunga mos musiqiy-ritmik

harakatlar bilan o'rgata boshlaydi. Matn va ohang talaffuzning aniqligi ma'lum me'yorga tushgandan so'ng. qo'shiqning badiiy ijrosiga yerishildi. Qo'shiqni vaqt-vaqt bilan sayr vaqtida. mashg'ulotdan- mashg'ulotga takrorlab kuylab turish lozim. aks xolda uning matni bolalar xotirasidan ko'tariladi va unga nisbatan qiziqish susayadi. Har bir mashg'ulotda ayniqsa. yangi qo'shiqni o'rganishdn oldin. ilgari o'rgatilgan qo'shiqni takrorlab turish. bolalar ijrosidagi aytim nuqsonlarni tuzatib borishga yordam beradi.

Bolalar toliqmasligi uchun qo'shiq o'rgatish shakllari o'zgartirib turiladi. Masalan: guruhlarga bo'lib o'rgatish; yakkaxon va guruh jo'rligida; musiqiy harakatlar yordamida amalga oshirilib; qo'shiq matniga mos raqs yelementlarini o'ylab ko'rishga va o'zлari uni ijro yetishga undab ko'rish yaxshi samara beradi.

Qo'shiq mukammal o'rganilgandan so'ng. ularning qiziqishiyanada ortadi. Shuningdek. mashg'ulot shakllarini (noan'anaviy mashg'ulotlar) o'zgartirilib turish ham mashg'ulotlarda bolalarning zerikishini oldini olib. qiziqishini kechaytiradi.

Yil davomida bolalar 10-12 ta qo'shiq o'rganishlari ko'zda tutiladi. Bunga yerishish uchun qo'yiladigan vazifalar: bolalarda sof intonatsiya va qo'shiqchilik malakalarini shakllantirish; bolalarga yakka va tarbiyachi bilan qo'shiq kuylash. a'kapella tarzida ijro yetish; musiqiy yeshituv qobiliyatini. kuyning balandligi. ularning uzunligi. kuyning yo'nalishi. o'zini yeshita olishi (kuylayotganida). ijro vaqtida o'zining xatolarini yeshita olishini rivojlantirish; ovoz rivoji. tabiy ijroga yerishish; bolalarda ijodkorlik malakalarini rivojlantirish. ular ijro yetgan qo'shiqlarini xorovodlar va o'yinlarda qo'llash.

Qo'shiqchilik malakalari Bola to'g'ri kuylashi uchun qo'shiqchilik. vokal-xor malakalarini shakllantirish kerak. Qo'shiqchilik malakalari. Bu to'g'ri holatda kuylash. Qo'shiq kuylash jarayonida bola gavdani ko'tarib bukchaymasdan. stul orqasiga suyanibroq o'tirishi kerak. Qo'llari yesa tizzaga qo'yiladi.

Vokal malakalari. Bu ovoz hosil qilish. nafas va diksiya. Nafas qisqa. yengil va shovqinsiz bo'lishi kerak. So'zlar aniq va burro talaffuz qilinadi.

Xor malakalari. Bu ansambl va tuzilish (stroy)ning o`zaro bog`liqligi. «Ansambl» - fransuzcha so`z bo`lib. «uyg'unlashuv» (slitnost) ya`ni. ovozlarning kuch va balanligining birlashuvidir. Bu jarayonda ovoz unison kuylashga va tembrning tekislanishiga yerishishimiz kerak.

Kuylash malakalarini rivojlantirish. Kuylash malakalari qo`sinq yodlash va o`rgatish jarayonida rivojlanadi. Asar murakkablashgani sari malaka rivojlanadi. Bog`chada tarbiyalash jarayonida bilishi kerak: Kichik va o`rta guruh - musiqa rahbari musiqa asbobi yordamida oddiy. murakkab bo`lmagan qo`sinqlarni kuylay olishi kerak. Katta guruh - asbobsiz faqat musiqa rahbarining yordami bilan yoki musiqa rahbarisiz musiqa musiqa asbobi jo`rligida kuylashi. tovushlar balandligi va cho`zimlarini farqlay olishi. qo`sinq kuylash jarayonida to`g`ri. tik. yelkani ko`tarib o`tirishi kerak.

Maktabgacha tayyorlov guruhi - yodlagan qo`sinqini ifodali kuylab berish. oldin yodlagan qo`sinqini yeslab kuylashi. kuylash jarayonida yonidagi bolalarni yeshita olishi va kamchilik - u xatolarini to`g`rilay olishi. tovushlarning yuqoriga va pastga harakatlanishini farqlay olishi. notalar qisqa uzunligini va notalarning nomlarini bilishi kerak.

Qo`sinq kuylashga o`rgatishning metodlari va yo`llari. Musiqa rahbari bolalarga qo`sinqni o`rgatishdan oldin qo`sinqni tanishtirishi. kompozitori haqida. asarning matni. mazmuni haqida gapirib berishi kerak. bir so`z bilan aytganda bolalarda bu qo`sinqni o`rganish uchun qiziqishlarini uyg`otishdir.

Qo`sinq qiyinchiliklari va ularni bartaraf yetish yo`llari:

1. Qo`sinqda sakrama harakatlar ko`p. Bular bolalar kuylashi uchun murakkabdir. Shuning uchun sof kuylashga alohida e'tibor qaratish kerak.

2. Qo`sinqda punktir ritmlaridan ham keng foylanilgan va ularni aniq talaffuz yetish kerak.

3. Ligali notalar. Bunday notalar asosan jumlalar oxirida uchraydi va

buni to`g`ri va sof kuylashga yerishish kerak.

Bola shaxsini shakllantirishda va rivojlantirishda oiladagi muhitni ta'siri juda kattadir. Boladagi yeng muhim individual

xususiyatlar oiladagi mavjud ijtimoiy psixologik muhit ta'sirida shakllanadi. Qo`shiqning ohangiga bo`lgan intilish bola ongida ona allasi orqali rivojlantiriladi. Bunda ota-onas. oila a'zolari o`rtasidagi o`zaro munosabat. san'at. musiqiy madaniyatga bo`lgan munosabatlar muhim o`rin tutadi. Shuning uchun ham Respublikamizda oila tarbiyasiga davlat siyosati darajasida qaralib kelinayotganligi bejiz emas. Ma'lumki. yosh bolalar juda ta'sirchan. qiziquvchan. taqlidchan. tez o`zgaruvchanligi sababli ular uchun atrofidagi barcha ijobiy va sal'biy holatlarga munosabat birday yaqin hisoblanadi.

Har tomonlama barkamol madaniyatli shaxs avvalo. oilada shakllanadi. Yaxshi oilaviy muhitda tarbiyalangan bolaning hayot haqidagi. turli voqeа-hodisalar. urf-odatlar. san'at. madaniyatga oid ta'ssurotlari ko`pincha ijobiy tarzda kechadi. Oiladagi birgalikda televizor ko`rish. konsert tomosha qilish. teatr. konsert tomoshalariga borish. o`z ta'ssurotlarini o`rtoqlashish kabilar bolalar dunyoqarashini o`stirib. hayotiy voqeа-xodisalarini aks yettiruvchi badiiy adabiyot. san'at . musiqani mohiyatini tushinishga. badiiy va g`oyaviy idrok yetishga olib keladi. Bu yesa uning kelajagini belgilashda. san'atning muayyan turi bilan bog'lanib qolishida hal qiluvchi rol o`ynaydi. Fan. adabiyot. san'at sohasida Yevropa klassik musiqasining buyuk namoyondalari Bax. Betxoven. Bize. Motsart. Verdi. Shopen. rus kompazitorlari Glinka. Borodin. Balakirov. Rimskiy-Korsakov. Chaykovskiy. Prokofev. Shostakovich. o`zbek bastakor va kompozitorlari M. Ashrafiy. T. Sodiqov. Y. Rajabiy. T. Jalilov. M. Burhonov. S. Jalil va ko`plab xalq hofizlari va sozandalarning hayotida ular tug'ilib o`sган oilani ta'siri juda katta bo`lgan.

Hozirgi kunda musiqa rahbarlari oldidagi yeng muhim vazifalardan biri musiqiy tarbiya va musiqiy madaniyatni oilaviy hamkorlikda tashkil yetishdir. Bu boradagi faoliyatni maqsadli yo`lga qo'yish. samarali ish shakl va usullaridan foydalanish bolalarni yuqorida ta'kidlanganidek madaniyat va san'atning muayyan sohalariga izchil bog'lanib qolishlari. kelajakda yetuk xonanda. sozanda. bastakor-kompozitor bo`lib yetishishlariga zamin yaratadi. Musiqa rahbarlariga bu borada quyidagi tavsiyalarimizni bildirishni lozim deb topdik:

- musiqa rahbarlari har bir bolaning oilasi bilan yaqindan tanishishi. doimiy aloqani yo`lga qo`yishi;

- bolalarni musiqa san'atining muayyan turlariga qiziqishi. qobiliyatiga qarab. ularni ota-onalarini bu haqda xabardor qilish. mактабда va oilada mustaqil qo`shimcha shug`ullanishlari uchun shart-sharoityaratishi;

- musiqa mashg`ulotlariga. to`garaklar. ijodiy markazlarga qatnashishlarini ota-onasi tomonidan ham nazorat qilib borilishiga e'tibor qaratish;

- bolalar ishtirok yetadigan turli madaniy-ommaviy tadbirlar. ko`rik-tanlovlari. konsertlarga ularni ota-onalarini taklif qilish;

- ota-onalar uchun maxsus ma`ro`za konsertlar. madaniyat. san`at vakillari bilan uchrashuvlar tashkil yetish;

- bolalarga individual topshiriqlar berish. mustaqil shug`ullanishlari va topshiriqlarni bajarilishi yuzasidan ota-onalar fikrlarini so`rab turish.

Bunday hamkorlik bo`yicha tashkil yetiladigan ishlar bolalarni musiqa san`atiga bo`lgan qiziqishlarini. ularning musiqa bo`yicha individual qobiliyat va iqtidorlarini o`stirishga. iste'dod kurtaklarini keng ochilishiga va musiqiy madaniyatni yuksalishiga imkon yaratadi.

Musiqa rahbari ko`pchilik oldida musiqa targ`ibotchisi sifatida chiqib o`z faoliyatini bajarishda rus musiqiy pedagogi D. V. Kabalevskiy aytganidek- ". . o`zining yeng asosiy vazifasini xoh zaldagi konsert paytida. xoh musiqa mashg`uloti bo`lsin. bolalar bilan suhbatlashayotganda. ularni musiqaga qiziqtirish. yemotsional jalb qilish. o`zining musiqaga muxabbatini ularga sindirish zarurligini bir daqiqaga ham unutmaslik kerak".

Musiqa tarbiyasi bolalarga musiqa tinglash. qo`shiqqlarni yodlash musiqa bilan harakatlarni bajarish. musiqa asboblarini chalish. musiqa va musiqachilar haqidagi kitoblarni o`qish. teatr konsert. filarmoniya ga borish singari musiqaviy faoliyatning har xil turlarini o`rganishdan iboratdir. Musiqa tinglanganidan keyingi bolalardagi fikr almashuvlar juda katta tarbiyaviy ahamiyatga yega bo`lib. bu bilan bolalar o`rtasida bir-birlarini anglash ruhi va o`zaro ishonch vujudga keladi.

Musiqa rahbarining bolalar diqqatini qo'shiq mazmuniga jalg qila olishi. bolalarda o'zları ijro yetadigan musiqa asarlarini yemotsional ma'nosini anglashga intilishini vujudga keltirish. ularning olam haqidagi tushunchalarining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bola musiqaga qarab harakat qilar yekan. unda beixtiyor yemotsional moyillik va ritmni his yetish shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi musiqa ta'limi va tarbiyasining vazifasi bolalarni Vatanga sadoqat. do'stlik. tinchliksevarlik. mehnatga muhabbat ruhida kamol toptirish ularning musiqaviy didi bilan estetik saviyasini oshirishdan iboratdir.

Bizning mamlakatimizda bolalarni estetik ruhda tarbiyalash uchun kerakli hamma shart sharoitlar mavjuddir. "Yoshlar markazlari". "Bolalar va o'smirlar ijodiyoti markazi". mo'zey. teatrlar. kutubxona va madaniyat uylari bolalarning sevimli maskaniga aylangan.

Bolaning yosh chog'idanoq nafosatni bilishga va sevishga oilada ota-onasi yordam berish kerak. Yurtboshimiz "Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch" asarida o'zbek xalqida san'atga havas oiladan boshlanadi deb bejizga aytmaganlar. Ota-onalar farzandidagi san'atga bo'lgan mehr-muhabbatni birinchi galda payqaydilar. Bolalar yoshligidanoq san'atga havasmand bo'ladilar. Bolalarda ana shu his tuyg'uni. nafosatni sevish tuyg'ularni rivojlantirish har bir ota- onaning vazifasidir. ba'zi ota-onalar o'z bolalarini estetik ruhda tarbiyalashga noto`g'ri munosabatda bo'lishni ham bilamiz. Ba'zi ota-onalar bolalarni musiqaga. rassomchilikka. san'atning qaysi bir turlariga ya'ni. qiziqqan sohasiga e'tiborsizlik bilan qaraydilar. Sendan yaxshi musiqachi chiqmaydi deb bolalarning qiziqishini so'ndiradilar. Ko`pgina ota-onalarimiz ajoyib san'at turi musiqaning simfonik. klassik janrida ijro yetiladigan asarlarni tushunmaydilar va bolalariga ham tushuntirib bera olmaydilar. Bu borada yesa yoshlarimizni tarbiyalashda maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlari muhim o'rinn tutadi.

Bolalarning bu kabi xususiyatlari har bir rahbardan ijrochilik mahorati bilan bir qatorda katta pedagogik mahoratga yega bo'lishlikni talab qiladi. Shuning bilan bir qatorda musiqa

mashg'ulotlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan keng foydalanishni yo`lga qo`yish lozim.

Rahbar avvalo. bolalarni musiqa olamiga olib kirarkan. bolalarda musiqaga bo`lgan qiziqishlarini oshirishga. musiqiy tilni tushuntirishga. dunyoqarashini shakllantirishga. musiqiy didini o`stirishga. go`zallikni his qilishga. musiqiy o`quvini rivojlantirishga harakat qiladi.

Musiqa ta'luming o`ziga xos yo`naltirilgan ma'lum bir vazifalari ham mavjuddir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa rahbari musiqa mashg'uloti va yertaliklar yordamida qo`yidagi vazifalarni amalga oshirishni maqsad qilib qo`yadi.

1. Bolalarga musiqaga ixlos uyg'otish. musiqiy qobiliyatini (ritm tuyg'usi. musiqaviy diqqati. tasavvur va xotirasini. badiiy didini) o`stirish.

2. Bolalarda milliy merosimizga ye'tabor. ona-Vatanga muhabbat hissini tarbiyalash. jamiyatga foyda keltirishga ishtyoq. farzandlik. Bolalik va jamoatchilik oldidagi burchini anglash. do'stlik. o`rtoqlik. insonparvarlik tuyg'ularini tarkib toptirish didsizlik. xunuklik. g'oyasizlik. danganlik. tubanlik kabi salbiy hislarga nisbatan murosasiz bo`lishni tarbiyalash.

3. Bolalarning badiiy ijodkorlik qobiliyatini o`stirish. ularning hayotga. o`qishga. mehnatga va turli hatti-harakatlarga go`zallik olib kirishi qobiliyatini rivojlantirish. o`z-o`ziga va atrof muhitdagi barcha nasalarga go`zallik kirita olishga o`rgatish.

Musiqa mashg'uloti ma'lumki. xorda kuylash. musiqa savodi. kuylash kabi asosiy musiqa faoliyatlarini o`z ichiga oladi va Bolalarni ular bilan tanishtirishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi.

Mashg'ulotning har bir turida doirachalar. shaqildoqlar. uchburchak kabi turli bolalar musiqa asbobidan chalib. kuy va qo'shiqlarga mos raqs yelementlarini bajarish. musiqa asboblarining chalinishi. qo'l harakatlari bilan imitatsiya qilish. chapak kabi yelementlardan keng foydalanish yanada qiziqarli va jozibali bo`lishini ta'minlaydi.

Musiqa mashg'uloti avvalo bolalarni dunyoqarashini o`zgartirib. madaniyatli. estetik jihatidan barkamol bo`lib o'sishlarida munosib o`rin tutadi. Musiqani idrok yetishga. musiqa nazariyasi. musiqa adabiyoti va tarixini. milliy qadriyatlarimizni

o`rgatadi va san'at durdonalari bilan tanishtiradi. vokal-xor malakalarini rivojlantiradi. musiqiy qobiliyatini o`stiradi. hamda unga bo`lgan yehtiyojlarni qondiradi.

Musiqa mashg`ulotlarida rahbar bolaga dastavval bor musiqani yeshita bilishni o`rgatadi. musiqa mazmunini. go`zalligini tushunishiga. musiqaga bo`lgan qiziqishini va ixlosini o`yg`otishga. musiqiy tushunchalarini. musiqa qirralarini. turlari va shakllarini. janrlarini ochib beradi va madaniy ozuqa beradi. Musiqa ta`limiy jarayonlarni sifatli amalga oshirish uchun. avvalo rahbarning qanday malaka va qobiliyatga yega yekanligiga bog`liqdir. *Rahbar o `z kasbini mutaxassisi bo `lishi. musiqani quvonch. baxsh yetadigan jonli san'at sifatida sevishi. unga yehtirosli munosabatda bo `lish hamda o `zi sevmaydigan narsalarga bolalarda muhabbat o`yg`ota olmasligini. hech qachon unutmasligi lozim.* Rahbar o`z o`rni va qadrini bilish kerak. Mashg`ulotda rahbar obekt. bolalar yesa subekt bo`lishlari lozim. Rahbar barcha ma`naviy kuchlarini safarbar yetish. g`oyatda bardoshli. bolalarni va o`z ishini chinakam sevish kerak.

Kuylash faoliyati bolalarning musiqa o`quv qobiliyatlarini hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Guruhda jamoa bo`lib kuylash jarayonida bola o`z ovoz ijrosini boshqaradi. o`rtoqlarining ijrolarini yeshitib ko`zatadi va ular bilan birga jo`rnavorozlik qilishga intiladi. Zotan. tinglash va kuylash o`quv dasturi ta`lim mazmuning asosini tashkil yetadi. Bolalarda kuylash va tinglash faoliyatlarini o`rganishi bilan birga cholg`uchilik. musiqali harakatlar hamda ijodkorlik faoliyatları ham har tomonlama rivojlantiriladi. bilim va malakalarini o`zlashtirish va musiqiy tavsiflarni ushbu faoliyatlar vositasida yegallah imkoniyatlari yaratiladi.

Musiqa ijodkorligi faoliyati yangi o`quv dasturiga ilk bor kiritilgan. Bu faoliyat bolalarda musiqiy tafakkur. izlanish va ijodkorlik malakalarini o`stira borish uchun katta ahamiyatga yegadir. Bu faoliyat bola ijrosida doira chertib jo`rnavorozlik qilish. kuy ohanggiga mos harakatlarni xususan. raqs harakatlarini topish. she`r parchasiga kuy bastalash kabi ijodkorlik amaliyotlari bilan bajariladi.

Musiqali harakatlar. cholg'uchilik va ijodkorlik faoliyatlarini amalga oshirishda o`yin uslublaridan keng foydalanish tavsiya yetiladi. Ushbu faoliyatlar zamiri ko`proq o`yin xususiyatlari bilan bog'liqdir. Yangi o`quv dasturida tinglash va kuylash uchun asarlar talab darajasida berilgan. Bu rahbarlarga musiqiy asarlarni guruh imkoniyatlari va o`quv yilining muhim sanalariga muvofiq tarzda tanlab o`qitish imkoniyatlarini beradi. Ayni bir paytda rahbar dasturga kiritiladigan ammo. badiiy yuksak. tarbiyaviy jihatdan muhim. Bolalarinng kichik yoshlik xususiyatlariiga. idrok amaliyotiga mos bo`lgan yangi asarlaridan keng foydalanish xuquqiga ham yegadir. Nota savodi. cholg'uchilik. raqs va harakatlar. shuningdek musiqa ijodkorligi faoliyatida tavsif yetilgan asarlar ham shartli ravishda berilgan. Mashg`ulot sharoitiga qarab ularni almashtirish mumkin. Bu yesa mashg`ulotlarni rejalashtirishda va mashg`ulotlarga tayyorgarlik ko`rishda ijodiy yondoshishni toqozo yetadi. Bunda shu narsaga e'tiborni qaratmoq lozimki. garchi dasturda asarlar va mashg`ulotlar mazmuni har bir faoliyat turiga doir alohida ko`rsatilgan bo`lsada. ammo mashg`ulotlarni rejalashtirishda va ularni o`tishida musiqa faoliyatları mashg`ulot mazmunidan kelib chiqish va uning mohiyatini ochib berish lozim bo`ladi. Shunday qilib. mashg`ulotda musiqa faoliyatları mantiqan va mazmunan birlashadi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN INTERFAOL METOD:



“REJA” METODI

Metod o`quvchi (talaba)lar tomonidan muayyan bo`lim yoki boblar bo'yicha o`zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid rejani ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo'llash o`quvchi (talaba)lardan

o'rganilayotgan mavzu mazmunini puxta o'zlashtirish, asosiy g'oyalarni umumlashtirish, ma'lum tizimga solish layoqatiga ega bo'lishni taqozo etadi. Metod o'quvchi (talaba)lar faoliyatini juftlik, guruh va jamoa assosida tashkil etish imkonini beradi.

Uni ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, volontyorlik harakatlarini olib borish, pedagogik amaliyotni tashkil etishda qo'llash yanada samarali hisoblanadi.

Odatda rejani ishlab chiqishda pedagogik vaziyat, o'quvchi (talaba)larning yosh, psixologik xususiyatlari, ma'naviy-ma'rifiy ishning yo'nalishi, mazmuni hamda samaradorlikka erishish imkoniyatiga egalik inobatga olinadi.

Mashg'ulotlarda metodni qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O'qituvchi o'quvchi (talaba)larni metodni qo'llash tartibi bilan tanishtiradi

O'qituvchi o'quvchi (talaba)larni juftlik yoki guruhlarga ajratadi

O'qituvchi har bir juftlik yoki guruhg'a individual topshiriq beradi

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (6-10 daqiqa) belgilanadi


Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, juftlik yoki guruhlar o'z ishlarini namoyish qiladi

Jamoa guruhlarning a'zolariga savollar berib, topshiriqning mohiyatini yanada to'liq ochilishiga ko'maklashadi

Jamoa o'qituvchi rahbarligida juftlik yoki guruhlar ishini baholab, eng yaxshi ishni ajratadi


O'qituvchi jamoa fikriga tayangan holda g'oliblarni aniqlaydi e'lon qiladi va mashg'ulotni yakunlaydi

Nazarorat uchun savollar:



1. Maktabgacha yoshdagি bolalarning musiqa ko'nikmalari aynan qaysi davrda shakllana boshlaydi?
2. Musiqiy tarbiya mazmunini izohlang?
3. Maktabgacha yoshdagи bolalarning musiqiy tarbiya berilish jarayonini mazmunan sharhlang?

Mustaqil ta'lif uchun topshiriqlar:



"Maktabgacha yoshdagи bolalar ta'lif-tarbiyasida musiqiy faoliyatning tutgan
o'rni" mavzusida kichik esse yozing.

6-MAVZU: BOLALARDA MUSIQAGA IXLOS UYG'OTISH VA MUSIQIY QOBILIYATINI O`STIRISH

Reja:

- 1. Musiqaga mehr uyg'otishning daslabki bosqichi.*
- 2. Musiqiy tarbiya va ta'lif integratsiyasi.*
- 3. Musiqiy qobiliyatni rivojlantirishning yoshga xos xususiyatlari.*

Tayanch so'z va iboralar: *ta'lif integratsiyasi, emotsiyal idrok, ritmik malaka, metod, ko'rgazmali metod, amaliy metod, tushuntirish, izohlash, kuylash, o'yin.*

Musiqa bolaga har tomonlama yordam berib. tevarakatrofni obrazli. emotsiyal idrok etish va bola xarakterning shakllanishiga ta'sir ko'rsatish uchun musiqa tarbiyasining maqsadidan kelib chiqib. quyidagi vazifalar qo'yiladi:¹⁰

1. Bolada musiqiy qobiliyatni rivojlantirish.
2. Bolalarni ashula aytish va musiqaviy ritmik malakalarga o'rnatilib. ularda musiqani qabul qilishni his etish va tushinish qobiliyatlarini tarbiyalash.

3. Bolada badiiy ijodiy qobiliatlarni rivojlantirish.

Musiqiylikning rivojlanishi tufayli bolalar musiqa obrazlarini. ularning atrofdagi qo'shimcha. obrazlarni bolalar yorqin his eta boshlaydilar. Bu esa. o'z navbatida ularning tevarak-atrofni bilishda. estetik baholanishni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bolalarni musiqa bilan shug'ullanishning sababi bola musiqa bilan shug'ullanmasdan. qo'shiq aytish va musiqa – ritmik harakatlar qilish ko'nikmalarini yuzaga keltirib. shu soha bilan bog'liq bilimlarni o'zlashtirishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga va tarbiya berishning o'zaro uzviy bog'langan uchta metodi bor:

1. Ko'rgazmali metod.
2. So'zlab berish metodi.
3. Amaliy faoliyat metodi.

¹⁰ N. Yusupova "Musiqa savodi, metodikasi va ritmika" o'quv qo'llanma «Musiqa» nashriyoti Toshkent 2010.

Ko`rgazmali metod

1. Eshitishga asoslangan ko`rgazmali metod. Bunda bolaga o`rgatish bevosita musiqa bilan bo`ladi. Musiqa eshitish maxsus mashg`ulot paytida yoki bola tomonidan qo`sinq va musiqaviy ritmik harakatlarning ijro etilishi.

2. Ko`rishga asoslangan ko`rgazmalilik. Musiqa sadolari bilan qo`sinq olib boriladi. Turli o`yin. raqs. mashq harakatlaridan namunalar ko`rsatiladi.

So`zlab berish metodi

Bu metod bola ongiga mo`ljallangan bo`lib. uning faoliyatini ma`noli va mazmundor qilishga qaratiladi. Bunda pedagogning so`zi musiqa asarining dasturini tushunib olishda bolaga yordam beradi. Uning tasavvurini jonlantiradi.

So`zlab berish metodining quyidagi usullari bor:¹¹

1. Tushuntirish – yangi asarni tinglash. qo`sinq aytish. o`yin va raqlarni qo`sib. mashq qilish davomida foydalilaniladi.

2. Izohlash – izohlar ijro. raqs. mashq harakatlarini. qo`sinq aytishning turli yo`llarini ko`rsatishda qisqa va aniq shaklda beriladi.

3. Ko`rsatma berish – bolalar o`yini raqs va mashqlarni bajarayotgan paytda beriladi.

Masalan: o`ng yelka tomon aylanish kerak. oyoq barmoqlarini pastga cho`zish kabi.

Amaliy faoliyat metodi

Bu faoliyatda bolalarga qo`sinq aytish va musiqali ritmik harakatlarni bajarishda shunday rahbarlik qilish kerakki. ular topshiriqni mumkin qadar ta`sirli va ifodali bajarishga intilsin. Bolalarni o`rgatish jarayonida yosh xususiyatlarini hisobga olib topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirish mumkin.

Bolalar bog`chasida bolalarni musiqaga o`rgatish bosqichlari

1-bosqich:

Musiqa asari bilan dastlabki tanishtirish; Yangi qo`sinqni o`rgatish jarayonida pedagog turli musiqa asboblarda chaldirib. kuyni o`zaro taqqoslaydi va shu yo`l bilan uni xotirasida qoldiradi.

2-bosqich:

¹¹ B. Boltayev, J. A. Xodjayev "Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida musiqa tarbiyasi"(darslik) Samarqand 2021
33-39-betlar

Qo'shiq va musiqa ritmik harakatlarini ijro eta olish ko'nikmalarini bo'lishni shakllantirish.

3-bosqich:

Turli yosh toifasida bolalarda ko'nikmalar hosil qilish va mustahkamlash uchun quyidagi tashkiliy ishlar bajarilishi lozim:

Bunda topshiriqni avtomatik ravishda bajara oladigan qo'shiq. o'yin va raqsni mustaqil ijro etadigan darajada musiqa ta'limini berish. turli metodik usullarning barchasidan foydalanishni taqozo etadi.

Musiqa tinglash: Bolalarda kichik musiqiy asarni tinglash ko'nikmasini pado qilish. Marsh. qo'shiq va raqs janrlari haqida ilk tasavvur paydo qilish va ularni farqlash. Musiqani mazmunan tushunishga o'rgatish:

Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish: To'p bo'lib yengil yurish va yugurishdan sekin-asta har tarafga. to`g'riga. erkin-sochma. doira bo`ylab yengil yurish va yugurishga o'rgatish. Bolalarni 3-4 sodda va oddiy harakatlardan iborat raqslarni to'p bo'lib raqs tushishdan juftlikda. sochma tarzda. shundan so`ng doiradagi raqslar ijro etishga o'rgatish. Raqs harakatlaridan «Koptokni yuqoriga ot». «arqonni tort». «tokcha». «ko'zguga qara». «xo'rozcha». «maysani sila» bilan tanishtirish va ularni musiqaga mos bajarish.

Kuylash: Cholg'u asbobi va kattalarga jo'r bo'lib kuylash. Tabiiy ovozda zo`riqmasdan kuylash malakalarini shakllantirish. Kuylash vaqtida to`g'ri nafas olishga. avval «gulni hidlab». so`ng kuylay boshlashga. o'tirgan yoki turgan holatda to`g'ri kuylashga o'rgatish. Qo'shiq mazmunini tushunib kuylash bilan bir vaqtda harakatlar bajarishga o'rgatish.

O'yin: Musiqiy faoliyatlarda olingen bilimlarni o'yinlarda namoyon bo'lishiga erishish. Doira jo`rligida «Chumchuqlar va mushuk». «Ayiqchalar raqsi». xalq o'yinlaridan «Chori-chambar». «Chapak chalish». «Qaldirg'och» kabilarni o'ynash. Bolalarga tushunarli. qiziqarli bo'lган voqyeaband o'yinlarni tashkil qilish. O'yinda musiqaga mos harakatlanish. nutq. tasavvur va tafakkurni rivojlantirish. bolalar cholg'ulari. o'yinchoq va qo`g'irchoqlardan foydalanish.

Bolalarning mashg'ulotlardan olgan bilimlarini rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida «Kuyini top». «Do'stingni ovozidan tanib ol». «Xaltachada nima bor». «Qaysi cholg'u yashiringan». «Qush va qushchalar». «O'rmonda» kabi musiqaviy-didaktik o'yinlarni mashg'ulot vaqtida va mustaqil faoliyatlari davomida gurux xonalaridagi musiqa burchaklarida tashkil etish.

4 yoshli bolaning egallah lozim bo'lgan bilim ko'nikma va malakalar

-Turli hil mazmun va kayfiyatdagi musiqani tinglash. eslab qolish;

-Tinglangan kuylarni tanib olish va ularning bastakori nomini bilish.

-Kuy. qo'shiq va raqs haqida tushunchaga ega bo'lish.

-Karnay. surnay. nay. nog'ora. doira kabi xalq cholg'u asboblarini tanish va ovozidan farqlash.

-Qo'ng'iroqcha. shiqildoqlar. doiracha. buben. metallofon. sunaycha. bolg'acha. uchburchak kabi bolalar cholg'ularida chalish usullarini bilish;

-Birgalikda kuylay olish;

-Qo'shiq kuylash bilan bir vaqtda harakatlar bajara olish.

-Harakatli o'yinlarda faol ishtirop etish.

-Turli predmetlar bilan harakatlar bajarishni uddalash

O'rta yoshdagi asosiy ish reja - o'rta yosh (4-5 yosh)

Musiqa tinglash: Bolalarning musiqa tinglashga bo'lgan ishtiyoqlarini qo'llab quvatlash va rivojlantirish. Tinglangan asarninig mazmuni va harakterini ajrata olish. bu haqida suhbat qurish va o'z ta'surotlari bilan o'rtoqlashishga o'rgatish. Kuy tovush va ohanglardan tuzilishi haqida tasavurga ega bo'lish. Bolalarni musiqiy asarning 2 va 3 qismli shakli bilan tanishtirish. qismlar o'zgarishini farqlashga o'rgatish. fortepiano. g'ijjak. chang. qonun kabi cholg'ular bilan tanishtirish. ular ijrosidagi kuylardan bahramand qilish.

Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish: Musiqa asarlarining qismlar o'zgarishiga mos harakatlarni o'zgartirish. marsh. qo'shiq. raqs kuylariga mos harakatlarni mustaqil bajarish. boshlovchining ketidan musiqaga mos yurish. yugurish va sakrash. Raqs haraktlarini mustaqil ravishda aniq bajarish. qo'l harakatlarini

erkin va mayin bajarishga o`rgatish. Gurux bo`lib. kichik guruxlarga bo`linib. yakka holda harakatlanishga o`rgatish. xonaning bir qismidan ikkinchi qismiga (markazdan burchakka. o`ngdan chapga va h. k.) o`tishda o`z harakatlarini boshqara olish. raqs harakatlarining nomlarini bilish va aniq bajarish.

4-5 harakatni ketma-ket. o`zaro bir biriga bog`lab hamda musiqaga moslab ijro eta olish. Raqlarda kayfiyatlarni bildiruvchi harakatlardan «yo`q». «arazlash». «yarashish» va h. k. ifoda etish. yuz. ko`z imoishorasining berilgan kayfiyatga mos bo`lishiga o`rgatish.

Qo`sinq aytish: Qo`sinqning so`zlarini aniq va dona-dona talaffuz etish. ijrochilik ko`nikma va malakalarini tarkib toptirish. gurux bilan birgalikda kuylash. ansambl bo`lib kuylash va yakka kuylash ko`nikmalarini hosil qilish. Kuylash vaqtida yelka. bosh va oyoqlarni to`g`ri tutish va to`g`ri nafas olishga o`rgatish. Bolalarning ovozlariga shikast yetkazmay. sekin-asta rivojlantirish. Qo`sinq repertuarini bolalarning yoshiga mos turli mavzudagi qo`sinqlar bilan boyitib. ularning nutq va tafakur. tevarak atrof. bayram va sayllar. urf-odatlar haqidagi bilimlarini boyitib borish.

Bolalar cholg`ularida chalishga o`rgatish: Metallofon. ksilosfon. doiracha. uchburchak. yog`och qoshiqlar. likobchalar va turli yasama o`yinchoq-cholg`ularda chalishga hamda ularni ovozidan farqlashga o`rgatish. Nomusiqiy va musiqiy tovushlar haqida tushuncha berish va ularni farqlashga o`rgatish;

O`yin: Bolalarni chaqqonlik. ziyraklikka chorlash bilan bir vaqtda musiqani diqqat bilan tinglashga o`rgatuvchi «Ro`molchani uzat». «Tulki va tovuqlar». «Quyonlar va ayiq» o`yinlarini o`ynatish. Davra qo`sinqlarida mustaqil harakatlanishga o`rgatish. Musiqiy-ta`limiy o`yinlardan «Qo`shig`imni davom ettir». «Ismingni kuylab ber». «Qaysi cholg`u yashiringan». «Kuyini top» va h. k. o`tkazish.

5 yoshli bola bilishi lozim bo`lgan bilim ko`nikma va malakalar:

- bolalar cholg`ularida ijro etish usullarini bilish;
- bolalar cholg`ularini ovoz tembridan farqlay olish;
- bolalar cholg`ulari orkestrida ijro etish;

- o'z harkakatlarini musiqa tempiga moslay olish.
- xor bo`lib. ansamal va yakka kuylay olish;
- fortepiano. g'ijjak. chang. qonun cholg'u asboblarini ko`rinishi va ovozidan farqlash. nomlarini bilish.

Katta yoshdagи asosiy ish reja- katta yosh (5-6 yosh)

Musiqa tinglash: Bolalarda musiqa tinglashga ishtiyoqni qo'llab quvvatlash va rivojlantirishda davom etish. Musiqa asarining kayfiyati. harakterini mustaqil farqlash. ta'surotlari haqida hikoya qilishga o'rgatish. Vokal va cholg'u asarlaridan bahramand qilish va bu janrlar haqida tushuncha hosil qilish. ularni farqlashga o'rgatish. Marsh. qo'shiq va raqs haqidagi bilimlarini kengaytirish. O'zbek xalq kuylari bilan tanishtirib borish. Doira va nog'ora sadolaridan bahramand qilish. qayroq. taxta qarsak bilan tanishtirish;

Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish: Musiqaning tempi. ritmi. harakteriga mos ifodali harakatlanish. Kuy qismlari almashishiga qarab harakatlarni o`zgartira olish.

Yengil. prujinasimon yurish. yugurish. sakrash. olding va orqaga. yonga qadam tashlash. oldinga hakkalash. raqs harakatlarini sifatli bajarishga o'rgatish. Musiqa ostida qatorlarga saflanish va mashqlar bajarish. qatorlardan doiraga shakliga o'tish. katta va kichik doiralar hosil qilish. bir nechta kichik doirachalarga bo'linishga o'rgatish. Bolalarga o'zbekcha raqslar bilan bir qatorda turli xalqlar raqslarini o'rgatish. Bolalarda raqsga oid ijodkorlikka undash va uning namoyon bo'lishini rag'batlantirish va qo'llab quvvatlash.

Qo'shiq kuylash: Bolalarda ifodali. sof va tabiiy ovozda kuylashga o'rgatish. Bolalarning ovozining yosh hususiyatlarini hisobga olib repertuar tanlash. To`g'ri nafas olish va kuylash ko`nikma va malakalarini shakllantirish. Kichik ansambl bo`lib kuylash. solist bilan kuylashga o'rgatish. Kuy ohangini to`g'ri ijro etilishiga erishish.

Bolalar cholg'ularida chalishga o'rgatish: Doira. nog'ora. safoyl. quticha. taxta qarsak kabi cholg'ulari va ularda ijro etish usullari bilan tanishtirish. ovozidan farqlashga o'rgatish. Kattalarga jo'r bo`lib zarbli orkestr hosil qilish. Bolalarda cholg'uchilikka oid ijodkorlikni shakkllantirish.

O`yin: Qo`shiqlarni sahnalashtirish. davra qo`shiqlarida so`z. musiqa va harakatlarning bir-biriga mos bo`lishiga erishish. O`yinlarda musiqa mashg`ulotining barcha bo`limlaridan olingan bilmimlarni mujassam holda namoyon etishga o`rgatish. Obrazli harkatlarni bajarishda bolalarni umumiyligidan mustaqil va yakka bajarish sari boshlash. Bolalarda obrazli tasavvur qilish. mustaqil fikrlash. ijodkorlik kabi hususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish.

6 yoshti bola bilishi lozim bo`lgan bilimlar:

- Musiqa asarining shaklini mustaqil aniqlay olish.
- Tinglangan asarlarning nomi va ijodkorlarini bilish.
- Musiqa asarining mazmunini tushunish va kayfiyatini farqlash;
- Bir oktava oralig`ida notalarni bilish. tovushqatorini kuylash.
- Vokal va cholg`u musiqasini farqlash.
- Orkestr. simfoniya. opera va balet janrlari haqida umumiylishchaga ega bo`lish.
- Qo`sish nomi va bastakorini bilish.
- Musiqaga mos mustaqil harakatlana olish.
- Kuy qismlari o`zgarishiga qarab harakatlarni o`zgartirish.
- cholg`u asboblarini farqlay olish.
- Bolalar cholg`ularida ijro usullarini bilish.
- Mustaqil obrazli harakatlar o`ylab topa olish va bajara olish.
- Bayram ertaliklari va ko`ngil ochish soatlarida faol ishtirok etish.

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarni o`qitish uchun asosiy ish reja Maktabga tayyorlov davri (6- 7 yosh)

Musiqa tinglash: Musiqa asarining go`zalligini idrok etish. mazmunini tushunish. yorqin ifoda vositalarini farqlash. musiqaning 2-3 qisqli shaklini mustaqil farqlay olishga. asarning kirish qismi. band va naqorat qismi. shuningdek xotimasini farqlashga o`rgatish. Musiqa vositasida bolalarning ichki dunyosini boyitish. ularda estetik didni shakllantirish. O`zbek mumtoz va zamonaviy shuningdek. jahon mumtoz musiqasi na`munalaridan bolalarni bahramand qilish. Marsh. qo`sish. raqs janridagi asarlarni mustaqil farqlash. Asarda berilgan obrazni musiqiy-intonasion rivojlanishini kuzata olishga o`rgatish. Dutor.

rubob. qonun. tanbur kabi cholg'u asboblari ijrosida kuylarni tinglash va ovozidan farqlashga o'rgatish. Bolalarni jonli ijro bilan bir qatorda audio va video tasmalarga yozilgan kuy va qo'shiqlar. diafilm. she'riyat na'munalari. badiiy so'zdan bahramand qilish. Bolalarning yoshiga mos va ularga tushunarli mazmundagi opera va balet asarları. xalq cholg'ulari orkestri va ansamblı ishtirokidagi konsertlar. san'at muzeylariga olib boorish.

Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish: Raqs harakatlarini aniq va musiqaga mos bajarish. Raqlardagi bezak elementlari bilan tanishtirish va ularni bajarishga o'rgatish: yurish. yugurish. sakrash. oldinga va yonga hakkalash kabi harakatlarga oyoq to'pillatish. chapak chalish kabi bezak elementlarini qo'shib bajarishga o'rgatish. Musiqa ostida qatorlarga saflanish. bir qator bo'lib yurish va yugurish. katta va kichik doira qurish kabi harakatlarni mustaqil bajarish. Davra qo'shiqlarining matniga mos harakatlarni musiqaga holda mustaqil bajarish va faol bo'lish.

Qo'shiq kuylash: Bolalar ovozini shikastlanishdan asrab rivojlantirish. To'g'ri nafas va to'qri kuylash malakalarini shakllantirish. Bolalarning yoshhususiyatlari va ovoz diapazonlarini hisobga olib repertuar tanlash. qo'shiq matni va ohangini asniq ifoda etish. Cholg'u asbobi jo'rligisiz kuylay olish. Qo'shiqning band va naqorot qismlarini farqlay olishga o'rgatish. Bolalarda qo'shiq ijrochiligi. cholg'uchilik va aktyorlik qobiliyatlarini mujassam rivojlantirish.

Bolalar cholg'ularida chalishga o'rgatish: Jamoa bo'lib ijro etish malakalarini irvojlantirish bilan birga ansambl bo'lib ijro etishga o'rgatish. Ijroni baravar boshlab. birgalikda yakunlash. Kuyni mustaqil ijro etish ko'nikmasini hosil qilish. Bolalarda cholg'uchilikka oid ijodkorlikni rivojlantirish.

O'yin: Musiqiy o'yinlarda kuylash. ansambl bo'lib va yakka kuylashni qamrab olish. Sahna nutqi. ya'niy ifodali va aniq talaffuz qilishni va sahna harakati erkinligini shakllantirish. Ushbu maqsadda ayrim ertaklarni sahnalashtirish. musiqlashtirishga e'tibor qaratish.

Harakatli o'yinlar orqali diqqat-e'tibor. chaqqonlik va ziyraklik. harakatlni musiqaga moslash kabi sifatlar bilan birga

bolalarni jismoniy rivojlantirish. «Oq terakmi. ko'k terak». «Dor o'yin». «Boylandi» shular jumlasidandir.

Bolalarda musiqiy-ta'limi o'yinlarga bo'lgan qiziqishni orttirish. Ushbu o'yinlarda bolalrning musiqiy bilimlarga o'rgatish. olingen bilmilarni mustahkamlash bilan birga o'yinlarda ziyraklikni ivojlantiradigan vazifalarni qo'yish. Musiqiy-ta'limi stol o'yinlaridan «Musiqali loto». «Kayfiyatlar». «Uzun. qisqa tayoqchalar». «/adir-budir notalar». «Notalarning uychasi» kabilarni. og'zaki o'yinlardan «Dengizmi. irmoq». «O'rmonda». «Uch ayiq». «Barmoqlar». «Nechaga sanaymiz» o'yinlarini o'ynatish mumkin.

7 yoshli bola quyidagilarni bilishi kerak:

-kuylash va harakatlanishni musiqaga moslay oladi.
-tovushlarning balandlik. membr. cho'zimlilik hususiyatlarini eshitish orqali farqlaydi.

-ma'lum raqs harakatlarni egallaydi.
-jamo bo'lib va yakka raqsga tusha oladi.
-o'yin. raqs va mashqlarda mimik harakatlarni aks ettira oladi.
-o'zbek xalq cholg'u asboblarini ko'rinishi va ovoz tembriga ko'ra farqladi.
-bolalar cholg'ulari ansambli va orkestrida ijro etish malakalarini egallaydi.

-tinglangan va kuylayotgan kuy va qo'shiqlarini mazmunini anglaydi va bayon etadi.

-to'rli musiqiy o'yinlarni mustaqil tashkil eta oladi.

-bayram ertaliklarida faol ishtirok etadi.

Nazorat uchun savollar:

1.Oilada musiqa savodini olib borishda tarbiyaning o'rni qanday?

2.Oilada va bolalar bog'chasida musiqa savodining o'rni va ahamiyati qanday?

3.3 7 yoshli bolalarni kuylash ko'nikmasi qanday talabga javob berishi lozim:

4.Kichik yoshdagagi asosiy ish reja ?

5.O'rta yoshdagagi asosiy ish reja ?

6.Katta yoshdagagi asosiy ish reja ?

7.Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish ?

7-MAVZU. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHDAGI BOLALARGA MUSIQIY TARBIYA BERISH METODLARI

Reja:

- 1. Musiqiy tarbiyaning umumiy metodik tavsifi;*
- 2. Ko'rgazmali metodi;*
- 3. So'zlab berish metodi;*
- 4. Amaliy faoliyat metodi.*

Tayanch so'z va iboralar: metodik tavsifi, musiqiy tarbiyaning umumiy metodik tavsifi.

O'qituvchi bilan bolaning o'quv vazifalarini hal etishga qaratilgan o'zaro bog'langan faoliyati yo'llari va usullarini o'qitish metodlari deb atash qabul qilingan. Metodlar pedagogning asboblaridir. U metodlardan foydalanib bilim beradi. Bolalaming ko'nikma va malakalarini shakllantiradi hamda rivojlanishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli hamma o'qitish metodlarini mukammal bilish va ulardan moxirona foydalanish pedagog uchun kasbiy zarurat va ayni vaqtida uning mahorat ko'rsatkichi hisoblanadi.¹²

O'quv materialining bitta mazmunining o'zi ta'limning turli vositalari yordamida turli usullar bilan o'zlashtirilishi mumkin. Shu sababi doimo o'qituvchi oldida muvaffaqiyatliroq va samaraliroq o'qitish hamda o'qishga yordam beradigan yo'llarni tanlash muammosi turadi.

Musiqa faoliyati turlarini o'zlashtirishning turli shakllarini qidirish musiqa darsining maqsadlari. vazifalarini anglab olishdan boshlanadi. Masalan. qo'shiq aytish qoidasini tushuntirishdan avval u nima maqsadda bolalami ifodali kuylashga o'rgatish uchunmi yoki ana shu qoida yordamida ularda badiiy didni shakllantirish uchunmi. yohud bolaning umumiy nutq madaniyatini oshirish uchunmi. o'rganilayotganini aniq bilishi kerak.

¹² T. Ortikov "Musiqa o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma Toshkent "Muharrir" nashriyoti 2010, 25-b


Metod o'z tuzilishi jihatidan murakkab bo'lib. o'qituvchi va bolalar faoliyatining ko'pgina jihatlarini o'z ichiga oladi.

Musiqaviy tarbiya metodlarining tanlanishi bolalarning qaysi metodlarga tayangan holda bilim olishlariga ham bog'liqdir. Bunda birinchi manba musiqaning o'zi bo'lishi tabiiy. chunki faqat musiqagini insonda musiqaviy hissiyotlarni uyg'otishi mumkin». Bu borada bolalar bilan ishlash. dastlab. musiqa tinglash tajribasi va kunikmasini orttirib borishga qaratilgan buladi. Bolalarnig yoshi qanchalik kichik bo'lsa. ularda musiqa tinglash tajribasini orttirishga ketadigan davr ham shunchalik ko'tt buladi. Bilim olishning ikkinchi manbai pedagog suzidir: bu so'z bolalarning musiqaviy obraz haqida yaxlit tessavurga yega bo'lishni. muzika asarining mazmunini aniq tushunib olishini ta'minlaydi.

Uchinchi manba bolalarning bevosita musiqa bilan shugullanishidir. chunki musiqa bilan shugullanmasdan. uni mashq qilmasdan. qo'shiq aytish va muzikal-ritmik harakatlar qilish ko'nkmalarini yuzaga keltirish. shu soxa bilan bogliq bilimlarni o'zlashtirish ham mumkin emas. Binobarin. faqat praktik faoliyatgina har tomonlama rivojlanishga yerdam beradi. ijtimoiy hodisalarga to'g'ri munosabatni tarbiyalaydi. tashab buskor. ongli va aktiv bo'lishga imkon yaratadi.

Shunday qilib. biz musiqaviy tarbiya metodlarini tanlashda - jonli kuzatuvdan abstrakt fikrlashga va undan praktikaga qarab borishga tayanamiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga musiqa ta'limi va tarbiyasi berishning o'zaro uzviy boglangan uchta metodi bor: (3-chizma)



Bu metodlarning har biri ma'lum spetsifik xususiyatlardan kelib chiquvchi qator usullarni o'z ichiga oladi. O'rganish protsessida ulardan qaysi birini tanlash muayyan musiqa mashg'ulotining konkret vazifasi. ijro yetilayotgan musiqa materialining murakkabligi. o'qitishning bosqichlari va bolalarning umumiylara taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Bolalarga turli metodik usullardan foydalangan holda musiqaviy ta'lim-tarbiya berishda pedagogik quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- a) bolalarga tavsiya yetilayotgan musiqa materialining badiiyligini va uning sifati ijrosini ta'minlash;
- b) muayyan bolalar kollektivining o'ziga xosligini. uning umumiylara musiqaviy taraqqiyot darajasi. uyushqoqligini hisobga olish;
- c) maktabgacha yoshdagি bolalarning musiqani obrazli va aniq idrok yeta olishini e'tiborga olish;
- d) asar mazmunini va musiqaviy ifoda vositalarini bolalar hissiyotini va ongiga yetkaza bilish;
- e) bolalarni aktivlashtirish. ularning yetiborini musiqa sadosiga torta bilish;
- f) ga'lim berish jarayonida bolalarda musiqaviy obrazni idrok yetish qobiliyatini tarbiyalash.

Yuqorida keltirilgan metodlarning har birini alohida ko'rib chiqaylik:

Ko'rgazmali metod. Bu metod bolalarga turli hodisalarini. atrof-muhitdagi voqealarni. kishi va hayvonlarning hissiyoti. harakatni yorqin va badiiy obrazlarda ko'rsatishga. ularni hayot va turmush jixozlar bilan tanishtirishga asoslanadi.

yeshitishga asoslangan ko'rgazmalilik. Bunda bolani o'rgatish bevosita musiqa yeshitish orqali bo'ladi. Musiqa yeshitish maxsus mashg'ulot paytida yoki bola tomonidan qo'shiq va musiqaviy ritmik harakatlarning ijro yetilishi paytida bo'lishi mumkin.

ko'rishga asoslangan ko'rgazmalilik. U musiqa sadolari bilan qushib olib boriladi. Bu usulga quyidagilar kiritiladi: qo'shiq aytish usullari. yo'llaridan. turli o'yin. raqs. mashq harakatlardan namunalar ko'rsatish; muayyan muzika asari bilan bogliq

o'yinchoqlarni. rasm. kostyum va boshqa predmetlarni ko'rsatish va h. k.

SO'ZLAB BERISH METODI. Bu metod bola ongiga mo'ljallangan bo'lib. uning faoliyatini ma'noli va mazmunlordin qilishga qaratiladi. Bunda pedagogning so'zi musiqa asarining programmasini tushunib olishda bolaga yordam beradi: uning tasavvurini jonlantiradi. ijodiy aktivligani oshiradi.

So'zlab berish metodini quyidagi usullari bor:

tushuntirish. Bu usuldan yangi asarni tinglash. qo'shiq aytish. uyin va raqslarni qo'yish. mashq qilish paytida foydalniladi. Tushuktirish aniq va qisqa. ortiqcha qaytarqlarsiz bo'lishi kerak. Musiqa material va topshiriqlar bolalar tomonidan o'zlashtirila boshlangan dastlabki (birinchi) davrda tushuntirish yana bir bor takrorlanadi. Obrazli hikoya qilish tipidagi tushuntirishlar programmali musiqa asarlarini tinglashda va syujetli musiqaviy o'yinlarni ijro yetishda qo'llanishi mumkin. Obrazli hikoya bolalarning qiziqishini. ularning yemotsional kechinmalarini kuchaygiradi. obrazlarni anglab olish qobiliyatini orggiradi. tasavvurni rivojlantiradi. Obrazli hikoya musiqa asarining syujet yo'li rivojiga aynan mos bo'lishi kerak. Quyida kompozitor Ye. Tsislchyovaning «Quyoncha» va «Ayiq» asaridan «Quyon» va «Ayiq» musiqasini syujetli ijro yetish bo'yicha obrazli hikoya qilishga misol keltiramiz: «O'rmonda qish tongi. Yalanglikda quyonlar chopishadi. aylanishadi. sakrab-sakrab o'zlarini isitishadi. Ular o'yinga shu darajada berilib ketishdiki. hatgo o'z uyasida uxbab yotgan ayiqni uyg'otib yuborishdi. Ayiq o'rnidan turib. uyqusiga kim halaqit berayotganini ko'rgani ketdi. Quyonlar ayiqni ko'rib tumtaraqay qochishdi. butalar orasiga berkinishdi. Ayiq ketgandan so'ng yana yalanglikka chiqib sakray boshlashdi» izohlash.

Bunday izohlar ijro. raqs. mashq harakatlarni. qo'shiq aytishnyang turli yo'llarini ko'rsatishda qisqa va aniq formada beriladi. Izohlarning noaniq bo'lishi ko'gshncha tushunmaslikka va yomon ijro yetishga sabab bo'ladi. Izohlash ko'rsatish bilan uzviy boglangan bo'lishi kerak. Pedagog bolalarni izohni oxirigacha tinglashga o'rgatadi. Masalan. bolalar biror narsani o'rganish jarayonida pedagog ko'rsatayotgan harakatlarni u bilan

izma-iz takrorlay boshlasa. pedagog ularga «harakat qilmay. e'tibor bilan tinglang va bu harakatlarning qanday bajarilishini oldin ko'rib oling» deydi. qo'shiq aytish o'rgatilayotgan bulsa (masalan. «Kotya. Kotyonka. Kotok») va bunda cho'ziq notalarni qanday aytish kerakligi tushuntirilishi lozim bo'lsa unda pedagog bolalarga «qani. keling. o'zimizni bir tinglab ko'raylik. oxirgi notani hamma cho'zib kuylaganmikin. kotik ham yeshitsin uchun bu notani uzoq cho'zishdimikin» deb izoh beradi;

ko'rsatma berish. Ko'rsatmalar odatda bolalar turli o'yin. raqs va mashiqlarni bajarayotgan paytda beriladi. Masalan. «O'ng yelka tomondan aylanish kerak». «Oyoq barmoqlarini pastga cho'zing» kabi. Bunday ko'rsatmalar u yoki bu harakatni qanday bajarish kerakligini anglab olishga. harakatlarni bajarish usullari bilan bog'liq tushunchalarni aniqlashga yordam beradi;

poetik nutq. Programmali musiqa asarini ijro yetishdan oldin kichikroq prozaik yoki poetik asarni yoxud ulardan biror parchani o'qitish (o'qib berish) bolalarning musiqa asari obrazini chuqurroq his yetish va tupgunib olishga yordam beradi. Masalan. P. I. Chaykovskiyning

«To'rg'ay» («Javoronok») asarini ijro yetigtsdan oldin bolalarga V. A. Jukovskiyning quyidagi to'rtligini o'qib berish mumkin:

✓ Quyoshda qora o'rmon qizg'ish tus oldi. Vodiyyadagi siyrak bug' bir oz oqargay. Shunda tong qo'shigini kuylashga tushdi. Moviy osmonda uchgan ovozdor to'rg'ay.

✓ Ba'zan yangi ko'shiq tinglashdan oldin pedagog qo'shiq tekistini bolalarga o'qib berishi ham mumkin;

✓ suhbat. U odatda musiqa tinglab bo'lganidan so'ng o'tkaziladi. Suhbat jarayonida bolalar musiqadan olgan ta'surotlari haqida gapirishadi. unda ifodalangan obrazlar va hodisalarga munosabat bildirishadi. unda ifodalangan obrazlar va hodisalarga munosabat oildirishadi. baho berishadi. Bolalar bilan o'tkaziladigan suhbatlar qisqa lo'nda va ta'sirchan bo'lishi kerak;

✓ bolalar bilan o'tkaziladigan suhbatlar doimo savollar yordamida bo'ladi. Pedagog asar mazmuni bilan bog'liq holda bolalarga savollar berar yekan. bu savollarni ortiqcha detallashtirmasligi qerak. Savollar yordamida badiiy obrazning

mazmuni. xaraqteri oydinlashtiriladi. musiqa asarlarining ta'sir kuchini ta'minlovchi forma va vositalar aniqlanadi. Masalan. raqs kuyi ijro yetilgandan so'ng pedagog bolalardan «Men ijro qilgan kuy raqs kuyimi yoki marshmi?». Bu musiqaning xarakteri qanaqa?». «. Bu kuya qanday harakat mos keladi?» deb so'rashi mumkin;

✓ tanbeh berish. Bu usuldan bolaning ma'lum sabablarga ko'ra diqqati bo'linganda va xayoli asosiy vazifadai chetga chiqqanda foydalao'nidadi. Tanbeh berish jiddiy bo'lishi. ammo odob doirasidan chetga chiqmasligi kerak.

Amaliy faoliyat metodi. Bolalarning konkret faoliyati ma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan hamda sistemali mashg'ulotlar tarzida olib boriladigan ta'lif-tarbiya sifatida qaraladi.

Qo'shiq aytish va muzikal-ritmik harakatlarni bajarishda bolalarga shunday rahbarlik qilish kerakki. ular topshirikni mumkin qadar ta'sirli va ifodali qilib bajarishga intilishsin. Bolalarni o'rgatish jarayonida ularning yosh xususiyatlarini hisobga olib topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirish mumkin. Bunday murakkablashtirish bolalarning ko'nikma darajasiga va ta'lif programmasiga xilof bo'lmashligi kerak. Ba'zi qiyin holatlarga duch kelganda yesa bolalar bilan alohida individual ishslash tavsiya qilinadi.

Musiqaviy tarbiyaning barcha metodlaridan pedagog bir butun sistema sifatida foydalanadi. So'z bolani asarning mazmunini xis yetishga va tushinishga undaydi. musiqa yesa bolada paydo bo'lgan tassurotni yemotsional jihatdan chuqurlashtiradi. Musiqa hissiyotga qiladi. ayni paytda fikr ham tug'diradi. Fikr esa konkret. chlarsiz yalong'och holda bo'lmaydi.

Bolalar muzika asarini. ayniqsa. programmasiz (ma'lum syujet mazmuniga yega bo'Imagan) asarni tushuna olishi uchun pedagog musiqani idrok qilish. his yetish protsessida bevosita boshchilik qilish. buning uchun musiqa asarining mazmunini tushuntirib borishi. badiiy obrazlarni tushuntirishda yesa nihoyatda yehtiyyotkor bo'lishi kerak. So'z va musiqa bola faoliyatini yo'naltirib boradi. Masalan. pedagog qo'shiq aytishning ba'zi usullarini bolalarga ko'rsatish va tushuntirish bilan birga ba'zi frazalar. naqorot yoki svozlarni yeshittirib ham beradi. Ma'lum

musiqa-ritmik topshiriqni o'zlashtirish va bajarish uchun bolalar shu musiqa va tonshiriqni yeshitibgana qolmay. balki uning qanday ijro yetilishini ko'rishi ham kerak. Musiqa asarlarining badiiy obrazi shu daraja ta'sirchan bo'ladi. pedagog tushuntirish jarayonida bu obraz ta'sirini so'ndirmasligi. musiqa asarining mazmunini ptayuxan uzib qo'ymasligi. balki aksincha yuksak pedagogik takt va mahorat bilan uni yanada chuqurlashtirish rivojlantirishi kerak. Buni musiqaviy tarbiya metodlaridan aralash foydalanganda doimo yodda tutish zarur bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilganidek. musiqa asbobi bilan chalinadigan kuyni tinglashdan oldin pedagog tomonidan so'zlanadigan tushintarish nutqi poetik. obrazli yoki sharxlovchi xarakterda bo'lishi mumkin. Qo'shiq aytishga o'rgatish jarayonida so'zlanadigan nutq mazmuni musiqa va adabiy tekstlarning uzviy bog'liqligi bilan belgilangadi. Qo'shiq adabiy tekst orqali o'z mazmuni haqida o'zi ma'lumot beradi. shunisi bilan musiqa asbobida chalinadigan kuydan farq qiladi. Shuning uchun pedagogning qo'shiq haqidagi ko'rsatma va suhbatlari shu qo'shiqning badiiy obraziga mos bo'lishi kerak. Qo'shiqning adabiy teksti. ayniqsa u murakkab poetik oborotlardan tarkib topgan bo'lsa. alohida tushuntirishni talab qiladi. Ma'lum musiqa asari bo'yicha bolalar bilan ishslashning maqsadga metodik usullarini topish uchun pedpgog bu asarni yaxshi bilishi. badiiy ta'sir vositalari bilan tanishib chiqishi. asar mazmuni va xarakterini chukur urgangan bo'lishi shart. Shundagina musiqa ijrosida bolalarning anglab olishini ta'minlovchi oddiylik va ta'sirchanlikka yerishish mumkin bo'ladi.

Endi mактабгача yoshdagи bolalarni musiqaga o'rgatishning qanday bosqichlari borligini ko'zdan kechiraylik:

1-bosqich - musiqa asari bilan dastlabki tanishish bosqichi. Asar bilan dastlabki uchrashuv paytida (1-bosqichda) qo'shiqchining ovozi va musiqa asbobining sadosi hamda mashq yoki raqs paytidagi harakatlar bola idrokining ob'ekti bo'ladi. Bu bosqichda bolani musiqa asari bilan tanishtirish. uni musiqa tinglashga. musiqada ifodalanayotgan his-tuyg'ularga hamdard bo'lishga yerishishi asosiy maqsad qilib olinadi. Musiqani tinglay olishga o'rgatishning birinchi bosqichida bolalarda musiqa asariga qiziqish uyg'otish irradatsiyasi sodir bo'ladi. Bu paytda

bolalarning umumlashtirish va farqlay olish qobiliyati ham ancha kuchsiz bo'ladi. Yangi musiqa materialini o'zlashtirishda yeshitish. ko'rish va harakat qilish analizatorlari qatnashadi. Bu bosqichda bolaning bosh miya qobigi unga ta'sir qilayotgan hodisalarni vaqtincha o'zaro bog'lay olishy mumkin. shuning uchun ham materialni parchalarga bo'lmasdan yaxlit holda bergen maqqul. Ularni parchalarga ajratib o'rgatish vazifasi ikkinchi bosqichga qoldiriladi. Pedagog harakatlarni bevosita musiqa sadosi yoki kuy jo'rligida ko'rsatadi. Yangi qo'shiqni o'rgatish jarayonida pedagog ba'zi kuni turli musiqa asboblarida chaldirib. shu asboblarda ijro yetilgan kuyni o'zaro taqqoslaydi. shu yo'l bilan uning xotirada yaxshi o'zlashib qolishini ta'minlaydi. Birinchi bosqich uncha katta bo'lmasligi - bir yoki ikki mashg'ulotdan ortmasligi kerak. Bunda muzika tinglash. qo'shiqlarni ijro yetish yoki musiqa-ritmik harakatlarni bajarishdan. obrazli va poetik nutqdan namunalar ko'rsatish. bolalar bilan savol-javob orqali suhbatlashish. pedagog tomonidan taqdim yetilgan materialni bolalarga bajartirib ko'rish kabi usullardan foydalaniлади.

2-bosqich - qo'shiq yoki musiqa-ritmik xarakatlarni ijro yeta oladigan bo'lishni shakllantirish. idrok qilish bosqichi. Ikkinci bosqichning vazifalariga quyidagilar kiradi: musiqani chuqur idrok yetish uchun zarur bo'lgan quvnoq mehnat sharoitini yaratish. o'z-o'zini nazorat qila olish. qo'shiq aytganda ovoz me'yorini va yeshitishni uy^unlashtira bilish yoki. raqs va mashqlarda yeshitish bilan harakatni o'zaro uygunlashtira olish qobiliyatini tarbiyalash. buning uchun uzliksiz mashgulotlar o'tkazib turish; topshiriqlarni to'gri va aniq bajara oladigan bo'lishlariga yerishish. Bu bosqichda bolalar ijrosida uchraydigan barcha kamchiliklar aniqlanadi va tuzatib boriladi. O'rgatishning ikkinchi bosqichida pedagog materialni qayta-qayta mustahkamlaydi. natijada bolalarning bosh miya qobig'ida qo'zg'alish (uyg'onish) kontsentratsiyasi ancha kuchayadi. ular asta-sekyn topshiriqnini to'g'ri bajara oladigan bo'lib borishadi. Umuman. bunday bilimning shakllanishi bosqichi uzoq vaqt davom yetadi. Masalan. bolalar ba'zi qo'shiqlarni 9-12 mashgulotdan so'nggina mustaqil ravishda ta'sirli qilib aytadigan bo'lishadi.

Ikkinch bosqichda qo'llanadigan metodik usullarga quyidagilar kiritiladi: musiqani qayta tinglash. qo'shiq ijrosida yeki musiqa-ritmik harakatlardan namunalarni qayta ko'rsatish. qo'shiq oytitning yoki o'yin-raqs harakatlarining ba'zi usullari va Y5gl\arini ko'rsatish. bolalar bilan suhbatlashish. ularga salom berksh. obrazli va poetik nutq. turli ko'rsatmalar. izohlar. tanbehtar. topshiriqni bajarish usullarini qayta mashq qildirish va h. k. Xullas. bu bosqichda o'rgatishning barcha usullaridan foydalanish mumkin buladi.

3-bosqich - kunikmalar hosil qilish va mustahkamlash bosqichi. Bunda topshiriqni avtomatik ravishda bajara oladigan. qushiq. uyin raqs va mashqlarni mustaqil ijro yetadigan darajaga yerishiladi.

Uchinchi bosqichda kuzatilgan maqsad topshirshushrni yemotsional-ta'sirchan qilib bajarishga o'rgatishdan. bolalarda mustaqillikni. ijodiy aktivlikni rivojlantirishdan iboratdir. Bu bosqichda bolalarda diferentsiyalovchi (farqlovchi) tormozlanish yuzaga keladi. ikkinchi bosqichda olingen va pedagogik tomonidan qayta-qayta tushuntirilgan materialdan va mashqlardan uchinchi bosqichda mustahkam ko'nikma hosil buladi. keraksiz. ortiqcha narsalardan tormozlanadi. Shunday qilib. shartlm reflekslarning bir butgn sistemasi yuzaga keladi. kuylash va musiqa- ritmik harakatlarni ijro yetish bilan bog'liq topshiriqlarni bajarishda izchillikka yerishiladi. Eshitish va ko'rash nazorati bilan mustahkamlanadi. to'ldiriladi. Bolaning u yoki bu topshiriqni bajarish usuli avtomatlashadi. ayni paytda. u uz oldiga qo'yilgan vazifani ongli ravishda idrok qiladi va hosil bulgan ko'nikmaga tayangan holda ijodiy aktivlikka ham intiladi.

Bolalar bilan ishslashning uchunchi bosqichida pedagog kuy va musiqa-ritmik harakatlar ijrosini takomillashtiradi. ularda musiqani idrok yetish qobiliyatini tarbiyalashda. muayyan musiqa asarining badiiy xsusiyatlarini tushuntirishda davom yetadi. Bolalarga topshiriqlar og'zaki beriladi. Ba'zan vazifani ko'rsatish uchun bolalar chaqiriladi. Uchunchi bosqichda pedagog o'yin variantlaridan foydalanadi. topshiriqlarni bir oz o'zgartirib murakkablashtiradi. shunday qilib bolalarni ijodiy aktivlikka da'vat yetadi. bunda o'rgatishning turli-^guman metodlaridan

foydalanadi. Shunday qilib mактабгача ўoshдаги bolalariga muzika ta'limi berish turli metodik usullarning barchasidan foydalanishini taqozo qiladi.

Endi metod va metodik usullardan turli ўoshдаги gruppalarda qanday foydalanish kerakligini ko'rib chiqaylik.

Kichik yotddagi gruppа. Bu gruppada so'zlab berish metodini qo'llashda pedagog ko'proq tushuntirish usulidan foydalanadi. Tushintirish aniq bo'lishi kerak. Masalan. bolalar

«Barmoqlar va qo'lllar» o'r ganmoqda (xalq musiqasi. kuyi A. Qodirov tomonidan qayga ishlangan). Bundan pedagog baland ovozli muzikaga ikki qo'lning kaftlarini bir-biriga urib chapak chalish kerakligini. past ovozli muzikaga yesa barmoqlarni barmoqlarga asta-sekin urish lozimligini tushintiradi. Qayta ijro yetilgan pedagog stulchalarda o'tirgan bolalarga past ovozli musiqada barmoqlarni barmoqlarga urishni. baland ovozli musiqada yesa chapak chalishni taklif qiladi. ogu bilan tushuntirish va amaliy faoliyat o'zaro qo'shib bajariladi. bolalarning vazifani yaxshi uzlashadirishi ham ta'minlanadi. Ko'rsatmalar bolalar o'yinga yoki raqsga tushayotganda berib boriladi. Masalan. bayroqchalar bilan mashq bajarilayotganda musiqa rahbari «Bolalar. bayroqchalarni Aziza Axmedovna tutganidek to'g'ri tuting» - deb ko'rsatma beradi. Kichik ўoshдаги gruppada poetik nutq ham keng kudlaniladi. Masalan. «Mushuk» deb nomlangan qo'shiqni (V. Vyalshin muzikasi) ijro yetishdan oldin «kul rang mushukcha oyna yonida mag'rur o'tirardi. dumini likkillatib. bolalarni kutardi» degan misralarni ifodali qilib o'qib berish mumkin.

Tinglash paytida ham. o'yin. raqs va mashqlar o'r ganayotganda ham pedagog bolalar bilan suhbatlashib turadi. ularga «musiqanining xarakteri qanaqa?. musiqani sur'ati tezmi yoki sekinmi?. bu musiqanining mukaddimasi bormi?» tarzda savollar berib boradi. bu savollarga ko'pincha o'zi javob qaytaradi. chunki bolalarning tajribasi. musiqa sohasidagi bilim yetarli bo'Imaganidan ular yuqoridagi savollarga mustaqil savol-javoblar jarayonida bolalarni musiqa terminalogiyasi bilan mumkin qadar tanishtirib borishi kerak. bu hol ularning kelajak terminalogiyasidan mustaqil ravishda foydalana oladigan

bo'lishlari uchun zamin hozirlaydi. Lekin shuni ham ta'kidlash lozimki. bolalarga berilayotgan savollarning mazmuni ularga tushunarli bo'lishi kerak. Masalan. «Mushukcha (V. Vyalshin musiqasi) qo'shig'i tinglangandan sung. pedagog bolalardan qo'shiqda nima xaqda gapirilganini. mushukcha nima qilganini. u kimni kutganini suraydi. Obrazli hikoyadan kichik yoshdag'i bolalar gruppalarida ancha keng foydalilanadi. Bunday hikoya odatda syujetli uyin ijrosidai va programmali musiqa tinglashdan oldin bo'ladi.

Bolalar bilan ishlashda ko'rgazmalilik usullariga. ayniqsa. yeshitishga asoslangan ko'rgazmalilikka katta o'r'in beriladi. Busiz ta'limning ko'rgazmalilik metodi deyarli qo'llanmaydi. Bolalar ijro yetishi kerak bo'lgan har qanday musiqa asari avval pedagog ijrosida tinglanadi. Kichik yoshdag'i bolalar gruppasida ko'rishga asoslangan ko'rgazmalilikka ham keng o'r'in beriladi. Shu maqsadda mashg'ulotlarga rasm va o'yinchoqlar olib kiriladi. Bunday mashgulotlar odatda o'yin tarzida o'tkaziladi. Masalan. yangi yil bayramidan so'ng gruppaga kichkina archa bilan o'yinchoqlar olib kiriladi. Musiqa rahbari: «Qor bobo bu archani bizga sovg'a qilib qoldirgan. U juda mexribon. Qani qor bobo va archajon xaqidagi qo'shiqni bir tinglaylikchi! Bu qo'shiqni qor boboning o'zi keltirgan» deydi. Bundan tashqari. bolalarni kuylashga va musiq-ritmik xarakatlarga o'rgatish paytida pedagogaing o'zi qushiq aytish usullari va harakat usullarini ko'rsatadi. Bolalarning kuylash san'ati. musiqa - ritmik xarakatlari bu davrda hali ancha nomukammal bo'ladi. ularda kattalar ijrosiga taqlid sezilib turadi o'rta_ grupper. Bu gruppada so'zlab berish metodi o'z ichiga kuyidagi usullarni qamrab oladi:

Tushuntirish. Bu usul o'rta gruppada ancha kengaytirilgan tarzda oo'ladi. Masalan.

«Purjinka» nomli asarni mashq qilish paytida musiqa rahbari bolalarga qarab «musiqaning birinchi qismida biz tizzalarni bukib o'tiramiz. purjinka bo'ladi unda muzika sekin chalinadi. musiqakning ikkinchi - kuchli sadoli qismida biz turgan joyimizda ikki oyoqlab yengilgina sakray boshlaymiz» deydi;

Izohlash. Masalan. bolalar belgilangan vaqtidan oldin qo'shiq ayta boshlaea. pedagog xamma baravar qo'shiq. ayta boshlashi

uchun oldin muqadimning so'ngi akordini tinglab bo'lishi. shundan so'ng qo'shiq aytta boshlashi kerak deb izoh beradi;

5) Ko'rsatma berish. Bu usuldan bolalar harakatda bo'lgan paytda foydalaniladi. Masalan. bolalar marsh sadosiga yurayotganda pedagog: «Ilhom. yelkangni tugri tut». «Nodira. musiqaga e'tibor qil» deb ko'rsatma berish mumkin;

Poetik nutq. Bu usuldan odatda qo'shiq aytishdan oldin tez-tez foydalanib turiladi. Masalan. «Qish o'tib ketdi» qo'shig'ini (N. Metlov musiqasi) aytishdan oldin shu qo'shiq tekistidan quyidagi parchani ifodali qilib o'qib berish mumkin:

Qayin shoxdan chaqqon. Yerga sakradi chumchuq. Yo'qdir bo'lak izg'irin. Sayrayman «churuq-churuq». O'rta gruppab olalarining fikr doirasi ancha keng. so'z boyligi bir muncha ko'p bo'lib. ular musiqa bilimidan ham ma'lum tajribaga zga bo'ladilar. Sho'ning uchun musiqa asari tinglab bo'lingandan so'ng. ular bilan kengaytirilgan suhbat o'tkaziladi. Masalan.

A. Fillipenkoning «Qish keldi» qo'shigi tinglangandan so'ng quyidagi suhbat o'tkaziladi: Qo'shiqda nima xaqida gapirilg'an?. qo'shiqda muqaddima bormi?. qo'shiqning xarakteri qanaqa?. qo'shiq sur'ati tezmi yoki sekinmi?. va h. k.

Suhbat odatda savollar yordamida o'tkaziladi. Ba'zan savollar bolalarga qo'shiq tinglashdan oldin. hatto topishmoq tarzida berilishi ham mumkin. Masalan. musiqa rahbari bolalarga: «Men qo'shiqning muqaddima qismini chalaman. siz yesa bu qo'shiqning qanday nomlanishini yeslang» deb toshniriq beradi.

Eshitishga asoslangan kurgazmalilik (badiiy-musiqa asarini idrok yetish) kichik yoshdagi bolalar gruppasida qanday o'rinn tutsa. o'rta gruppada ham shunday o'rinn tutadi. faqat asarning o'zi. uning shakli. xarakteri. ifoda vositalari birmuncha murakkablashgan bo'ladi. xolos. Ko'rishga asoslangan ko'rgazmalilik haqida xam shuni aytish mumkin. Ammo o'rta gruppada qo'shiq aytishdan yoki asar ijrosidan oldin o'yinchoqlarni ko'rsatish birmuncha kamaytirilib. bolalarning amaliy faoliyatiga ko'proq e'tibor beriladi. ulardan suhbat paytidagi savollarga aniqroq javob berilishi. o'yin va raqs harakatlarning aniqrok bajarilishi talab yetiladi.

Katta va maktabga tayyorlov gruppalari. Bu gruppalarda biz ko'proq bola ongiga tayanib. so'zlab berish metodi va uning barcha usullarini qo'llaymiz. qisqa va aniq tushuntirishlar beramiz. Masalan. musiqa rahbari bolalarga «Kim tezroq?» (A. Shvarts musiqasi) o'yinini o'ynaymiz - deydi. Musiqa tinglab bo'lingach. bolalar musiqa asarini tahlil qilishadi. musiqa necha qismidan iboratligi. xarakteri xaqida tushunchalarini aytishadi. shundan so'ng pedagog qoidalarni tushuntiradi. Bunda tez-tez izohlardan foydalanib. namunalar ko'rsatadi. Bolalar bunday tushuntirish va izohlarni oxirigacha tinglashlari kerak. Masalan. yuqorida aytib o'tilgan «Kim tezroq» o'yinida (A. Shvarts musiqasi) pedagog «Boshlovchi doirachaga ikki marta urishi kerak» deb tushuntiradi va uzi qanday urushni ko'rsatib beradi.

Ko'rsatmalar bolalar biror o'yin yoki mashq bajarayotganda hamda ma'lum bir vazifani bajarishga tayyorgarlik ko'rayotganda beriladi. Chunonchi qo'shiq aytishdan oldin pedagog

«Bolalar tug'ri o'tiring. hozir qo'shiq aytamiz» deb ko'rsatma berishi mumkin.

Poetik nugg musiqa asari obrazni idrok yetish va oydinlashtirishga yordam beradi. shuning uchun undan xam tez-tez foydalanib turiladi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN INTERFAOL METOD:



"REZYUME" TEXNOLOGIYASI

Texnologiya o'quvchi (talaba)lar tomonidan murakkab, ko'p tarmoqli va muammoli mavzularning samarali o'zlashtirilishi uchun xizmat qiladi. Unga ko'ra o'rganilayotgan mavzuning band yoki bo'limlari bo'yicha axborot berilib, har biri alohida tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida o'quv materialining mohiyatini yorituvchi asosiy tushuncha, muhim qoidalarning mazmuni, ilmiy

bilimlarni o'zlashtirishdagi ahamiyati, murakkablik darjasи va amaliy qiymati kabi holatlarga e'tibor qaratiladi.

Bu texnologiya o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlash, jamoa bo'lib ishslash, izlanish, mavzudan kelib chiqqan holda o'quv muammosining echimini topish, zarur xulosalar chiqarish, oqilona qarorlar qabul qilish, jamoaga samarali ta'sir etish, mavzu bo'yicha egallangan bilimlarni bevosita amalda qo'llay olishga o'rgatadi.

Mashg'ulotlarda texnologiyadan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:

O'qituvchi o'quvchi (talaba)larni texnologiya mohiyati
va qo'llash shartlari bilan tanishtiradi

O'qituvchi o'quvchi (talaba)larni ularning soniga qarab guruhlarga ajratadi

Har bir guruhga tavsija etilgan muammoning echimini topishga oid topshiriq beradi

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (8-10 daqiqa) belgilanadi

Har bir guruh topshiriqni bajarishda o'qituvchi
tomonidan taqdim etilgan sxema asosida ish ko'radi

Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, har bir guruhning bir nafar
a'zosi topshiriqning echimi bo'yicha ishlanmalarni namoyish qiladi (taqdimotda


O'qituvchi boshqa guruhlardan o'z echimini taqdim etgan guruhning
xulosasi yuzasidan fikr bildirishni so'raydi

Guruholarning fikrlari tinglangach, echimni
taqdim etgan guruh o'z xulosasini bayon qiladi

O'qituvchi guruholarning fikrini
(xulosa)larga izoh berib, ularni baholaydi


O'qituvchi mashg'ulotni yakunlaydi

Nazorat uchun savollar:



- 1.Ko'rgazmali metodga nima kiradi?
- 2.So'zlab berish metodi qanday usullarni o'z ichiga oladi?
- 3.Asosiy faoliyat metodi?

Mustaqil ta'lif uchun topshiriqlar:



"Musiqiy tarbiyaning umumiy metodik tavsifi" mavzusida taqdimot tayyorlash – (power pointda), Kamida 3ta adabiyot va internet saytlardan foydalangan holda kamida 15ta varoq, ichida mavzuga doir kamida 10ta rasm. Kamida 1ta asosiy adabiyotlardan foydalanish majburiy.

8-MAVZU: MUSIQA MASHG'ULOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATINI LOYIHALASHTIRISH VA ULARNING RIVOJLANISHINI DIAGNOSTIK TAHLIL QILISH

Reja:

- 1. Musiqiy qobiliyatni rivojlantirishning shart – sharoitlari.*
- 2. Musiqaviy – sensor qobiliyatlar.*

Tayanch so'z va iboralar: musiqiy qobiliyat, mashg'ulot, muhit, qobiliyat, dinamika, tembr.

Musiqa mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rejalashtirish, loyihalashtirish. Musiqa mashg'ulotlarida bolalarmi o'zlashtirish va rivojlanishini diagnostik tahlil qilish

Qobiliyat – ma'lum bir turdag'i faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning subyektiv sharti bo'lib hisoblanuvchi shaxsnинг individual xususiyatidir. Qobiliyat – faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi.




Musiqiy qobiliyatni rivojlantirishning shart-sharoitlari

Psixologianing ko'rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biron – bir qobiliyatning ro'yobga chiqish va rivojlanish manbayi layoqat bilan tug'iladi. Layoqat o'z holicha rivojlna olmaydi, uning rivojlanishi uchun qulay muhit kerak.

Bola musiqaga layoqat bilan tug'ilishi mumkin, lekin uning musiqiy xususiyatlari shakllanishi uchun qulay muhit yaratilmasa, musiqaga bo'lgan layoqati rivojlanmay qoladi. Insonning shaxs sifatida shakllanishida yetakchi omillardan biri muhittdir. Muhit deganda, kishiga ta'sir etadigan tashqi voqyealar yig'indisi tushuniladi. Muhit o'z navbatida – tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti va boshqalarga bo'linadi. Insondagi musiqiy qobiliyatning rivojlanishi va shakllanishi uchun ijtimoiy va oila muhiti muhimdir. Inson bolasi, agar insoniy muhitga tushmay, hayvonlar muhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko'rinishlari saqlanadi, lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti – harakat shakllanmaydi. Odob, axloq, fe'l – atvor – shaxsnинг barcha ruhiy sifatlari faqat muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi. Bolalarning musiqa ijrochiligi malakalarini rivojlantirishdagi eng muhim shartlardan biri – ularning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirishdir. Chunki, musiqiy qibiliyatlar – musiqani ritmik his qilish, ladni his qilish, musiqiy eshitish, musiqiy xotira, musiqaga emosional ta'sirchanlik bolalarda ijrochilik malakalarini rivojlantirish omili hisoblanadi. Pedagog N.V. Vetlugina «... musiqiy kechinmalar aslini olganda, doimo sensor qobiliyatga asoslanadi, chunki musiqa eng oddiy ohanglar, murakkab obrazlar va eng avvalo hissiyotlar orqali idrok etiladi va musiqiy qobiliyat rivojlanadi» – deb ta'kidlagan. Qobiliyatning eng yuqori darajasi – talantdir. Talant – insonga qaysidir murakkab faoliyatni muvaffaqiyatli, mustaqil va o'ziga xos ravishda amalga oshirish imkonи qobiliyatidir.

Shu o'rinda bir narsani aytish kerak, musiqiy qobiliyati bo'lgan barcha insonlarning avlodlari ham musiqiy qobiliyatga ega bo'ladi, degan fikrga qo'shilmaymiz. Ularning bolalarida musiqaga layoqat bo'lishi mumkin, lekin shu layoqat rivojlantirilmasa, layoqat qobiliyatga aylanmay, ya'ni shakllanmay qoladi. Zero, musiqa yosh avlodning ma'naviy, badiiy – axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'ururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, fikr doirasini kengaytirishga, ijodiy mahorati va badiiy didi o'sishiga, mustaqilligi va tashabbuskorligini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Respublikamizdagи har bir mакtabgacha tarbiya muassasalarida va mакtabda hozirgi kunda musiqiy estetik tarbiyaga pedagogikaning shaxsni shakllantiruvchi eng muhim omili sifatida qaralmoqda. Qobiliyat – ko`nikma, malaka va bilim emas, balki ularni o`zlashtirish dinamikasıdir. Qobiliyatlar – faoliyat davomida namoyon bo`ladigan imkoniyatdir. Musiqiy qobiliyat faqat musiqa amaliyoti, musiqa san'atiga xos bo`lgan musiqiy material, maxsus usullar orqaligina rivojlantirilishi mumkin. Faqat musiqagina insонning musiqiy hislarini uyg`otadi.



Musiqiy ta'lim olmagan kishilarda, musiqiy qobiliyat bo`lmaydi.

Chunki ular musiqiy bilimlarni o`zlashtirmaganlar.

Nazariya va amaliyotga asoslangan holda shuni aytish joizki, musiqiy qobiliyatlar va ularni rivojlantirish muammosi pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammolaridan biridir. Bu qobiliyatlarni rivojlantirish ijtimoiy muhit, tabiatdan berilgan

iste'dod, iqtidor, shaxsning iroda kuchi, faolligi, jismoniy va aqliy jarayonlarga ham bog'liqdir. Demak, bolalarda musiqiy qobiliyatlar erta namoyon bo'lishi, shuningdek ularning qobiliyatları ta'lim - tarbiya va atrof - muhit ta'siri ostida shakllanishini hisobga olgan holda biz quyidagi xulosaga keldik. Uzlusiz ta'lim tizimidagi musiqa mashg'ulotlarida ijrochilik malakalarini rivojlantirishda musiqiy qibiliyatlar muhim omil bo`lib xizmat qilar ekan.

Har bir musiqa rahbari xar bir musiqa mashg'ulotini qiziqarli va bolalar xotirasida uzoq saqlanishi uchun ko`rgazmalardan unumli foydalanishni bilishi zarur. Mashg'ulotni tashkillashda musiqa rahbari quyidagilarni yoddan chiqarmasligi kerak:

- ◆ mashg'ulot bayoni, yangi qo'shiq, raqs xarakatlari, foydalaniadigan cholg'u asboblari uchun tayyorlangan ko`rgazmalar;
- ◆ qismlarni bir-biriga uzviy bog'lay olish;
- ◆ bolalarni qiziqtirish uchun ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olib xolda sodda va past ohangda muloqatda bo'lish;
- ◆ texnika vositalaridan foydalana olish;
- ◆ topishmoqlar va boshqotirmalar yordamida bolalar bilim va ko`nikmalarini mustahkamlab borish;
- ◆ musiqaviy xarakatli o'yinlarni atributlar va o'yinchoqlar yordamida tashkillashtirish.

- musiqa tinglashda rasmlardan, bastakor va kompazitor portretlaridan, xilma-xil rangdagi shakllardan foydalanish;
- ◆ ovoz sozlash mashqlarida musiqali zinacha ko`rgazmali qurollardan, tarqatma rasmlardan foydalanish;
- ◆ qo'shiq aytishda rasmlarga qarab qo'shiq nomini topish;
- ◆ laparlar va raqslarda atributlar (gullar, lentalar, bayroqchalar, koptoklar v.b) foydalanish;

Musiqli xarakatli va obrazli o'yinlarni o'rgatilganda shu o'yinga mos atributlarni tayyorlab fikrlashga o'rgatish, sahnalahtirilgan jarayonda bolalarni mustaqil xarakat qilishlariga imkon yaratadi va katta o'rinni egallaydi. Yuqorida ko`rsatilgan tavsiyalar mashg'ulot jarayonida o'z samarasini beradi. Bolalarning musiqa tafakkurini rivojlantiradi. Idroki va hissiyotini tarbiyalaydi.

Musiqaviy – sensor qobiliyatlar

Musiqqa mashg'ulotlarida bolaning – sensor qobiliyatlar tovushning balandligi, tembri, kuchi – hissi, musiqaviy eshitish; ritm tushunchasi; mahsuldor faoliyatning qobiliyati; ijodiy ijro mahorati rivojlanadi.

Ularni to`laroq ko`rib chiqamiz:

1. Musiqaviylik musiqaviy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun kerak bo`ladigan sifat komplekslaridan tashkil topadi, uning barcha elementlari ularning struktura munosabatlarda ko`rinadi.

2. Barcha qobiliyatlar emosional va eshitish komponentlarining sintezligi bilan xarakterlanadi. Musiqaviy faoliyat barcha turlari emosional rang – baranglik bilan xarakterlanadi.

3. Emosional eshitish komponentlari bazasida birgalikda ikkita asosiy musiqaviy qobiliyat yotadi: qayg'urish qobiliyati, fikrlash, tasavvur qilish va baland munosabatlarni eslash, qayg'urish qobiliyati farqni ajratish, musiqaviy ritmnini tasavvur qilish va eslash. Bu ikki asosiy musiqaviy qobiliyat istalgan musiqaviy faoliyatni bajarish paytida doimo kerak bo`ladigan narsadir.

4. Musiqaviylik qobiliyatlar kompleksi kabi turli musiqaviy faoliyat jarayonida ko`rinadi. Masalan: musiqaviy idrok qilish sostaviga asosiy musiqaviy qobiliyat va boshqalar: ijro etish uchun vosita – instrument bilan, ovoz bilan – musiqa mazmuni kayfiyatini ifodalashga yordam berish, hayajonli jarayonlar, tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash, texnik qobiliyatlar – qo'shiqchi intonasiyasining tozaligi, motor apparatning pastligi – kiradi. Ijodiy qobiiyatlar sostaviga ijro etuvchilikni xarakterlovchi komponentlar: ifodalilik, to`g'rilik, samimiylilik komponentlari va unumli ijodning farqlanishi komponentlari kiradi.

Musiqaviylik musiqaviy qobiliyat kabi bolada boshdan juda primitiv (qo`pol) boshlanadi va turli musiqaviy faoliyat jarayonida rivojlanadi. Bola rivojlanishning birinchi bosqichlarida unda barcha asosiy musiqaviy qobiliyatlar ko`rina boshlaydi va birining ikkinchisidan ustunligi faqat keyinroq ma'lum bo`ladi. Musiqaviy qobiliyatlarning ayrim bolalarda erta paydo bo`lishi ularni

zehniga bog'liq deb ataladi. Lekin boshqalarda kechroq boshlanishi ularning orqada qolib ketishlaridan dalolat bermaydi.

Musiqiy ta'lim				
Musiqiy mashg'ulotlar				
Qo'shiq kuylash	Musiqia tinglash	Musiqiy ritmik harakatlar	-	Bolalar musiqia cholg'ularida jo'r bo'lish
Musiqiy tafakkur Musiqiy dunyoqarash Musiqiy tasavvur Musiqiy qobiliyatlar Musiqiy his – tuyg'u Musiqiy idrok				
Musiqiy madaniyat				

1. Qo'shiq kuylash faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalar musiqiy bilimlarga asoslangan holda qo'shiq kuylaydilar. Buning uchun ular musiqiy asarga taaluqli bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtiradilar. Shu jarayonda ularda musiqiy dunyoqarash va musiqiy did shakllanadi.

Musiqia savodi faoliyatida musiqiy tafakkur, tasavvur va musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalar musiqaning yaratilish tarixi, musiqaning ifoda vositalari – ritm, metr, registr, o'lchov, lad, temp, nota yo'li va yozuvni, tovushlar uzunligi va balandligi, musiqia ijodkorlari, ijrochilar haqida bilimga ega bo'lish bilan birga, ularning musiqiy tafakkurlari shakllana boradi. Bu o'z navbatida bolalarni musiqia olamiga olib kiradi va musiqiy dunyoqarashlirini shakllantiradi.

2. Musiqia tinglash faoliyatida musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyatda bolalar musiqia tinglab, uni bevosita idrok eta boshlaydilar. Bu esa ularning musiqiy tafakkurlarini shakllantiradi, shuningdek, ularda musiqiy

dunyoqarash ham shakllanib boradi. Tinglangan musiqiy asar haqida mulohaza yurita boshlaydilar.

3. Musiqa ostida ritmik harakat bajarish faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalarda deyarli barcha musiqiy psixologik xususiyatlar shakllanadi. Chunki bu faoliyatda ular o'zлari bevosita musiqiy asarga jo'r bo'ladilar. Avval ular musiqiy asarni tinglab ko`radilar (musiqiy idrok), bu esa musiqaning ritmik ko`rinishini eslab qolishni (musiqiy xotira), qaysi asbobda jo'r bo'lsa yaxshiroq jaranglashini (musiqiy did) tanlashni taqozo etadi. Tarbiyalanuvchi bu faoliyatda mustaqil fikrlashni (musiqiy tafakkur), natijada uning musiqiy dunyoqarashi shakllanib boradi.

4. Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lismish faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Ayni vaqtida shuni aytish

joizki, musiqaning qanday faoliyat turi bo'lmasin, u shaxsning barcha psixologik jihatlari shakllanishiga yordam beradi. Shuni ta'kidlashimiz kerakki, musiqiy faoliyatlarning har biri barcha sanab o'tilgan psixologik xususiyatlarni shakllanishiga qisman bo'lsa ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Jumladan, musiqiy his - tuyg'ular, musiqiy dunyoqarash, musiqiy idrok, musiqiy tafakkur, musiqiy tasavvur va musiqiy qobiliyatni shakllantiradi. Demak, ular bolalarning umumiyligi musiqiy madaniyati, estetik dunyoqarashining shakllanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN INTERFAOL METOD:



"Bilaman, Bilishni xoxlayman, Bilib oldim" metodi (B.B.B)

1.O'quvchi talabalarning o'rganilishi rejlashtirilayotgan mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi.

2.O'quvchi talabalarning mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi

3.0'quvchi-talabalar mavzuga oid ma'lumotlar bilan batafsil tanishtiriladi.


Bilaman	Bilishni xoxlayman	Bilib oldim

Nazorat uchun savollari:



1. Musiqiy qobiliyatni rivojlantirishning shart – sharoitlari.
2. Mashg'ulotni rejalashtirish.
3. Musiqa mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rejalashtirish, loyihalashtirish
4. Qobiliyat – ko`nikma, malaka va bilim emas, balki ularni o`zlashtirish dinamikasi
5. Musiqa tinglashda rasmlardan, bastakor va kompazitor portretlaridan, xilma-xil rangdagi shakllardan foydalanish
6. Ovoz sozlash mashqlarida musiqali zinacha ko`rgazmali qurollardan, tarqatma test banklaridan va rasmlardan foydalanish;
7. Qo'shiq aytishda rasmlarga qarab qo'shiq nomini topish;

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:



Ko'zgazmali materiallar tayyorlash - (Paintda) Mavzuga doir kanida 4 dona rasm, chizma, klaster, solishtirma jadvallar, partret va boshqa ko'rinishda

9-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA MUSIQA CHOLG'U ASBOBLARIDA IJROGA O'RGATISH

Reja:

- 1. Musiqa mashg'ulotlarini tashkil qilish.*
- 2. Qo'shiqga o'rgatish uslubiyoti.*
- 3. Vokal, jamoa bo'lib ijro malakalarini o'stirish.*

Tayanch so'z va iboralar: *qo'shiq, vokal, jamoa, xor, metod, usul.*

Qo'shiq har tomonlama bolani kamolga yetaklaydi. Bolalardagi musiqiy qobilyatni rivojlantirishga hamda bolaning barkamol yetuk avlod kishisi sifatida o'sishiga yordam beradi. Bolalar bog'chasida o'rgatiladigan har bir qo'shiq mazmuni va xarakterini ongli tushunishga o'rgatish kerak bo'ladi. Avvalambor tarbiyachi biror bir she'rni yod olishni dasturdan foydalangan holda o'rganadi. Har bir tanlangan she'r bolaning qiziqishlari, bolaning ishlari, guruahlari hamda fasllarga qarab bayramlarning turlariga qarab o'rgatiladi. Qo'shiq bolaning hayotida muhim rol o'ynaydi. Qo'shiq inson tafakkurini va ongini rivojlantiradi. Biz qo'shiqni bolalarga o'rgatayotganda avval qo'shiq kuyini, keyin she'rini misrama-misra o'rgatamiz. Qo'shiq kuyini o'rgatganda to'rt xil musiqa asboblari orqali chalib yoki bo'lmasa, biror-bir jonivorning ovozlarini berib, o'rgatishimiz mumkin. She'rni esa bo'g'inlarga ajratib yoki chapaklar orqali yod oldiradi.

Musiqa mashg'ulotlarini tashkil qilish

Bolalar she'rlarni tezroq yod olishlari uchun she'r matnlarini takror aytishimiz kerak. Agar bolaning xayoli bir joyda bo'lmasa, musiqa tovushlarini va she'rni tez yod olishlari murakkab bo'ladi. MTM yoshidagi bolalarning ongi, hali rivojlanmagan bo'ladi. Shuning uchun ular kuyni sekin va uzoq muddatda yod olishadi. Bolalarga musiqa tovushlarini tushuntirib o'rgatish zarur. Bolalar tarbiyasida qo'shiqning roli katta. Qo'shiq lirikaning eng qadimgi turlaridan bo'lib, kuylashga mo'ljallangan bir necha modeli she'rdir. Qo'shiqlar kuy va ohang bilan aytildi. Ba'zan qo'shiq o'yin bilan birga ijro etiladi. Demak qo'shiq uchun she'r va kuy

kerak. Qo'shiq xalq og'zaki ijodining eng ko'p tarqalgan va ommalashib ketgan janrlaridan biridir. Qo'shiqlar xalq turmushi va mehnatning ijodiy mahsuli bo'lib, unda xalqning orzu tilaklari qalb sadolari turli-tuman hayotiy tuyg'ulari ifodalangan. Qo'shiqlar o'quvchilarning nafosatini o'rgatishga, ularni hayot va mehnatga, muhabbat, vatanparvarlik, do'stlik, qahramonlik, baynalminallik, insonparvarlik kabi oliyjanob fazilatlar ruhida tarbiyalshga yordam beradi. Qo'shiq hayot mohiyati va mazmuniga mos shakkarda tuziladi. Masalan: bolalar bog'chalarida tarixiy qo'shiqlardan foydalansak bo'ladi. Yana o'zimizning milliy musiqalarimizni aytishni ham bolalarga o'rgatishimiz mumkin ekan. Masalan: «Chitti gul», «Boychechak», «Laylak keldi» va hokazolar. Bu musiqalar mavzu jihatdan mehnat, ishqiy, lirik qahramonlik qo'shiqlariga va shu kabi boshqa turlarga bo'lishimiz mumkin. Hayot tajribalariga asoslanmagan rangbarang qo'shiqlar orqali xalqning g'am-hasrat, dushmanga nisbatan ga'zab va nafrati kabi his-tuyg'ulari izhor etiladi. Qo'shiq bolani erkalatadi, o'yinga boshlaydi, uni his qilish qobilyatini o'stiradi, fikrlashga o'rgatadi. Bola tug'ilgan kunidanoq onaning mehr to'la allasini tinglaydi. Bunda onaning bolaga bo'lgan samimi chuqur muhabbati bilan birga, farzandning jamiyatga mos, yaxshi farzandlar egasi bo'lib tarbiyanishini ta'sirli, ohangdor qo'shiq orqali ifodalaydi: Alla, bolam, alla, Jonim bolam, alla. Ikki ko'zim, alla, Shirin so'zim, alla.

Alla bolam, baxti bor,

Har narsaning vaqtি bor. Jonim bolam, alla, Shirin so'zim, alla.

Ikki ko'zim, alla,

Jonim bolam, alla,

Allada yaxshi tarbiya ko'rgan bola jamoa o'rtaida, to'y tomoshalarda, ota-onaning obro'si uning shuhrati sifatida ta'riflanadi. Alla bolani chaqaloqlik davridanoq ohanglar vositasida ezgulikka chorlaydi.

Har bir qo'shiq pedagogik maqsadlarni amalgalashishni ko'zda tutib tanlanadi. Qo'shiqlarni tanlashda davomiylik, izchillik, ilmiylik va oddiylikdan murakkabga qarab borish tamoyiliga rioxal qilinadi. Unda har bir yangi qo'shiq oldingisidan hosil etilgan vokal xor malakalarini mustahkamlaydi va ularni rivojlantiradi.

Qo'shiq o'quvchilar ruhiyatiga, badiiy-g'oyaviy mazmuni, yil, chorak mavzulari, yil fasllari, bayramlari, tarbiyalanuvchilar yoshiga mos bo'lishi kerak.

Qo'shiqga o'rgatish uslubiyoti

Qo'shiqlarni quyidagi talablarga ko'ra tanlash tavsiya etiladi:

-qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati, siyosiy g'oyaviy mazmuni, musiqiy tuzilishi va xarakterining bolalar yoshiga mosligi;

-qo'shiq matnining osonligi, badiiy yuksakligi bolalarning lug'at boyligi va ularning nutqini o'stirish uchun xizmat qilishi;

-qo'shiq ohangi, uning xarakteri, lad va tessitura, ovoz diapazoni o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi;

-qo'shiqning badiiy xususiyati va ifodaviyligi, bolalar idrokiga mosligi, garmonik tuzilishi va ohangdoshligi;

Cha-man, cha-man o-chi-lar ba-hor cho-g'i gul-lo-la

Gul-ni yax-shi ko'-ra-di kat - ta ki-chik har bo - la Ket-gan qush
- lar u-zoq-dan ya-na biz - ga qay-ta-di

Kur-tak och-gan shox-lar-da say-rab qo'-shiq ay-ta-di.

Musiqa bolaga har tomonlama yordam berib, tevarak-atrofni obrazli, emotsiyal idrok etish va bola xarakterining shakllanishiga ta'sir ko'rsatish uchun musiqa tarbiyasining maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar qo'yiladi:

1. Bolada musiqiy qobilyatni rivojlantirish.

2. Bolalarni ashula aytish va musiqaviy ritmik malakalarga o'rgatilib, ularda musiqani qabul qilishni his etish va tushinish qobilyatlarini tarbiyalash.

3. Bol ada badiiy ijodiy qobilyatlarni rivojlantirish.

Musiqiylarning rivojlanishi tufayli bolalar musiqa obrazlarini, ularning atrofidagi qo'shimcha obrazlarni yorqin his eta boshlaydilar. Bu esa, o'z navbatida ularning tevarak-atrofni bilishida, estetik baholanishni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bolalarni musiqa bilan shug'ullanishning sababi bola musiqa bilan shug'ullanmasdan, qo'shiq aytish va musiqa – ritmik harakatlar qilish ko'nikmalarini yuzaga keltirib, shu soha bilan bog'liq bilimlarni o'zlashtirishi mumkin.

MTMgacha yoshdagি bolalarga tarbiya berishning o'zaro uzviy bog'langan uchta metodi bor:

1. Ko'rgazmali metod.
2. So'zlab berish metodi.
3. Amaliy faoliyat metodi.

Ko'rgazmali metod

1. Eshitishga asoslangan ko'rgazmali metod. Bunda bolaga o'rgatish bevosita musiqa bilan bo'ladi. Musiqa eshitish maxsus mashg'ulot paytida yoki bola tomonidan qo'shiq va musiqaviy ritmik harakatlarning ijro etilishi.

2. Ko'rishga asoslangan ko'rgazmalilik. Musiqa sadolari bilan qo'shib olib boriladi. Turli o'yin, raqs, mashq harakatlaridan namunalar ko'rsatiladi.

So'zlab berish metodi

Bu metod bola ongiga mo'ljallangan bo'lib, uning faoliyatini ma'noli va mazmundor qilishga qaratiladi. Bunda pedagogning so'zi musiqa asarining dasturini tushunib olishda bolaga yordam beradi.

Uning tasavvurini jonlantiradi.

So'zlab berish metodining quyidagi usullari bor:

1. Tushuntirish – yangi asarni tinglash, qo'shiq aytish, o'yin va raqslarni qo'shib, mashq qilish davomida foydalaniladi.

2. Izohlash – izohlar ijro, raqs, mashq harakatlarini, qo'shiq aytishning turli yo'llarini ko'rsatishda qisqa va aniq shaklda beriladi.

3. Ko'rsatma berish – bolalar o'yini raqs va mashqlarni bajarayotgan paytda beriladi. Masalan: o'ng yelka tomonidan aylanish kerak, oyoq barmoqlarini pastga cho'zish kabi.

Amaliy faoliyat metodi

Bu faoliyatda bolalarga qo'shiq aytish va musiqali ritmik harakatlarni bajarishda shunday rahbarlik qilish kerakki, ular topshiriqni mumkin qadar ta'sirli va ifodali bajarishga intilsin. Bolalarni o'rgatish jarayonida yosh xususiyatlarini hisobga olib, topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirish mumkin.


Vokal, jamoa bo'lib ijro malakalarini o'stirish

Bolalar bog'chasida bolalarni musiqaga o'rgatish bosqichlari 1-bosqich: Musiqa asari bilan dastlabki tanishtirish.

Yangi qo'shiqni o'rgatish jarayonida pedagog turli musiqa asboblarida chaldirib, kuyni o'zaro taqqoslaydi va shu yo'l bilan uni xotirasida qoldiradi.

2-bosqich: Qo'shiq va musiqa ritmik harakatlarini ijro eta olish ko'nikmalarini shakllantirish.

3-bosqich: Ko'nikmalar hosil qilish va mustahkamlash. Bunda topshiriqni avtomatik ravishda bajara oladigan qo'shiq, o'yin va raqsni mustaqil ijro etadigan darajada musiqa ta'limini berish, turli metodik usullarning barchasidan foydalanishni taqozo etadi. Qo'shiq har tomonlama bolani kamolga yetaklaydi. Bolalardagi musiqiy qobilyatni rivojlantirishga hamda bolaning barkamol yetuk avlod kishisi sifatida o'sishiga yordam beradi. Bolalar bog'chasida o'rgatiladigan har bir qo'shiq mazmuni va xarakterini ongli tushunishga o'rgatish kerak bo'ladi. Avvalambor, tarbiyachi biror bir she'rni yod olishni dasturdan foydalangan holda o'rgatadi. Har bir tanlangan she'r bolaning qiziqishlari, bolaning ishlari, guruhlari hamda fasllarga qarab bayramlarning turlariga qarab o'rgatiladi.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN INTERFAOL METOD:



"Tushunchalar tahlili" metodi talaba (yoki o'quvchi)lar yakka tartibda o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar;

talaba (yoki o'quvchi)lar tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan (yoki o'zlarining) bilimlari asosida (berilgan tushunchalarni qanday tushungan bo'lalar shunday) izoh yozadilar (yakka tartibda);

o'qituvchi tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalarni o'qiydi va jamoa bilan birlgilikda har bir tushunchaga to'g'ri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali (imkonni bo'lsa) tanishtiriladi;

har bir talaba (yoki o'quvchi) to'g'ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarni aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega bo'ladilar, o'z-o'zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar.

Tayanch tushunchalar	Tushunchalar mazmuni	Qo'shimcha ma'lumotlar
Etnos	(Talabalar javobi.....)	
Mentalitet		
Kommunikativ		

Nazorat uchun savollar:



1. Oilada va bog'chada ashula aytishning asosiy vazifalari nimadan iborat?
2. Qo'shiq uchun kuy va she'rning ahamiyati qanday?
3. Bolalar tarbiyasida qo'shiqning ta'limiylar o'rni qanday?
4. Repertuar tanlashda nimalarga ahamiyat berish kerak?

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:



Mavzuga oid glossariy tayyorlash.

10-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA MASHG'ULOTLARINING TUZILISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:

1. *Maktabgacha ta'lrim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlari mazmuni.*
2. *MTT larda musiqa mashg'ulotlarinin o'ziga xos xususiyatlari.*

Tayanch so'z va iboralar: *musiqiy tarbiya, musiqa savodi, ritmik harakat, ritm, ohang, ijrochilik*

Bolalar bog'chalarida musiqa mashg'ulotlarini o'tkazishdan ko`zda tutilgan asosiy maqsad, kichkintoylar qalbida nafosatga mehr uyg'otish, ularni barkamol inson qilib tarbiyalab, voyaga yetkazishdir. Mashg'ulotlar jarayonida bolalarda milliy musiqa ohanglari yordamida zaruriy bilim va ko`nikmalar tarkib toptiriladi. Bu mashg'ulotlardagi har bir faoliyat turi bolalarning musiqiy didini rivojlantiradi. Musiqiy mashg'ulotlar oldiga qo'yilgan har qanday maqsad va vazifalami amalga oshirish, avvalo, musiqa rahbarining pedagogik tayyorgarligiga bog'liq.

Musiqiy mashg'ulotlar bog'chada o'tiladigan boshqa mashg'ulotlardan ancha farq qiladi va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

➤ musiqa mashg'ulotlari musiqa savodi va ijrochilikka doir bir necha faoliyat turlaridan (qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqiy-ritmik harakatlami bajarish, musiqa savodi, bolalar musiqa cholg'u asboblarida jo'r bo'lish) tashkil topadi;

➤ bu mashg'ulotlar boshqa mashg'ulotlardan o'zining ifoda vositalari, ya'ni «tili» bilan farq qiladi. Tasviriy san'at ranglar bilan, adabiyot so'z bilan, musiqa esa tovushlar orqali vujudga keladigan ohanglar vositasida insonga ta'sir etadi;

➤ musiqa mashg'ulotlari bolalarning ruhiyatiga, emotsiyasiga faol ta'sir ko'rsatib, ularni quvontiradi, ijodiy kechinmalar hosil qilib, ma'naviy ozuqa beradi;

➤ musiqa mashg'ulotlari jismoniy tarbiya, rasm, odobnama, atrofimizdagi olam kabi masng'ulotlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Musiqiyaning mashg'ulotlami olib borishda musiqa rahbari kichkintoylaming yoshi va qiziqishlarini e'tiborga olishi lozim. Mashg'ulotning tuzilishi o`quv materiallarining mazmunidan kelib chiqishi kerak. Bunda asarlarning ta'limi, tarbiyaviy ahamiyati, badiiy saviyasi, bolalar yoshiga mosligining hisobga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa mashg'ulotlarining tuzilishi quyidagi faoliyat turlaridan iborat:

1. Musiqliy-ritmik harakatlami bajarish.
2. Musiqa tinglash.
3. Musiqa savodi.
4. Qo'shiq kuylash.
5. Bolalar musiqa cholg'u asboblarida jo'r bo'lish.

Endi har bir faoliyat turiga qisqacha to'xtalib o'tamiz:

➤ musiqliy-ritmik harakatlar. Milliy ruhni o'zida aks ettirgan xalq qo'shiqlari, laparlari bolalarning olamni badiiy his etishlariga, zavqlanishlariga yordam beradi. Musiqliy obrazlarga muvofi q turh xarakterdagi harakat va raqslarni, turh obrazlami tasvirlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ritmik harakatlar musiqliy qobiliyatni shakkantirish va rivojlanishda juda muhimdir. Musiqliy-ritmik harakatlar bolalar ruhiyatiga musiqliy asaming mazmuni va kayfiyatini singdiradi, bu bolalarning jismoniy sog'lom bo'lishlariga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi;

➤ musiqa tinglash - har bir bolaning musiqa tingiash madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bola, avvalo, musiqani idrok etib, so'ngra unga mos harakatlami bajaradi;

➤ musiqa savodi. Musiqa mashg'ulotlarida bolalar qo'shiq kuylash, musiqa tingiash bilan birga qo'shiqlar, musiqliy asarlarning tuzilishi, tempi, xarakteri, ladi, kuyi, ritmi, tovush balandligini ham ongli ravishda anglashlari lozim. Bu ulaming aqliy salohiyati, musiqliy uquvi, xotirasi, nutqi, ongi va bilimini oshiradi;

➤ qo'shiq kuylash. Qo'shiq kuylash jarayonida bolalaming nutqi, musiqiy uquvi, musiqiy qobiliyati, xotirasi rivojlanadi. Jamoa bo'lib qo'shiq kuylash bolalami do'stlikka chorlaydi, ulaming o'zaro hurmat, tabiatga va Ona-Vatanga muhabbat kabi tuyg'ularini tarbiyalaydi;

➤ bolalar musiqiy cholg'u asboblarida jo'r bo'lsh - musiqa mashg'ulotlarida eng qiziqarli, barcha bolalar sevib qatnashadigan faoliyat turidir. Bolalar musiqa cholg'u asboblari orqali jonh ijro har qanday bolani o'ziga jalb etadi. Ulaming musiqaga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi, ritm tuyg'usi, musiqiy uquvi, xotirasini mustahkamlaydi. Kichkintoylarda ajablanish, zavqlanish, hayratlanish, quvonish kabi ruhiy holatlami vujudga keltiradi.

Musiqa mashg'ulotlarining tarbiyaviv vazifa va maqsadlari	Musiqa mashg'ulotlarining ta'limiy vazifa va maqsadlari
Bolalarda harakat uyg'unligini oshirish, ritmga mos qadam tashlash, yengil yugurish, oyoq to'pillatish va qo'llar bilan mashqlar bajarishga o'rgatish.	Bolalaming musiqiy-ritmik ko'nikmalarini rivojlantirish.
Asarni mazmuniga ko'ra qismlarga ajrata olish hamda harakatda ifodalash malakalarini oshirish	Musiqa ohangini his etish va musiqa tingiash madaniyatini shakllantirish.
Quvnoq va g'amgin musiqa ohanglarini farqlashga, ketmaket tovushlami kuylashga o'rgatish.	Bolalarda musiqani his etish, kuylash va tingiash qobiliyatlarini rivojlantirish
Davr bilan hamohang faslga mos qo'shiqlami kuylashga o'rgatish.	Musiqa jo'rligida ovozning sof va jarangdorligini rivojlantirish.
O'zbek xalq raqs elemenUarini musiqa jo'rligida o'rgatish va ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalash	Raqs san'atiga bo'lgan qiziqishni oshirish
Bolalami milliy cholg u asboblari bilan tanishtirish. Zarbli va torii asboblarda ijroga o'rgatish.	O'zbek milliy cholg'ulariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish
O'yin davomida harakat ijodkorligini oshirish.	Bolalar faolligi hamda jamoaviyligini oshirish.

Bu mashg'ulotlar o'quv mazmunidan kelib chiqib, dastur asosida tuzilishi lozim. Bunda musiqiy asarlarning badiiy

mazmuni, bolalar yoshiga mosligi, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanilganligi hisohga olinadi.

Musiqa mashg'ulotlari turli guruhlarda yosh va aqliy ko'rsatkichlar mutanosibligiga ko'ra ma'lum vaqt davom etishi talab qilinadi (5-chizma).



Kichik guruh bolalarning diqqati uncha barqaror bo'limganligi tufayli ular yorqin yangraydigan kichik-kichik musiqa asarlarini idrok etishga qobil bo'ladilar. Ular ayniqsa, kichik qo'shiqlarni yaxshi idrok etadilar. Chunki, so'z va ohang birligi musiqa mazmunini oson idrok etishga yordam beradi. Xususan, tarbiyachi ashula aytganda uning tanish ovozi va ifodalash intonatsiya mimikasi va ishoralari bolalarni maftun etadi. Shu vaqtida bolalarda hosil bo'ladigan zavqlanish, ajablanish, quvonish holatlarini kuzarish mumkin. Ammo bu holatlar tez uyg'onib, tez so'nadi.¹³

4 – 5 yoshli bolalarda diqqat e'tiborning bir muncha emotsiyal turg'unligi vujudga keladi. Ular raqs tipidagi kuylarni jonli, ba'zan jo'shqin holatda idrok etadilar. Yengil, kuychan musiqlarni birmuncha xotirjam idrok etadilar. Bu yoshdagi bolalarda musiqa mazmuni va xarakterini bilishga ayniqsa, unda nima haqida hikoya etilishini bilishga qiziqish paydo bo'ladi. Shuning uchun ularda musiqa xotirasi ancha faol rivojlana borib, tinglagan musiqa haqida o'z taassurotlarini hikoya qilib berish ishtiyoqi paydo bo'ladi

¹³ N. Yusupova "Musiqa savodi, metodikasi va ritmika" o'quv qo'llanma, «Musiqa» nashriyoti Toshkent 2010, 34-b

5 – 6 yoshli bolalarda esa erkin, ixtiyoriy tarzdagi diqqat e'tibor shakllanib, musiqani diqqatni yig'ib tinglash, uning ayrim detallarini anglab olish qobilyati rivojlangan bo'ladi. Ularda musiqaga qiziqish ko'proq sevimli asarlarni takror-takror tinglash jarayonini yaxshi rivojlanadi. Ular musiqadagi umumiy kayfiyatni yaxshi sezib, asardai badiiy obrazning rivojlanib borishini kuzatishni o'rganib boradilar. Yangi asar bilan ilk bor tanishtirishga tarbiyachining qisqa va qiziqarli tushuntiruv so'zi katta rol o'ynaydi. Cholg'u kuylari xarakteri va badiiy mazmuni haqida bolalarga tushuncha berilsa, ular asarni yaxshi idrok etadilar. Asarni 2 – 3 mashg'ulot davomida takroran tinglash shart. Chunki, har bir tinglashda bola uchun asarning yangi – yangi qirralari namoyon bo'ladi va asarga nisbatan ularning muhabbati oshib boradi. Bog'chaning tayyorlov guruhlarida bola o'z yoshiga muvofiq musiqa asarini to'la idrok etishga qodir bo'ladi. Bog'chada olingan bilim zahirasida malaka va ko'nikmasi, musiqa turlari va uning xarakteri farqiga borishga yordam beradi. Shunday qilib, dasturda ko'zda tutilgan va bolaning musiqa madaniyati rivojlanishida kelajakda asosiy rol o'ynaydigan uch faktor amalgalashadi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN INTERFAOL METOD:




Insert usuli

«V»	« - »	« + »	« ? »
«ha» - o'qiganlaringiz dan aniq bilgan yoki bilaman deb o'ylagan ma'lumot	«manfiy» - o'qiganlaringiz, bilganlaringizga qaramaqarashi ma'lumot	«musbat» - o'qiganlaringiz orasida siz uchun yangi bo'lgan ma'lumot	«savol» - o'qiganlaringizdan siz uchun tushunarli bo'lмаган yoki shu haqda ko'proq narsa bilishni istagan ma'lumot


2- topshiriq. Uzluksiz ta'lim tizimi va uning asosiy turlarini klaster metodidan foydalangan holda yoritib bering.

1. Topshiriqni diqqat bilan o'qib chiqing.

2. Tarmoqlashtirish jarayonida paydo bo'lgan har bir fikrni yozing.



Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:



1. O'zbekistonda makatabgacha ta'limning bugungi holati haqida videorolik tayyorlang.

11-MAVZU: ESTETIK TARBIYANING MAZMUNI VA MOHIYATI

Reja:

1. Estetik (nafosat) tarbiyasining mazmuni va vazifalari.
2. MTTlarda estetik (nafosat) tarbiya vositalari.
3. Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarning estetik(nafosat) rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar.

Tayanch so'z va iboralar: *estetik did, nafosat tarbiyasi, badiiy ijod, estetik hissiyot, estetik ehtiyoj, estetik qiziqish.*

Insoniyat go'zallikni butun rivojlanish tarixi mobaynida egallaydi va yaratadi. Go'zallik madaniy tarixiy tajribaning alohida bir qismi hisoblanadi. Uning ob'yekti mavjudligi estetik(nafosat) tarbiya nazariyasini, estetik tajribani yosh avlodga maqsadga muvofiq tarzda muntazam berish va shu orqali uni estetik rivojlantirishni ta'minlashning faol usullarini ishlab chiqishga yo'naltiradi.

Estetik(nafosat) tarbiyaning mazmuni bolaning estetik faoliyati orqali amalga oshiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni estetik hissiyot, qiziqish, estetik ehtiyoj, xohish, estetik did va mulohazalarni tarbiyalashni o'z ichiga oladi.

Bular quyidagi yo'llar asosida amalga oshiriladi:

- o'yin, mehnat jarayonida maishiy faoliyatda ijtimoiy va tabiat voqealari bilan tanishtirib borish orqali tevarak-atrofdagi borliqqa nisbatan estetik munosabatni tarbiyalash;

- san'at asarlari ya'ni badiiy tarbiya vositasida estetik tarbiya berish.

Bunda estetik(nafosat) tarbiya madaniyatini egallashning asosiy vositasi ta'lif va tarbiyadir. Estetik tarbiya juda keng tushuncha bo'lib, unga tabiat, mehnat, ijtimoiy hayot, turmush va san'atga estetik munosabatni bildiradi.

Estetik tarbiya (nafosat tarbiyasi) - bu bolalarga voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, insonlarning ijtimoiy va mehnat munosabatlardagi, turmushdagi go'zallikni idrok etish hamda to'g'ri tushunishga o'rnatish, ularning badiiy didini o'stirish,

ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotga go'zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashni bildiradi.

Estetik (nafosat) tarbiyaning vazifalari tarbiyaning umumiylaridan kelib chiqib, bolalarning yosh imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Estetik tarbiya oldida quyidagi vazifalar turadi:

1. Bolalarning xayotdagi, voqelikdagi go'zallikni tushunishga, xayotda kishilar xatti-xarakatida bolalarga sevishga tabiatga va turmushda, yaratuvchilik mexnatida, ijtimoiy tushunarli bo'lgan go'zalliklarni ko'ra bilishga o'rgatish. Ularda estetik xis, estetik did estetik munosabatni tarbiyalash kuchlari etganiga xayotda go'zallik yaratishda faol ishtirok etish istagini tarbiyalash.

Estetik tarbiya mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Mehnat faoliyati bolalarni quvontiradi, ular biron ta foydali ishni bajarayotib, biron kerakli narsani yasayotib, o'zlarining kuch va imkoniyatlari o'sib borayotganini sezadilar. «Go'zallik quvonchisiz mehnat quvonchi bo'lmaydi,— deb yozgan edi V. A. Suxomlinskiy,— ammo bularda gp'zallik bola ega bo'layotgan narsa emas, balki birinchi navbatda u yaratayotgan narsadir. Mehnat quvonchi — bu turmush quvonchidir»¹⁴.

2. Bolalarni badiiy ijodining turli jarayonlarida yaratilgan san'at asarlarini ko'rish, tushunish va sevishga o'rgatish orqali ularda estetik ong qirallarini shakllantirish, go'zallikni xunukdan, g'amginlikni xursandchilikdan farqlay olish: ranglarni shakl, tovushlarni bir-biridan ajrata olish kabi sensor etalonlar bilan tanishtirish.

3. Bolani san'atning turli sohalari: ashula, o'yin, she'r o'qish, qayta hikoya qilish, ijodiy faoliyat kabilarda yanada faolroq xarakat qilish va o'zini ko'rsata bilishga o'rgatib boriladi. Bular orqali bolalarda badiiy ijodiy qobiliyatni, xayolni o'stirish, fazoviy va rang munosabatlarini, mo'ljalga olish, ko'rish xotirasini, qo'llarni chaqqon xarakat qildira olish malakasi, jo'shqin kayfiyatni ko'rsatuvchi hissiy sezgirlikni rivojlantirish.

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalar asosida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning har bir yosh guruuhlarida estetik tarbiya

¹⁴ Suxomlinskiy V.A. Bolalarga joni fido. Tarlangan asarlar. T. 1.231- bet.

berishning mazmuni va usullari ishlab chiqiladi. Estetik tarbiyaning mazmuni bolaning estetik faoliyati orqali amalga oshiriladigan bilim malaka va ko`nikmalarni estetik did va qarashlarni tarbiyalashni o`z ichiga oladi.

Bular quyidagicha amalga oshiriladi.

-o`yin, mehnat jarayonida, maishiy faoliyatda ijtimoiy va tabiat voqealari bilan tanishtirib borish orqali tevarak-atrofdagi borliqqa nisbatan estetik munosabatni tarbiyalash.

-sa'nat asarlari vositasida estetik tarbiya berish.

Pedagogika fanida bolalarni chizishga, loy va plastilindan narsalar yasashga, ashula aytishga va shu kabilarga o`rgatish metodikasi mukammal ishlab chiqilgan. Bola ijodining mazmuniga ta'sir ko'rsatadigan asosiy vosita bolani xayojonlantiradigan, uning xayol va hislariga ta'sir etuvchi narsa tevarak-atrofdagi yorqin, jonli ta'surotlardir. Badiiy faoliyatning hamma turlarida ham ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish estetik idrok va hislarni rivojlantirish bilan bog`liq holda olib boriladi. Agar bola qishki tabiatning go`zalligini his eta olsa, u albatta shu go`zallikni rasmda, hikoyada aks ettiradi. Agar bola badiiy adabiyotlardagi obrazlarni idrok eta olsa, undagi qahramonlar bola tushunchasiga yaqinroq bo`lsa, bunday kitoblar bolalar o`yini uchun rasm chizish va loydan narsalar yasash uchun manba bo`lib xizmat qiladi.

Agar bolalar tilning go`zalligini she'rning ritmini, ohangdorligini his eta olsalar o`zları ham kichkina she'rlar to`qib, qofiyalar tanlashga harakat qiladilar.

Bolalardagi fikrlesh qobiliyatini rivojlantirish uchun badiiy qobiliyatning hamma turlarida ham xayolning ma'lum maqsad asosida yo`naltirilgan bo`lishi ta'minlanadi. Bolalarning mustaqil ijodiy faoliyatları tadbirlarda ko`ngil ochish kechalarida, ekskursiya va sayrlarda, har xil o`yinlarda amalga oshiriladi. Bolalar o`zlarining badiiy ijodiy mahoratlarini, qobiliyatlarini bemalol erkin namoyish etishlari uchun kerakli shart-sharoitni yaratib berish lozim. Bolalarning bu xildagi mustaqil faoliyatlariga raxbarlik qilishda tarbiyachi yakka tartibda yondashish lozim. Shu orqali tarbiyachi bolalarning o`ziga xos qobiliyat va imkoniyatlarini o`rganadi.

Bolalar orasida qurishga, ashula aytishga, rasm chizishga, musiqaga havas juda erta uyg'onadi. Lekin bu hali bolalarning keljakda qanday mutaxassis bo'lishini aniqlash xuquqini bermaydi. Ammo tarbiyachilar va ota-onalar bolalarning qiziqishlariga diqqat bilan qarashlari kerak. Ular bolani diqqat bilan kuzatayotib, unda musiqa, rasm, qurish-yasash va boshqa yo'nalishlardagi iste'dodning ilk kurtaklarini ko'rishlari zarur. Boladagi qobiliyatlarning shakllanishi kattalarning mana shu kurtaklarni avaylab, o'stirishlariga, ularga to'g'ri rahbarlik qilishlariga bog'liq.

Pedagogika tizimiga xos bo'lgan estetika va etikani birgina oilada, mtlarda kichkintoylarni tarbiyalashda bemalol qo'llash mumkin. Biroq haqiqiy turmush estetikasini yaratish uchun tarbiyachi va ota-onalarning yuqori madaniyatli, yaxshi xulqli, xushmuomala didli bo'lishlari talab etiladi. Estetik tarbiya tamoyillari quydagilardan iborat:

Yosh avlodni estetik tarbiyalashdagi ijtimoiy yo'nalish tamoyili muhim ahamiyatga egadir. Bu jamiyatdagi butun tarbiyaviy ishning mafkuraviy yo'nalishini ifodalaydi. Unda jamiyatni insonparvarlashtirishdan iborat maqsadimiz tarbiya jarayonida hal etiladigan aniq vazifalarni ham belgilab berish kerakligi haqida ta'kidlanadi. Bu tamoyillar asosida estetik tarbiya, uning vositalari ijtimoiy faol shaxsni tarkib toptirishga xizmat qilishi lozim. Estetik tarbiyaning muhim vositalaridan biri sa'natdir. U insonning dunyoqarashini, uning axloqiy e'tiqodi, ma'naviy qarashlarini rivojlantiradi. Shu sababli pedagoglar bolalar uchun jamiyatimiz hayotining muhim xodisalarini aks ettiradigan, bolalarni g'oyaviy tarbiyalaydigan hamda ularga estetik ta'sir ko'rsatadigan san'at asarlarini tanlabgina qolmay, balki bolalarning estetik faoliyatini bog'lashlari ham lozim. Yosh avlodni estetik tarbiyalashda ilg'or madaniyat elementlarining izchillik tamoyili xalqning estetik madaniyati, zamonaviy san'atning o'tmishdagi eng yaxshi an'analar va estetik tarbiyaning ilg'or nazariyalarini bilan aloqasini nazarda tutadi.

Komplekslik tamoyili. Bu tamoyil estetik tarbiya tizimida katta ahamiyatga egadir. Bolaga ta'sir etish jarayonida san'atning har xil turlari o'zaro ta'sirda bo'ladi. Bolalarni san'atning har xil

turlari bilan tanishtirishda mustahkam aloqalarni amalga oshirish zarurligi shunga asoslanadi. Ulardan har biri boshqasining ta'sirini o'z obrazlarining xususiyatlari va o'ziga xosligi bilan mustahkamlaydi. Estetik tarbiyaning istalgan turi tarkibiy qismiga aylanishi kerak.

Umumiylig va majburiylik tamoyili faqatgina yorqin foydalangan qobiliyatlarga ega bo'lganlarinigina emas, balki butun aholini barcha yosh bosqichlarida estetik tarbiyalash va ularga badiiy ta'lif berishni talab qiladi. Hozirda davlatimiz tomonidan hal etilayotgan yosh avlodga umumiy o'rta va hunar ta'limi berish vazifasi estetik tarbiyani sifat jihatidan yuqori darajaga ko'tarish zarurligini talab qiladi, chunki estetik tarbiya ta'limiy, mehnat, axloqiy vazifalarni yanada muvaffaqiyatliroq hal etishda ko'mak beradi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN INTERFAOL METOD:



«Yelpig'ich» texnologiyasi

Bu texnologiya murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha biryo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobjiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

«Yelpig'ich» texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muxokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qantashuvchining guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

«Yelpig'ich» texnologiyasi mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:


- boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirish;

- mavzuni o'rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;

- yakunlash bosqichida: olingen bilimlarni tartibga solish.

Bu texnologiya talabalarga tanqidiy, tahliliy va ainq mantiqiy fikrlashlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, shuningdek, uni himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

Mustaqil ta'lif uchun topshiriq:



1.(Wordda) Mavzuga doir kamida 4ta adabiyot va internet saytlardan foydalangan holda kamida 12ta varoq, 14 shriftda (The News Roman) 1 intervalda yoziladi. Kamida 1ta asosiy adabiyotlardan foydalanish majburiy.

12-MAVZU: MAK TABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR Ning ESTETIK RIVOJLANISHIDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR

Reja:

- 1. Maktabgacha yoshdagи bolalarning estetik rivojlanishi.**
- 2. Maktabgacha yoshdagи bolalarni estetik tarbiyalash vazifalari.**

Shaxsnинг estetik xususiyatlari ular ijtimoiy muhit va faol pedagogik rahbarlik sharoitida ilk yoshdan boshlab rivojlanib boradi. Estetik rivojlanish jarayonida bolalarni estetik idrok, tafakkur, tasavvur, tushunchalar, mulohazalar, xohish-istik, histuyg'ular, badiiy va ijodiy qobiliyatlarini tarkib toptirish amalga oshiriladi. Bolalarning estetik rivojlanishi ularning kundalik jo'shqin hayoti bilan uzviy bog'liqdir.

Kichik yoshdagи bolalarning estetik tarbiyasi to'g'risida emas, balki ularning hissiy va sensor rivojlanishi to'g'risida o'ylash kerak. Bola yaltiroq bo'yoqdan xursand bo'ladi, bir maromdagи tovush va harakatlardan roxatlanadi. Bola hayotining birinchi yilda ularning sensor-hissiy qabul qilish istagi takomillashib boradi. Bu yoshdagи bolada hissiy kechinmalarning shakllanishida kattalar asosiy o'rinni egallaydi. Kattalarning chiroyli ohangda gapirishlari bolaga buyumlarning u yoki bu xususiyatlariga ijobiy munosabatda bo'lishlariga ko'mak beradi. Yoki, aksincha, kattalarning ogohlantiruvchi ovozi, ular yuzidagi tundlik alomati yoki qovogini uyib qarashlari, jerkib, siltab tashlashlari va boshqalar bolalarda shu buyumga nisbatan salbiy munosabatni shakllantiradi.

Bola hayotining ikkinchi yilda uning idroki asta-sekin takomillashib boradi. Bolalar endi faqat borliq xususiyatlarini emas, shu bilan birga san'at asarlaridagi ba'zi estetik ifoda vositalarini ham idrok eta boshlaydilar. Bu yoshdagи bolalarda musiqaning jo'shqin va g'amgin kuylariga, ularning baland va sokin ohangiga, ohista va tezligiga javob ta'siri paydo bo'ladi.

O'rta guruhga kelganda bolalarning estetik rivojlanishida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Ularning estetik idroki ancha real

va tabaqalashgan bo'lib qoladi. Lekin shunga qaramay, u qisqa-qisqa bo'lib, bolaning shaxsiy tajribasi va xohishiga bog'liq bo'ladi.

Bu yoshdagi bolalar badiiy obrazni eng oddiy estetik baholay oladilar, ba'zi bir estetik vositalarni to'liq anglaydigan, tasvir mazmunini tushunadigan bo'lib qoladilar. Bolalarda go'zallikni his qilish jarayoni aniq ifodalangan, ta'sirli, faol tarzda bo'ladi. Bu ayniqsa, ular qo'g'irchoq teatri, kino, multfilm, spektakllarni tomosha qilganlarida aniq bilinadi. Bolalar asar qahramonlarining harakatiga qo'shilib takrorlaydilar, ularda ma'lum vaziyatda o'zini qanday tutishni aytib turadilar, o'zlarini ular bilan birga o'ynayotgandek his etadilar. Bu yoshdagi bolalar tanish bo'lgan san'at asarlarini yangi asarlar bilan taqqoslaydilar va ba'zi bir xulosalar chiqaradilar.

Bolalarda tasvirda badiiy, musiqa, teatrlashtirish kabi barcha faoliyatlarda berilgan vazifani bajarishda mustaqillik, ijodkorlikka intilish namoyon bo'la boshlaydi. Bolalar raqsga tushganda, ashula aytganda, sahnalashtirish o'yinlarida obrazlarning ifodali bo'lishiga ongli ravishda intiladilar.


Katta guruuning oxirlariga kelganda ular musiqani, badiiy asarlarni diqqat bilan tinglaydilar, tasviriy san'at asarlarini kuzatadilar, ulardagи ijobiy qahramonlarning xatti-harakatlaridan xursand bo'ladilar, yomonlikni qoralaydilar. Bolada musiqaviy, shoirona tinglash qobiliyati rivojlanadi. Ularda ayrim musiqa janrlariga, adabiy va tasviriy san'at asarlariga nisbatan barqaror qiziqish paydo bo'ladi.

Bolalarda badiiy-ijodiy qobiliyat rivojlana boshlaydi, ular mustaqil ravishda topishmoqlar, ashulalar, ertaklar, she'rlar to'qiydilar va aytadilar, applikatsiya va rasmlar ishlaydilar. Ular o'zlarining va o'rtoqlarining ishlarini baholashga harakat qiladilar.

San'at asarlarini kuzatishda, musiqa asarlarini eshitishda, she'rlarni o'qiganlarida ularning eng nozik tomonlarini ko'ra biladilar, seza boshlaydilar. Badiiy asarlardagi ba'zi she'riy obrazlarni xotiralarida saqlaydilar va o'z nutqlarida ishlatadilar. Tevarak-atrofdagi go'zallikka, san'atga, musiqaga, badiiy va o'yin faoliyatining har xil turlariga nisbatan ularda qiziqish shakllana boshlaydi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim yoshi davri tarbiyaviy ta'sir orqali bolalarni estetik ruhda tarbiyalash maqsadlaridan va uning bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyatidan kelib chiqib, estetik rivojlanishlarini takomillashtirishdir.

Nazorat uchun savollar:



1. Estetik va badiiy tarbiya tushunchalarini mazmunini ochib bering.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash vazifalarini asoslab bering.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash vazifalari qay mazmunda hal etilishini ochib bering.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash vositalaridan har tomonlama foydalanish zarurligini isbotlab bering.
5. Bolalarda estetik tarbiyani rivojlantirish. Bolalar bog'chasida estetik tarbiyaning ahamiyati.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN INTERFAOL METOD:



«Skarabey» texnologiyasi

«Skarabey» interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'lilik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va savyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va

tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

«Skarabey» texnologiyasi har tomonlama bo'lib, undan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi:

-boshida – o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida («Aqliy hujum»);

-mavzuni o'rganish jarayonida – uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarini ko'rsatish;

-oxirida – olingen bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.

«Skarabey» texnologiyasi o'quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingen holda ishlab chiqilgan. U o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega.

Mazkur texnologiyaning ayrim afzallikkleri sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko'rsatish mumkin.

«Skarabey» alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o'quv jamoalarida qo'llanishi mumkin.

Ta'limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdag'i qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:


- o'zgalar fikriga hurmat;
- jamoa bilan ishslash mahorati;
- faollik;
- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashish;
- imkoniyatlarini ko'rsatish ehtiyoji;
- o'z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
- «men»ligini ifodalashga imkon beradi;
- o'z faoliyati natijalariga mas'ullik va qiziqish uyg'otadi.

Asosiy tushunchalari quyidagilar:

Assotsiatsiya – mantiqiy bog'liqlik bo'lib, sezgilar, tasavvurlar, idrok qilish, g'oyalalar va boshqalar orasida hosil qilinuvchi mantiqiy aloqadir.

Zanjirlash (muayyan tartib) – ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblash.

Mustaqil ta'lif uchun topshiriq:



1. "Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash vositalari" mavzusida taqdimot tayyorlash – (power pointda), Kamida 3ta adabiyot va internet saytlardan foydalangan holda kamida 15ta varoq, ichida mavzuga doir kamida 10ta rasm. Kamida 1ta asosiy adabiyotlardan foydalanish majburiy.

13-MAVZU: TARBIYALANUVCHILARNI ESTETIK TARBIYALASH OMILLARI VA VOSITALARI

Reja:

- 1.Maktabgacha yoshdagи bolalarnи estetik tarbiyalash omillari.
- 2.Tarbiyalanuvchilarnи estetik tarbiyalash vositalari.

Tayanch so'zlar va iboralar: grafika, rangtasvir, estetika, estetik did, diafilm, estetik tarbiya.

Bolalarda go'zallik haqidagi bilimlar atrof voqelikni uning butun xilma-xilligida, shuningdek go'zallik eng ko'p jamlangan holda aks etadigan san`atni estetik shakllantirish jarayonida rivojlantiriladi. Hayotning turli-tumanligi, san`at turlari va janrlarning xilma-xilligiga sabab bo'ladi. MTTlarda bolalarning har biri o'z janriga ega bo'lgan grafika, rangtasvir, xaykaltaroshlik, manzarali amaliy san`at, adabiyot va musiqa bilan tanishadi.

Maktabgacha yoshdagи bolalar shuningdek bizni o'rab turgan dunyoning eng muhim estetik tomonlari va xususiyatlarini ham egallaydilar. Maktabgacha yoshdagи davrida bolalarga musiqa, vokal va cholg'u, undagi mavzuning xilma-xilligi, ba'zi asarlarning janri, tuzilishi, musiqali ifoda vositalari, musiqa asboblari haqida ham bilim beriladi. Bolalar xalq qo'shiqlari va raqslari, klassik va zamonaviy musiqa asarlari bilan ham tanishadilar.

MTTni o'rab turgan go'zallik muhiti bolalarning har tomonlama kamol topishiga, estetik didlarining rivojlanishiga yordam beradi. Estetik tarbiyaning asosiy vositalari quyidagilardir:

- bolalarni o'rab turgan muhit, tabiat, turmush estetikasi;
- tevarak-atrofdan olingan taassurotlar;
- tabiat, san`at asarlari;
- bolalarning tasviriy faoliyatları;
- bayramlar, ko'ngil ochar tadbirlar;
- ma'lum bir maqsadga qaratilgan va rejali ravishda amalga oshiriladigan ta'lim.

Pedagogika tizimiga xos bo'lgan estetika va etikaning birligini oilada va MTTlarda bolalarni tarbiyalashda bemalol qo'llash mumkin. Ammo haqiqiy turmush estetikasini yaratish uchun tarbiyachi va ota-onalarning yuqori madaniyatli, yaxshi xulqli, xushmuomala, badiiy didli bo'lislari ham talab etiladi.

Bolalarni o'rabi turadigan chiroyli narsalarning o'zi bolaga hech narsa bermaydi, shuning uchun bolalarni ularni ko'rishga, ularning go'zalligini his qilishga, qadrlashga, baholay bilishga o'rgatish kerak. Tarbiyachi bolalarning diqqatini polning tozaligiga, yaxshilab joy-joyiga qo'yilgan jihozga, chiroyi idishlarga, gullarga qaratadi. Har bir yangi narsa, chiroyi bezak bolalar bilan birga ko'rib chiqiladi. Eng asosiysi, hamma narsalarni bolalarning estetik zavqni uyg'ota oladigan qilib ko'rsatish lozim.

Bolalarga estetik zavq berish uchun ularga kuzatilayotgan narsaning mazmuni va ahamiyatini tushuntirish zarur. Bolalarning his-tuyg'ularining rivojlanishi uchun bu hali yetarli emas. Eng muhimi, bu yerda kattalar tomonidan ko'rsatiladigan ibrat-namunadir. Tarbiyachining o'zi bu go'zallikdan zavqlansa, ortiqcha so'zlarsiz qiziqish uyg'ota oladi va bolalarda estetik kechinmalarni paydo qila oladi.

Bolalar tarbiyachidan «Nima uchun oltin kuz deyiladi?» - deb savol berishadi, tarbiyachi istirohat bog'iga borib tabiatni kuzatishlarini aytadi: «Sayr qilib daraxtlarni, barglarni, yo'lkalarni kuzatamiz». Bog'ning eng xushmanzara va sehrli joyiga kelganda bolalar to'xtab, jim atrofni kuzatishadi: «Nima uchun oltin kuz deb atalishini tushundik. Chunki barglar tilla rangga o'xshaydi. ana qizil barglar», deyishadi ular his-hayajon bilan. Shamol bo'lishi bilan barglar yerga tushib, yo'lkalar gilamga o'xshaydi.

Bolalar MTT atrofiga sayrga chiqishadi va tarbiyachi bolalarga "Biz hozir sizlar bilan MTT atrofini aylanamiz. Sizlar diqqat bilan kuzatinglar, kim qanday chiroyli narsa ko'rsa, sayrdan keyin so'zlab beradi" deb aytadi.

Shuni ta'kidlash joizki, ajoyibot yonimizdadir, bolalarni shu ajoyibotni ko'ra bilishga, undan hayratlana olishga va bahramand bo'lislarga o'rgatish lozim. Tabiatning bunday go'zalligini, ajoyibligini inson hayot go'zalligiga, san'at go'zalligi va ajoyibotiga aylantiradi.

Tabiat estetik tarbiyaning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tevarak-atrofdagi tabiat go'zalligi hatto har qanday bolani ham quvontiradi. Uning tuyg'ular va hayollarda saqlangan go'zalligi bolalikda ayniqsa chuqur idrok qilinadi, inson bularni butun hayoti davomida xotirasida saqlaydi.

Sayr, ekskursiya vaqtida tarbiyachi bolalarning diqqat-e'tiborini tabiatning rang-barangligiga, uning o'zgarishi va uyg'unligiga qaratadi, tabiat hodisalariga qiziqish uyg'otadi, unga muhabbat va ehtiyyotkorlik munosabatini shakllantiradi, asrab-avaylashga o'rgatadi. Bularning hammasi bolalarning estetik tuyg'ularini tarbiyalaydi, ular kattalarning mehnat natijalarini yaqqol ko'rib, atrofdagi go'zallik inson mehnati tufayli yuzaga kelishiga ishonch hosil qiladilar.

Tarbiyachi bolalarga tabiat olamini kashf etadi, bolalaning g'unchadagi bir tomchi shabnamda ham, maysalarning biri ikkinchisi bilan qo'shilib ketishida ham, oqshom bo'yoqlarida ham tabiat go'zalligini his qilishlariga yordam beradi.

MTTda tabiat burchagi tashkil etiladi. Unda hayvon, parranda, qushlar va o'simliklarni kuzatish va parvarish qilish bolalarda estetik idrokni, ularga nisbatan to'g'ri munosabatni, go'zallik yaratish xohishini shakllantiradi va qizg'in faoliyatga undaydi. Ayniqsa, yilning yoz fasllarida polizda, gulzorda, MTT maydonchasida mehnat qilishda ham bolalar estetik zavq oladilar. Kuzda o'z mehnatining mevasini yeish bolaga alohida estetik huzur bag'ishlaydi.

MTTda o'tkaziladigan tadbirlar bolalarga chuqur ta'sir etadi. Tadbirning tarbiyaviy o'ziga xosligi uning g'oyaviy va estetik mazmun-mohiyati san'atning barcha ko'rinishlari bilan bog'liq bo'lishidadir. Har qanday bayram o'z g'oyasiga ega bo'lib, u bolalarga yorqin obrazlar asosida ta'sir ko'rsatadi.

Estetik tarbiyaning vositalaridan yana biri qo'g'irchoq teatrdir. Uning nihoyatda kuchli ta'sir etishi uning soddaligi, odatdan tashqari jo'shqinligi va qo'g'irchoq-o'yinchoqligi, shuningdek, badiiy so'z, musiqa, ashula, raqs, tasviriylar san'at kabi tarkibiy qismalarning uzviy jipslashib ketganligi bilan kishi ko'zi o'ngida yaqqol namoyon bo'lishidadir. Qo'g'irchoq teatrini bolalar nafaqat tomosha qilishi, balki unda o'zlari ham qatnashishlari

mumkin. Bu bolaning dramatik qobiliyatini, tashabbuskorligini, nutqini o'stiradi, hayotiga quvonch olb kiradi.

Diafilm ko'rsatish bolalarning estetik didlarini o'stirishda muhim vositalardan biri hisoblanadi. Diafilmlar ko'rsatishni adabiy matn o'qib berish bilan qo'shib olib borish bolaga filmning mazmunini yanada his-hayajon bilan to'g'riroq va ta'sirchanroq tushunishga yordam beradi.

Bundan tashqari, qo'g'irchoq teatri, soya teatri ko'rsatish ham bolalarni estetik tomondan tarbiyalashda kata ahamiyat kasb etadi. Bu o'yinchoq, qo'g'irchoqlarni tarbiyachi qo'li yordamida harakatga keltirib, badiiy so'zlar bilan qo'shib olib boradi va ular bolaning ko'z o'ngida jonlanadi, boshqacha tus oladi va bolalar ertak mazmunini chuqur idrok eta boshlaydilar.

Badiiy didning shakllanishida kitoblar alohida rol o'ynaydi. Kitoblar nafaqat bolalarning yoshiba mos bo'lishi, balki shu bilan birga bayon qilish usuli hamda bezatilishi ham o'zgacha bo'lishi juda muhimdir.

Bolalar, ayniqsa 2-3 yoshli bolalar uchun chiqarilgan kitoblarda so'zlardan ko'ra rasmlar kata ta'sir ko'rsatadi. Bola kitobchadagi rasmlarni o'z o'rtoqlariga, kattalarga, qo'g'irchog'iga takroran «o'qib» berishi orqali uning mazmunini o'z xotirasida mustahkamlaydi. Kitobdagagi chiroyli, yorqin rang-barang rasmlar bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi.

Kattalar mehnati, qahramonlik shuningdek, ona Vatanga bo'lgan muhabbat, do'stlik, birodarlik, bolalarning ota-onalariga mehribon bo'lishlari kabi mavzularda yozilgan hikoyalar bolalar uchun tushunarli bo'ladi.

Yozuvchilardan Qudrat Hikmat, Mirmuxsin, Shukur Sa'dulla, Quddus Muhammadiyning bolalarga atab yozgan she`rlari ularda ijobjiy his-tuyg'ularni tarbiyalaydi, ularni yashashga o'rgatadi, dunyoqarashini shakllantiradi, hayotga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi, ona tilining boyligini, so'zlarning ta'sirchanligini his qilishga yordam beradi.

Kichkintoylar ertaklarni hammadan ham ko'proq sevadilar. Ertakning ahamiyatli tomoni shundaki, unda uzoq fikr yuritilmaydi. Ertak qahramonlari bola tanish bo'ladi. Ertak tili hayotiy hamda jonli bo'ladi. Eng muhimi, tarbiyachining o'zi

badiiy adabiyotni sevishi, ko'proq o'qishi va tushunishi, nasriy asar va she`rlarni ifodali o'qiy olishi lozim.

MTTda kattalar rahbarligida bolalar tomonidan konsertlar, bayramlar, tadbirlar, kichkintoylarning tug'ilgan kunlarini nishonlash bolalarda quvonchli hislarni uyg'otadigan, mazmunli va ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qoladigan qilib tashkil etilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, estetik(nafosat) tarbiyasi bolalarni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashning muhim qismi bo'lib, aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan chambarchas bog'langan holda amalga oshiriladi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN INTERFAOL METOD:



"SINKVEYN" texnologiyasi haqida tushuncha


"SINKVEYN" – bu besh qatordan iborat bo'lib, unda bir tushuncha haqida axborot beriladi. Birinchi qatorda mavzu (kalit so'z) beriladi, ikkinchi qatorda unga bir yoki ikkita aniqlovchi tanlanadi. Uchinchi qatorda unga harakat-holat (fe'l) bilan to'ldiriladi. To'rtinchi qatorda so'z har xil usul bilan yoyiq gapga aylantiriladi. Beshinchi qatorda kalit so'zning ma'nodoshi (sinonimi) keltiriladi.

"Sinkveyn" (taxminiy variant)
Kalit so'zlar: kasb, orzu, maqsad



Uyga vazifa: talabalarga o'tilgan mavzu yuzasidan qiziqarli ma'lumot yig'ib kelish vazifasi topshiriladi.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:



1.Savol-javob – (Wordda) Mavzuga doir kamida 25ta savol tuzish (shundan 30%i oson, 40%i o'rtacha, 30%i qiyin darajadagi savollar). Kamida 2ta asosiy adabiyotlardan foydalanish majburiy. Savol-javoblar jadvalga joylashtiriladi: savol va javob bir qatorda joylashgani tavsiya etiladi.

14-MAVZU: HARAKAT – MUSIQIY TARBIYA VOSITASI SIFATIDA

Reja:

1. Bolalarning musiqiy rivojida musiqiy-ritmik harakatlarning ahamiyatini.
2. Mashg'ulotlarda harakatlarni qo'llash usslublari.
3. Musiqiy dinamika haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

Tayanch so'zlar va iboralar: *musiqiylik, ijodiylik, obraz, raqs elementlari, ritm, harakat.*

Bolalarning har tomonlama musiqiy rivojida musiqiy-ritmik harakatlar boshqa faoliyat turlari kabi muhim ahamiyatga ega. Ularda musiqiylik, ijodiylik qobiliyatlar rivojlanadi, jamoa bo'lib harakat qilish malakalari shakllanadi. Musiqaga mos harakat bajarishning tarbiyaviy ahmiyati - ritm hissi faollashadi, musiqiy materialning o'zlashtirishi chuqurlashadi, harakatlar bajarish musiqiy obraz rivojini kuzatishga yordam beradi, musiqiy asar obraziga xos fazilatlar shakllanadi. Musiqani diqqat bilan tinglab o'z hissiyotlarini harakatlarda ifodalash imkoniyati bolaning o'z harakatlarini nazorat qilish qobiliyatiga ta'sir etadi. Musiqiy-ritmik harakatlar jamoaviy faoliyatiidan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf bolalarida yurish, yugurish va sakrashda harakat koordinatsiyalari juda yaxshi. Musiqa sadolari ostida o'zlarini maroq bilan: qarsak chaladilar, oyoqlari bilan to'pillatadilar, turli buyumlar bilan, xususan, koptok, tayoqchaiar, lentalar, sun'iy gullar, oddiy musiqa asboblari bilan ifodali harakatlar bajaradilar. Musiqa va harakat birligini his qilish ularga xosdir. Bu sifat esa - bolalar musiqiy-ritmik harakat faoliyatida musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini rivojlanrnshda asosiy hisoblanadi. Vaqtning chegaralanganligi va maxsus xonaning yo'qligi sababli musiqa darslarida harakatlarni bajarish noqulaydir. Ular bu faoliyatni, xususan ayrim raqs elementlarini o'tirgan yoki turgan holda bajarishlari mumkin. Musiqiy-ritmik harakatlar ham boshqa faoliyat turlari kabi bolalarda har tomonlama musiqiy qobiliyatlarini rivojiantiradi, jumladan: - musiqiy ritm hissini; -

ijodiy qobiliyatlami; -jamoa bo'lib harakat bajarish malakalarini shakllantiradi. Musiqa ostida harakatlar bajarish bolalarda ritm hissini faollashtiradi. Bu esa darsning musiqiy materialini yanada chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Bu o'z navbatida tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Harakatlar yordamida 0 quvchilar asaming xarakter xususiyatlarini ko'rsata oladiar. Musiqiy-ritmik harakatlar faoliyati asosida musiqiy materialni plastik Jihatdan qayta ishslashdir. U musiqanining emotsiyal ta'sirini kuchaytiradi.

Bularning hammasini musiqa, uning xarakteri, kayfiyati bilan harakatning uyg'unlashtiruvchi ko'nikma va malakalarni singdirilishi oqibatida yuz beradi va maqsadga erishiladi. Ritmik harakatlar yordamida musiqa shakllari, musiqiy rivoqlanish qonuniyatlari haqidagi taassurotlar mustahkamlanadi. Ritm hissini rivojlantirishga harakat xarakteri va yo'nalishini o'zgartirish orqaligina erishish mumkin. Musiqiy asarlar, qo'shiqlarni sahnalashtirish ifodali harakatlar orqali nafaqat musiqiy-eshituv taassurotlari rivoqlanadi, balki ijrochilik qobiliyatlari, badiiy didlari shakllanadi. Agarda ularga mustaqil harakat o'ylab topish vazifosi yuklatilsa; ular musiqanining obraziga, xarakteriga mos o'zlari harakat o'ylab topadilar va bajaradilar. Odatda sahnalashtiruvchi raqslarga dasturli musiqa tanlab olinadi, chunki uning mazmuni va harakatlarning ketma-ketligi ayon bo'ladi. Bolalar tarbiyachi bilan birgalikda mos harakatlarni topadilar. Bajarish vaqtida tarbiyachi bolalarga yordam beradi, yangi harakatlarni to'g'ri va ifodali bajarish kerakligini tushuntiradi, ko'rsatib beradi. Harakatlarni o'rgatish jarayonida kirish so'zi, tushuntirish, she'riy matndan foydalaniadi. Harakatlarning yorqin taqqoslanishi bolalarni ushbu harakatlarni to'g'ri va ifodali bajarishlariga yordam beradi. Musiqa ostida harakatlarni takomillashtirish paytida texnik vositalardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Bu esa bolalarni o'ziga tanish bo'lgan kuylarni yangicha yangrashi bilan tanishishlari, tarbiyachiga esa harakatlarni aniq bajarishini ta'minlash imkonini beradi. Musiqa va harakat uyg'unligi insonning ma'naviy va jismoniy rivojini o'zaro bog'laydi va barkamollikka yo'naltiradi, deb aytish mumkin. Musiqa va harakatning o'zaro bog'liqligi masalalari ko'p marotaba

psixologiya, pedagogika, fiziologiya, musiqashunoslikda ko'rib chiqilgan. Organizmning umumiyligini funksional faoliyatiga musiqaning ijobiy ta'sirini I. Sechenov, B. Teplovlar isbotlab berishgan. Musiqiy-ritmik tarbiya tizimini rivojlantirish masalalari bilan N. Aleksandrova, M. Rumer, E. Konorova, N. Vetlugina, M. Palavandishvili kabilar shug'ullanib kelganlar. Shu o'rinda XX asrning boshlarida ko'p mamlakatlarda shveytsariyalik musiqachi, pedagog E. Daikroz tomonidan asos solingen ritmik tarbiya tizimining keng tarkalganini aytish joiz. Ejak Dalkroz metodi - maxsus tanlab olingan mashqlar asosida bolalarda musiqiy eshituv, xotira, diqqat, ritm tuyg'usi, plastik ifodali harakatlarni rivojlantirishga asoslangan.

Musiqiy-ritmik harakat faoliyati o'zaro bog'langan uch yo'nalishni o'z ichiga oladi: Birinchisi musiqiy rivojlantirishni ta'minlaydi, ya'ni musiqiy eshituvni o'stirish, harakatai musiqaga moslash ko'nikmalarini shakllantirish, musiqiy bilimlarning o'zlashtirishi; musiqiy va musiqiy eshituvni rivojlantirishni ta'minlaydi, harakatni musiqaga bo'yundira olish malakasini shakllantiradi, musiqiy bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Ikkinchi yo'nalish to'g'ri harakat ko'nikmalarini hosil qiladi: yurish (marshona, shaxdam, tetik, xotirjam, sportcha, tantanavor, keskin prujina yurish va hokazo); qadam tashlash (baland, oyoq uchida, keng, yumshok, pmjinali, xorovodli va hokazo); sakrashlar (yengil, harakatchan); aylanishlar; qo'l harakatlari (mayin, ohista, harakatchan); chapaklar (sekin, qattiq, past, baland, qo'l siltab, bir-biriga yaqin ushlab turib, sirg'anuvchi «likopchalar», kaftlami yaqin tutgan holda sirpanma harakatlar); raqs elementlari (o'zbek xalq raqslaridan «oyna», «arqon», «elka uchirish»), «koptokni yuqoriga ot», chapak va yon tomonga qo'l harakati, ball, polka, golop, valsga o'xshash raqs elementlari va hokazo.); oyoq uchida aylanish, prujinali qadam bilan sakrashning uyg'unligi; qo'l harakatlari (mayin, keskin); turli holatlarda turish va o'zgartirish; buyumlar bilan harakat bajarish (koptok, lentalar, bayroqchalar bilan)ni o'z ichiga oladi.

Uchinchi yo'nalish bolalarda tana harakatlarini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiigan (aniq va tez io'xtash, harakatni o'zgartirish va hokazo). Yuqorida ko'rsatib o'tilgan

yo'nalishlarni e'tiborga olgan holda tarbiyachi darsga tayyorgarlik ko'rayotganida tanlayotgan asari mavzu jihatdan, harakatlanish malakasi dars mavzusiga mos bo'lishi, aniq musiqiyeshituv taasurotlarni, musiqiy bilimlarni chuqurlarhtiradigan va mustahkamlaydigan, ijrochilik malakalarini rivojlantiruvchi bo'lishi zarur. Dars boshida va o'rta qismida qanday harakatlarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar tomonidan harakatning sifatli va aniq bajariishi musiqiy obrazning tushunishlari hamda tarbiyachining asarni ifodali ijrosiga bog'liqdir. Tarbiyachi o'quv materialini yoddan bilishi kerak. Harakat paytida u bolalarni kuzatishi, ko'rishi va xatolarini tuzatishi zarur. Bola barcha harakatlarni avval o'zi ko'rsatib berishi zarur, ayniqsa 1-2 sinflar uchun. Chunki birgina tushuntirish bilangina kerakii natijaga erishib bo'lmaydi. Harakatlarni ko'rsatish musiqaga bo'lgan emotsiunal hissiy munosabatni faolashtiradi.

Darsga tayyorgarlik ko'rishda tarbiyachi musiqiy materialni dars mavzusiga mos holda tanlaydi. Mavzu, harakat ko'nikmalari aniq musiqiy eshitish vositasidagi tasawurini (masalan, tembr yoki registr va hokazo) va musiqiy bilimlami chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan bo'lishi lozim. Bolalar tomonidan bajariladigan harakatlar sifati tinglangan musiqiy asaming idrok etish darajasi hamda tarbiyachining ifodali ijrosiga bog'liq. Ijro qilinayotgan asarni tarbiyachi yoddan chalishi kerak, chunki harakatlar bajarilishi vaqtida tarbiyachi bolalami kuzatib turishi, xatolarini tuzatishi lozim. Tarbiyachi barcha harakatlarni o'rgatish jarayonida obrazli so'z, tushuntirish. she'riy matndan foydalanish maqsadga muvofiq. Harakatlarni tushuntirishda yorqin taqqoslashlar bolalarga harakatlarni to'g'ri va ifodali bajarishga yordam beradi. Masalan, «Mening jajji toychog'im» so'zлари bolalarga tez, yengil, harakatchan, baland qadam tashlash va sakrama harakatlarining ifodaviyligini aniqlashda yordam beradi. Bu esa M.Otajonovning «Toychoq» asari mazmunini, undagi musiqiy obrazning rivojlanishi xususiyatlari, asaming shaklini his etish va ongli tushunish imkonini beradi. Musiqaga harakatlar bajarishda tarbiyachining texnik vositalaridan keng foydalanishi lozim. Bu bolalami ularga tanish bo'lgan asarni yangi talqinda,

jaranglashda ko'rsatib berish, tarbiyachiga bolalar bajarayotgan harakatlarning sifatini kuzatish, lozim bo'lgan joylarda o'zgartirishlar kiritishga imkon yaratadi.

Mashg'ulotlarda harakatlarni qo'llash uslublari

Musiqiy-ritmik harakatlar bolalaming badiiy tajribasiga aylanishi, badiiy rivojlanishini boyitishi uchun bolalami bu faoliyatga tayyorlash, eng avvalo, harakat malakalari haqida tasavvurga ega qilish lozim. Bolalar xonada musiqa ostida qadam tashlash, yengil yugurish, har tomonga tarqalish kabi boshlang'ich malakalarini egallaydilar. Musiqiy signal - belgilarga (harakatni boshlash, o'zgartirish va hokazo) javoban harakatlanishni o'rGANADILAR. Masalan, barabanning jaranglashi o'rINLARIDAN turib saflanishga signal bo'lsa, D.Nazarovning «Yurish marshi» kuyining boshlanishi qadam tashlab turgan joyda harakatlanishga, kuya

uchburchakning jo'rligi qo'shilgan joyda esa sakrashga o'tishni ko'rsatishi lozim. Musiqiy-ritmik harakatlar bolalarni badiiy jihatdan boyitilishi uchun bolalarni shu faoliyatga tayyorlash kerak. Shuning uchun bolalar awal harakatlanish malakalari haqida taassurot olishiari zarur. Ular xonada musiqa ostida marsh yurishni, yengil yugurishni, shartli musiqiy signallarga bo'y sunishni o'rGANADILAR. Bolalar aniq mo'ljal uchun berilgan mashqlarni o'zlashtirganlaridan so'ng, darsga maxsus vazifalar kiritiladi: musiqiy obrazning xarakter xususiyatlarini harakatlarda ko'rsata olish, bajara olish malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. Masalan: turli xarakterdagи marshlar orqali turlicha harakatlanishni o'rGANADILAR: sportdagи marshda - tetik, o'yinchoqlar marshida - yengil, oyoq uchida; harbiy marshda - baland qadam bilan va hakozo. Bunda S.Abramovning «Marsh» kuyidan foydalanish mumkin. Tarbiyachi harakat uchun mashqlar va sinfga kirish uchun nafaqat marshlardan, balki tetik, tantanovor kayfiyatdagи asarlarni ham ishlatsi mumkin. O'zbek xalq kuyi «Qari navo» ostida sinfga kirib keiish mumkin. Eng oddiy raqs harakati elementlari bu - qarsak va oyoq to'pillatishdir. Ularning yordamida bolalar o'z taassurotlarini mustahkamlaydilar. Harakatlarda ritmik suratni o'zlashtirishga katta ahamiyat berish kerak. Bolalarning diqqatini to'xtamlarga, bir tekis harakatning o'zgarishiga, marsh musiqasining punktir

ritmiga qaratish kerak. Buni masalan, «Kim yurayapti?» degan o'yin yordamida o'rgatish mumkin. Bu ycrda bolalar bir necha guruhgabo'linadilar: birinchi guruh - «Turnajar» musiqasiga yura-yura bir oyoqda to'xtaydi: ikkinchi guruh - "Poezd" musiqasi ostida harakatyurish tezligi oshadi va asta-sekinlik bilan to'xtaydi: uchinchi guruh <<Qurbaqalar» musiqasi ostida sakrab yurishadi. Shunday o'yinlami qo'llasak, bolalarda ritm hissi faollashadi, musiqani yanada chuqurroq tinglash malakasi oshadi. Harakatlar yordamida bir qancha musiqiy taassurotlarni shakllantirish mumkin, xususan, ikki, uch hissali o'lchovda. 2/4 o'lchamidagi musiqaga Joyda turib oyoq uchida ko'tariladilar va tushadilar. 3/4 o'lchamidagi musiqaga esa, «birinchi» hissaga tushadilar, «uchinchi» hissaga ko'tariladir. Bolalar bu harakatlarni o'zlariga tanish bo'lgan musiqa sadolari ostida ajaradilar (polka va vals). Bolalar «musiqiy badantarbiya» yoki «o'z raqsingni bilib ol» o'yini orqali o'ynashlari ham mumkin. Har bir guruh o'z raqsiga mos ritmda harakat bajaradiiar. Tarbiyachi esa musiqaga mos, ritmik va xarakterini aniq ifoda eta olgan guruhni aniqlaydi va rag'batlantiradi. Musiqiy ritmik faoliyatda nafaqat milliylikni rivojlantirish, balki harakatning madaniyligini, boialarning badiiy didini rivojlantirish ham nazarda tutiladi. Tarbiyachi musiqiy materialni tanlayotganida, qaysi tayyor asarni olish mumkinligini va qaysilarini badihago'ylikka berish kerakligini aniqlashi kerak. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda uiarning tashabbuskorlarini qo'llab-quvvatlash zarur, o'z raqsiga o'ylab topgan harakatlarni asar xarakteriga mos va unga xos xususiyatlari mujassam bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinfiarda musiqiy-ritmik faoliyat quyidagicha maqsadga muvofiq rejalashtiriladi. Birinchi sinfda tarbiyachining faoliyati bolalardagi maktabgacha muassasadagi tajribalarini yanada faollashtirish, shuningdek, harakatlarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak: a) raqs elementlari b) jismoniy tarbiya elementlari. Bu yoshdagি bolalar harakatlarni o'zları o'ylab topadilar. Keyin esa tarbiyachi harakatlarning ifodali bajarilishiga e'tibor qaratadi, chunki bolalar harakatlarni musiqa bilan aloqasini tushunishlari, ularga tanish bo'lgan musiqiy o'yinlardagi harakatlarni qo'llay olish malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Bolalar musiqaning

xarakter va ifoda vositalarining o'zgarishini aniq sezishlari kerak. Musiqiy nutq elementlari. ifoda vositalari haqidagi taassurotlar ijodiy vazifalarda mustahkamlanadi. Birinchi sinf musiqa darsida musiqiy-ritmik harakatlarni tashkillashtirishda - bosh o'rinni o'yinlarga ajratish lozim. O'yinlar bolalarni musiqaga bo'lgan qiziqishini orttiradi, musiqiy obrazni qabul qilishga yordam beradi. Ikkinci sinfda - darsdagi musiqiy-ritmik faoliyat bolalarni avvalgi malakalarini yanada murakkabroq harakatlar orqali mustahkamlashga qaratiladi. Tanish bo'lgan harakatlarni raqlarda ijodiy ishlata olishni shakllantirish ham kiradi. Marsh va raqs harakatlarini bajarishdagi malakalari musiqadagi kuchli va kuchsiz hissalarni farqlashga, ikki ritmik birlikning muttanosibligini, nota yozuvini o'rganishga yordam beradi. Uchinchini sinf bolalarida o'zgargan qismlarda harakatlarni o'zgartirish malakasi mavjud bo'ladi. Musiqiy rivqjlanish qonuniyatlarini va musiqiy shakllarning tuzilishini o'rganish jarayonida musiqiy jumlalar ishlatiladi. Raqsning qo'shiqning marshning ritmik xarakterni ajratish, cho'zimlarini bo'g'inlar yordamida belgilash («ti», «ta» va boshqalar), nota yozuvida ko'rsata olish, musiqiy intonatsiya haqidagi tushunchani o'zlashtirishga yordam beradi. To'rtinchi sinfda - improvizatsiya va folklor - qo'shiq materiallari, xalq musiqasining xususiyatlari haqidagi taassurotlar keng ishlatiladi. Bu yoshdagagi bolalar milliy raqs elementlari bilan tanishadilar. Uiarning ritmik intonatsiyalari jihatdan o'ziga xosligidan bolalar alohida millat musiqa «tili» ni, uslubini tushunib oladilar. Ilk bosqichda bolalarda aniq musiqiy taassurotlarni shakllantirish o'yin shaklida o'tkaziladi. Musiqiy o'yinlarda bolalar xona bo'ylab harakatlanishni, shartli musiqiy signallarga ahamiyat berishni, tovushlarni balandligini, qattiqligini, oddiy musiqa cholg'ularining tembriga qarab farqlashni o'rganadilar. Xususan, doyraning bir tekis urilishiga bolalar yugursalar, kichik uchburchakning tovushiga to'xtaydilar. Bolalarni yengil yugurishga, yo'nalishni tezda o'zgartira olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachi o'yin davomida cholg'ular o'rtasidagi masofani o'zgartiradi, ya'ni doyroni ma'lum vaqtgacha urib turadi yoki kamroq uriladi. Bu esa boialarning eshituv diqqatini oshiradi, cholg'uiarning tembriga bo'lgan

munosabatini (reaksiyani) mustahkamlaydi. Ammo tarbiyachi bolalar oldiga vazifa qo'yayotganida dinamika haqida bolalarga tushuntirishi kerak: qattiq zarblarga yurish, xuddi «ayiqqa» o'xshab borish; sekin zarblarga - yengil «qushlar»ga o'xshab qo'llarini qanot qilib oyoq uchida yugurish va hokazo. Tarbiyachi o'yin davomida bolalarni kuzatishi kerak, harakatlarni ritmik aniq, boialarning qaddi-qomati to'g'riliqiga ahamiyat berishi kerak. O'yinga turli xarakter o'zgarishlar kiritilishi unga quvnoq, qiziqarli tus beradi. Bunday mashqlar va o'yinlar uchun tarbiyachi o'z xohishiga qarab musiqa tanlaydi, lekin dastur bo'yicha bo'lishi shart. Agar birinchi harakatlanuvchi mashqlar bolalarda musiqiy hodisalarining xarakterni aniqlash bo'lsa, keyingisida aniq musiqiy-eshituv taassurotlarini shakllantiruvchi mashqlar bo'lishi kerak. Bunday boshlang'ich mo'ljal olish mashqlaridan so'ng, dars jarayonida bolalarga harakatlarda musiqiy obrazning xarakter xususiyatlarini ko'rsatib berish ko'nikmalarini shakllantirish uchun vazifalar beriladi. Masalan, marshlar turiga qarab harakat qilish: sport marshiga - shaxdam, bayram marshiga - tantanavor, soldatchalar marshiga - baland qadamlar tashlab harakatlanish; raqs musiqalarini ohang xarakteri va tempiga qarab turlash orqali qo'l, bilak va elka harakatlarini asarga mos holda «o'ynatish»: yengil raqs («Bahor keldi»), o'ynoqi raqs («Ufon»), Xorazmcha raqs («Lazgi»), ohista, ravon, Mayin raqs («Bahor valsi») va hokazo. Chapaklar, qarsaklar, oyoq dupillatishlar harakat elementlarining eng oddiyalaridandir. Ular tarbiyachiga kuy ritmlari, nota cho'zimlari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, o'zbek xalq kuylari «Do'lонcha» va «Chertmak» asarlariga chapakda jo'r bo'lish orqali bolalar «Do'lонcha» kuyidagi tovushlar cho'zimi «Chertmak» kuyidagi cho'zimlarga nisbatan qisqaroq ekanligi hamda qisqa tovushlar yugurish uchun, uzunroq tovushlar qadam tashlashga qulayligini his etadilar. Bu kuylarning ritmik xususiyatlarini taqqoslab, bolalar musiqa xarakteri va uning ifoda vositalari o'zaro bog'liqligini aniqlaydilar.

Musiqiyy-ritmik harakatlarda tovush balandligini eshitishni shakllantirish

1. Bolalar ko'zlarini yumib, tovush balandligini cholg'uning tembri bo'yicha aniqlaydilar. Harakat - ramzlar orqali javob qaytaradiar. Masalan: A. Muhamedovning «Shoxi so'zana» kuyidagi past tovushlarga oyoqlarini o'ynatadilar, baland tovushga - qo'l bilaklarini aylantiradilar; doyra tovushiga - shu cholg'u ijrosini ko'rsatadilar (Imitatsiya qiladilar). 2. Bolalar turadilar. Birinchi turgan bola koptokni oladi. Agar musiqa baland yangrasa, bola koptokni boshi orqali keyingi bolaga doyra bo'ylab uzatadi, agar past yangrasa, oyoqiari orasidan uzatadi. 3. Bola tinglagan ohangining doskaga bo'r bilan chizadi. Keyin ikki yoki uch bola xuddj shuni hayolan doskaga chizadilar va harakat bilan ifodalaydilar. Bu mashqda D. Zokirovning «Gulxan» kuyidan foydalanish mumkin.

Musiqiy-ritmik harakatlarda ritm hissini oshirish

1. Bolalar doyra bo'lib yoki partada o'tiribdilar. M. Mirzaevning «Bahor valsi» kuyiga koptokni ushlagan bola choraktali cho'zimga koptokni u qo'lidan bu qo'liga o'tkazadi, yarimtalik cho'zimga doyra bo'ylab yoki partadoshiga uzatadi.

2. Bolalar xona bo'ylab yorqin kuya yuguradilar, mayin, ohista musiqani tinglashlari bilan juft bo'lib aylanadilar.

3. «Aks sado» o'yini harakatlarda: ritmik suratni boshdan yuqorida, orqada oldida chapak bilan takrorlash, keyin oyoqlarni turgan joyda to'pillatish yoki yon tomonga chapak chalib oyoqlarni to'pillatish.

4. Bolalar vazifa oladilar: berilgan harakatga ritmik suratni chapak orqali ko'rsatish yoki kuylab berish. Avval tarbiyachi ritmik asosni harakatda ko'rsatadi, keyin esa bolalar chapak yoki barmoqlarni qarsillatish orqali namoyon etadilar. Harakatlar yordamida bolalarda bir qator musiqiy-eshituv tasavvurlarini shakllantirish mumkin: Ikki yoki uch hissali o'lchov haqidagi tasawurlar. 1) Bunda bolalar turgan holda 2/4 o'lchovidagi musiqaga oyoq uchida ko'tariib va pastlab harakat bajaradilar; 2) 2/4 o'lchovidagi musiqaga kift va elkalarini boshga qarab ko'taradilar va o'z holiga tushiradilar 3) 3/4 o'lchovidagi musiqaga esa - birinchi hissaga yengil yarim o'tirgan holda harakatlanadilar va «uch»ga turadilar va hokazo. Harakatli mashqlar. 1) Bolalar ko'zlarini yumib o'tiradilar ya tovushlar

balandligi yoki cholg'ular tembrlarini aniqlashga harakat qiladilar. Javoblarni bolalar harakatli belgilar yordamida ko'rsatadilar. Masalan, past tovushlarga oyoqlar «raqs tushadi», baland tovushlarga - qo'l bilaklari, doyra jarangiga bolalar doyrasida ijroga taqlid qilib ko'rsatadilar. 2) O'rta registrdag'i tovush eshitilsa, bolalar ko'krak balandligida chapak chaladilar, baland registrdag'i tovush chalinsa - boshlari uzra chapak chaladilar. 3) Ijodkorlikka qaratilgan mashq: 3 qisqli asardagi registrlarni taqqoslashda qo'llar yuqori registrga «raqs tushadilar», o'rta registrda esa tanani harakatlantiradilar va hokazq, Bunda bir bolaning harakatlariga ikkinchi bola oddiy cholg'uda ritmik jo'r bo'lishi ham mumkin. Sinfga esa bu ijodiy vazifaning bajarilishini baholash topshiriladi. Musiqa tempi haqidagi tasavvurlami shakllantirish 1) Tarbiyachi chalayotgan yoki kuylayotgan turli tempdag'i musiqiy asar ostida yurish yoki yugurish (sakrash); 2) Hayvonlar harakatiga taqlid: sekin harakatlanuvchi - fil, toshbaqa; tez harakatlanuvchi - tulki, quyon, it va hokazo. Bunday va bunga o'xhash musiqiy-ritmik harakatlar yordamida tarbiyachi bir qator musiqiy tasawurlar va bilimlar doyrasini (dinamika, musiqa shakli, musiqiy jumla, tovush yo'nalishi va hokazo) tarkib toptirishi boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitish ishlarning samaradorligini oshiradi. 1.Yurish va yugurish turli tempdag'i ijro. P.I.Chaykovskiyning «Yog'och soldatchalar marshi» bunday mashqlarda juda qo'l keladi. 2. Ijro ettiayotgan musiqiy obrazga xos ravishda harakatlanish.

3. Bir bola bolalarga tanish bo'lgan harakatlanuvchi mashqlarni boshqarib turadi. Qolganlar esa mashqlarni takroran bajaradilar.

4. Hayvonlarga taqlidiy harakatlar: sekin-fillar, toshbaqalar, ayiq; tezquyon, kuchuk, va boshqalar.

5. Musiqaning tezlashishi yoki sekinlashishi ostida harakatlarni o'zgartirish: yurishdan yugurishga, yugurishdan sakrashga va hokazo.

6. Musiqaning tezlashishi va to'xtashiga improvizatsiya, masalan: avtGmobil, paravoz, arg'imchoq. Bolalarga ular tinglanayotgan va kuylayotgan musiqiy asarlari mazmuni va xarakteriga mos keladigan raqs va musiqiy-ritmik harakatlarni

tanlash, topish va mustaqil ijro etish taklif etilsa, bunday vazifalar ularda ijodkorlik qobiliyatlarini faollashtiradi, badiiy didni rivojiantiradi. Bu vazifalarni osonlashtirish maqsadida mazmuni va harakat ketma-ketligini namoyon qiluvchi qo'shiq va dasturiy musiqa asari qo'llaniladi. Sh. Najmiddinovning «Bolalar va g'ozlar», T. Toshmatovning «Ayiqpolvonlar bog'chasi», o'zbek xalq «Boychechak», T. Xusaylining «Jo'jalarim», A. Mansurovning «Piyoda askarlar qo'shiqi», P. Chaykovskiyning «Yog'och soldatchalar marshi» va hokazo asarlarini keltirish mumkin. Bolalar tarbiyachi bilan birgalikda harakatlarni topadilar. Ijro paytida tarbiyachi bolalarga harakatlarda ifodaviylikka erishish, ularni yaxshiroq bajarish yo'llarini ko'rsatib boradi. Musiqiy material tanlar ekan, musiqa tarbiyachisi qaysi asarda tayyor kompozitsiyasini qo'llash mumkin, qaysi asarni esa bolalaming o'zлari ijod qilib, harakat va raqs elementlarini topishlari uchun mo'ljallash kerakligini aniqlaydi. Bolalarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish jarayonida ularda tashabbuskorlikni, qiziquvchanlikni qo'llab-quwatlab, rag'batlantirib borish muhimdir.

Musiqiy dinamika haqidagi tasavvurlarni shakllantirish

1. Musiqa ostida dinamikani ko'rsata olish P ga - oyoq uchida yurish, F ga - tovonda yurish, P/F ga - dinamikaga xos kichik, o'rta, katta qadamlar bilan yurish.

2. Raqsda dinamikaning o'zgarishini qo'llar, bosh, elka va hokazolar bilan ko'rsata olish. Masalan: kaft-bilakni aylantirish, tirsak-qo'llami aylantirish.

3. Musiqa ostida krishendo va diminuendoga qaiab harakat bajarish: bolalar doyra shaklida turib oladilar, agar tovush sekin-asta pasaya borsa, doyra torayadi, balandlasa kengayadi.

4. Gullar raqsini improvizatsiya qilish orqali bolalar musiqadagi dinamik o'zgarishlarni ko'rsatadilar, ya'ni gul o'sadi, ochiladi, so'liydi yoki quyoshga talpinadi, shamoldan to'satdan sinadi va hokazo.

Musiqiy-ritmik harakatlarda tovush kayflyati haqidagi tasavvurlarni shakllantirish

1. Bolalar juft bo'lib turadilar, har bir bolada bittadan yumshoq koptok bor. Stakkato ijroga bolalar koptokni yerga

(polga) uradilar, mayin, ohista kuya u qo'ldan bu qo'lga o'tkazadilar. Bunda R.Shumannning «Jasur chavandoz» kuyidan foydalanishimiz mumkin.

2. Tarbiyachi katta koptokni olib - stakkatoga-koptokni polga uradi, legatoga esa koptokni havoda yarim doyra yoki to'lqinsimon harakat qilib qo'llarida harakatlantiradi. Keyin esa bolalarga stakkato kuya koptok misol sakraydilar, ligatoga qo'llarini havoda u tomondan bu tomonga «shamolda esayotgan navdalar» harakatini bajaradilar.

3. Mayin ohista kuy ostida bolalar juft bo'lib doyrada aylanadilar. Qisqa yorqin kuyni tinglashlari bilanoq qo'llarini qo'yib yuboradilar va toki legato kuy ijro etilmagunicha to'rgan joylarida yengil sakraydilar,

Musiqiy-ritmik harakatlar jarayonida taassurotni shakllantirish

1. Bolalar doyra bo'lib qo'llarini ushlab yuradilar, har bir musiqiy jumлага yo'nalişlarini o'zgartiradilar. Bu vazifa birinchi tarbiyachi bilan birgalikda qo'shiq kuylash jarayonida o'tkaziladi, keyin esa musiqa ostida tarbiyachining yordamisiz bajariadi,

2. Bolalar doira bo'lib o'tiradilar. Chiqarilgan bir bola doira ichida koptok bilan musiqaga mos ravishda harakatlanadi. Musiqiy jumla yakunida u keyingi bolaga koptokni beradi va o'yin shunday davom etadi.

3. Bola tinglayotgan musiqaning musiqiy jumlasini hayolan qo'llari orqali doskaga chizadi. Bolaning harakatlari asar tempiga, xarakteriga mos bo'lishi muhim o'rinnegallaydi.

4. Doskada yoki qog'ozda turli musiqiy fragmentlarning grafik chizmalar tasvirlangan bo'lib, bolalar tinglayotgan musiqaga mos chizmalami tanlaydilar, keyin esa o'zлari shu musiqaga mos harakatlar o'ylab topadilar. Xulosao'midashuniyatishjoizki, musiqa madaniyati darslarida raqsva musiqali harakatlarga alohida e'tibor berishimiz kerak. Bu faoliyat turi bolalami musiqiy qobiliyatlar, xususan, ritm-usul tuyg'usi va asar badiiyatini ifodalash, ijrochilik malakalarini rivojlantirish bilan birga ularning jismoniy rivojlanishlari uchun ham muhimdir. Buyuk qomusiy olim ibn Sino aytganidek, bolalarni yengil tebratish jismni chiqintirsa, musiqa (alia) esa ruhiyatni tarbiyalaydi4. Shu bois,

musiqa tarbiyachisi boshqa faoliyat turlari bilan bir qatorda, raqs san'atimizning oddiy harakatlarini bilishi va darsda qo'llash usullarini puxta egallagan bo'lishi bugungi davr talabidir.

Savol va topshiriqlar:



1. Ritmik harakatlар bajarishda qanday mashqlardan foydalanish mumkin?
2. Musiqiy dinamika harakatlarda qanday ifodalanadi? 3. Musiqiy tovush balandligi, ritm hissini aks ettirishda qanday harakatlar qo'llaniladi?
4. «Musiqa madaniyati» darslarida bolalarning musiqiy-ritmik faoliyati va uning tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirib bering.
5. Bolalarda ritm tuyg'usini rivojlantirish vazifasiga qaratilgan dars fragmentini tayyorlang va talabalar guruhi bilan o'tkazib bering.
6. Folklor qo'shiq asarini dramatizaciyalashga misollar keltiring va bunda qanday harakat malakalarini shakllantirish mumkinligini ayting.
7. Biror bir tanlangan sinfda qo'shiq yoki kuy yordamida musiqiy-ritmik harakatlar bajarishga misollar keltiring

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN INTERFAOL METOD



«O'YLANG-JUFTLIKDA ISHLANG-FIKR ALMASHING»

Ushbu texnika birligida faoliyat bo'lib, talabalarni matn ustida fikrlash, o'z g'oyalarini shakllantirish va ularni hamkorlar yordamida muayyan shaklda ifodalashga yo'naltiradi.

«O'ylang-Juftlikda ishlang-Fikr almashing» texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi

1. O'qituvchi savol va topshiriq beradi: oldin o'ylab chiqish, so'ng qisqa javoblar yozish tartibida.

2. Talabalar juftliklarga bo'linib, biri biri bilan fikr almashadilar va ikkala javobni mujassam etgan umumiy javobni ishlab chiqishga harakat qiladi.

3. O'qituvchi bir necha juftliklarga o'ttiz sekund davomida auditoriyaga o'z ishining qisqa yakunini ifodalab berishni taklif qiladi.

Quyidagi o'quv topshiriqlarini bajarish uchun 3 guruhga bo'lining:

1. Mustaqil xohlagan shaklda «hamkorlikdagi o'qish», «o'zaro o'qish», «birgalikda o'qish» tushunchalariga, sizning fikringiz bo'yicha, munosib tavsif va belgilarni yozing.


2. Guruhda birgalikda yozilganni muhokama qiling va ushbu tushunchalarni birga taqqoslab tahlil qilishga harakat qiling (grafik tashkil etuvchilaridan foydalanishingiz mumkin).

3. Siz uchun uchta o'qish texnikasidan qaysi biri ma'qul? O'z javobingizni asoslab bering.

Ushbu mavzu bo'yicha guruh bilimini aks etadigan ko'rgazmali taqdimotni tayyorlang.

Boshqa guruhlar a'zolarining bilimini tekshirish uchun savollarni tayyorlang.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:



1. Test tuzish – (Wordda yoki Telegram Quiz Botda). Mavzuga doir kamida 20ta test tuzish (shundan 30%i oson, 40% o'rtacha, 30%i qiyin darajadagi savollar). Kamida 2ta asosiy adabiyotlardan foydalanish majburiy

15-MAVZU:MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQA MASHG'ULOTLARI

Reja:

1. Musiqaviy tarbiya vazifalari.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda qo'shiqchilik ko'nikmalarini tarbiyalash.

Tayanch so'zlar va iboralar: musiqiy tarbiya, musiqiy did, qo'shiq, qo'shiqchilik malakalari.

Mustaqil O'zbekistorming kelajagi, ertangi kun taraqqiyoti egalari bo'lmish bolalarni to'g'ri va ma'naviy boy, tarbiyali shaxs sifatida tarbiyalashdir. Bu maqsadni amalga oshirishda barcha sohalar kabi musiqa fani ham alohida o'rinni kasb etadi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida musiqiy tarbiya - bu bir aniq maqsadga yo'naltirilgan, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolani estetik, axloqiy, aqliy rivojini amalga oshirish, bolani shaxs sifatida tarbiyalash, uni dunyoqarashini kengaytirish, o'z iqtidorini namoyon qila olishga, estetik jihatdan musiqani tushunishga, unga ijodkorona yondasha olishga o'rgatishdir. Har bir bola musiqaning qaysi yo'nalishini o'rganishidan qat'iy nazar uning yosh xususiyatlarini, psixologik rivojini musiqa rahbari nazarda tutishi lozim. Bolaning musiqiy rivoji bu to'g'ri va uzlucksiz ravishda yo'lga qo'yilgan faol musiqiy jarayondir. Bu rivojlanish quyidagicha kechadi: a) hissiy munosabat. Oddiy musiqiy tasawurdan murakkab va ko'p tomonlama rivojlangan musiqiy asarlarni tushuna olish; b) Musiqani eshitish qobiliyati - musiqaning tembri, tovush balandligi, musiqa ifoda vositalari. v) Ijrochilikning ilk shakllanishi. Bola o'zining bilim va ko'nikmalariga tayanib, unga tanish bo'lgan musiqaga matn yoki raqs elementlarini ijro etish. Musiqa tarbiya boshqa sohalar kabi o'ylab chiqilgan tizim va rejallarga asoslanib uzlucksiz olib boriiadigan jarayondir, ya'ni har bir mashg'ulotda o'ylab chiqilgan ma'lum maqsad sari birin-ketin qadamba-qadam erishiladi. Bu jarayonda musiqa rahbari sardor vazifasini o'taydi va bolalarni o'zi bilan ergashtirib yuradi. Bu jarayonning yana bir muhim jihatiaridan biri bu - har bir bolaning individual dunyoqarashi va

iqtidorini nazarda tutish kerak. Ayrim bolalarga tanbeh berish bilan kifoyalansa, ayrim bolalarga tanbeh salbiy ta'sir ko'rsatib, ular o'z faoliyatlarini ko'rsatmay yanada qisilib qolishadi.

Musiqiy tarbiya vazifalari:

1. Musiqaga muhabbat va qiziqishni o'stirish.
2. Bolalarning musiqiy tajribasini boyitish (musiqiy asarlar asosida).
3. Bolalarni oddiy musiqiy tushunchalar bilan tanishtirish, musiqa tinglash, kuylash, musiqiy ritmika borasidagi malakalarini rivojlantirish.
4. Bolalarda emotsional hisni shakllantirish. Ularda lad hissi, ritm tuyg'usini o'stirish va harakatni o'tirish.
5. Musiqiy didni o'stirish (musiqiy taassurotlar asosida).
6. Bolalarda ijodkorlikni o'stirish (barcha faoliyatlar asosida).

Boialarning Shaxs sifatida tarbiyalash uchun ta'lim jismoniy va ongli tarbiya uyg'unlikda olib borilishi kerak. Bu maqsadga erishish uchun bolalarda to'g'ri tashkillashtirilgan musiqiy mashg'ulotlar tashkil etiladi. Estetik tarbiya mакtabgacha yoshdagi bolalarda go'zallikni tushunish, uni his qilish, yaxshi va yomonni, badiiy san'at turlarini farqlay olish ya" ularga ijodkorona yondashishga yo'naltirilgandir. Estetik tarbiyaning eng ko'zga ko'rigan omillaridan biri bu - musiqadir. Bu maqsaddarga erishish uchun mакtabgacha yoshdagi boialarning umumiy musiqiyigini rivojlantirish kerak. Boialarning umumiy musiqiyligiga nimalar asos bo'ladi: musiqa bolaning estetik tarbiya omili sifatida unga go'zallikni qabul qilish, tushunish qobiliyatlarini rivojlantirish. Bu masalalarni hal etish uchun umumiy musiqiylikni rivojlantirish zarurdir.

Musiqiy omiilar 3 tamoyilga bo'linadti:

1. Musiqaning xarakteri, kayfiyatini his etish, musiqaga emotsional munosabat bildirish (musiqaning ifodaviyligi va tasviriyligi). Bolada musiqani tinglaganda uning xarakteriga mos kayfiyatda bo'lishiga erishish kerak.
2. Eng yorqin musiqiy obrazli asarni tinglash, taqqoslash va baho berish. Bunda musiqa ifoda vositalari, musiqiy asboblar tembrlari, eshitish madaniyati talab etiladi. Masaian, cholg'u

asboblarning yuqori va past tembrlari (skripka - alt, kontrabas - violonchel va boshqa sholg'u asboblar).

3. Musiqaga ijodkorlik munosabatini bildirish. Har bir bola biror musiqiy asarni eshitib o'zicha badiiy tasavvur qiladi va qo'shiqda, o'yinlarda, raqs elementlari bilan hissiy munosabat bildirishi mumkin.

Bu bolalarda ijrochilikning ilk namoyishlari, ya'ni ilk urug'lari bo'lishi mumkin.

I. Musiqa - boialarning aqliy faoliyatining faollashtiruvchi omildir. II. Musiqa - axloqiy omil bo'lib, ma'naviyatning ajralmas qismini tarkib toptiradi. Musiqadan an'analarga hurmat, Vatanni sevish va boshqa tarbiyaviy axloqiy fazilatlarni tarbiyalaydi. III. Musiqa - jismoniylar tarbiya omili hamdir. Endi bu omillarnin birmabir ko'rib chihamiz: I. Musiqa bolaning hissiyotiga va kayfiyatiga ta'sir qiladi. Bu bolalarga asarni tanishtirar ekanmiz ularda musiqani his qilish, u bilan birga kechinmalarni boshdan kechirishga o'rgatamiz. Qardosh va chet ehl qo'shiqlari hamda raqslarini o'rgatar ekanmiz bu xalqlarning an'analari, tarbiyasi bilan ham tanishtiramiz. Musiqaning boy janrlari - qahramonlik obrazi yoki lirik obrazlarni, humor yoki raqsonna kuyni eshitib tushunishga undaydi. Musiqa bolalaming ichki dunyosini boyitishga xizmat qiladi, Ta'lim va tarbiya masalalari jamoa bo'lib kuylashda, raqs va o'yinlarda namoyon bo'ladi, chunki bolalar bu jarayonlarni jamoa bo'lib ijro qiladilar. Kuylash faoliyati birgalikni, birdamlikni talab etadi. Jamoa bo'lib kuylash jarayonida bola o'zini yolg'iz his qilmaydi va asta-sekinlik bilan uning individual rivojiga ham ta'sir qiladi. Musiqa mashg'uloti bolaning umumiy madaniy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida turli faoliyatlami qo'llash (qo'shiq kuylash, tinglash, musiqa cholg'u asboblarida ijro etish, musiqiy ritmik harakatlar) bolalarda diqqatni jamlash, tez reaksiya va irodasini kuchaytiradi: qo'shiq kuylash jarayonida birga boshlab birga tugatish; raqs va o'yin jarayonida musiqani tempini sezish talab etiladi. Shunday qilib, musiqiy faoliyatlar maktabgacha yoshdagi bolalaming aqliy faoliyatini rivojantiradi. II. Musiqani idrok etish. Bu bolaning axloqiy va aqliy rivojining uyg'unligi bilan olib boriladi, ya'ni diqqatini jamlash, musiqaga nisbatan kuzatuvchinlik, uni

taqqoslash va farqlay olish talab etiladi. Bola musiqiy asarni tinglagandan so'ng, u musiqa haqida ilk fikrlarini bildiradi: asaming umumiy xarakterini, qo'shiqdagi badiiy matnini, musiqa ifoda vositalariga e'tiborini qaratadi. Bu e'tibomi shakllantirish uchun albatta musiqa rahbari ko'magi kerak. Misol qilib M.Otajonovning bolalar uchun yozilgan «Guldasta» to'plamidan joy olgan «Musicha» asarini tinglab ko'rishadi. Bolaning ilk diqqatini tortgan narsa bu asaming kayfiyati - yengil o'yinqaroqligidir. Bu asarda musichaning obrazini kompozitor juda yaxshi ochib bergen. Bolalar tinglash jarayonida bu asar o'yinqaroq va sho'x musicha haqida ekanligini tasavvur qiladilar. Bolalar bog'chasida o'rtta, katta va mакtabga tayyorlov guruhlarida ijodkorlik masalasini o'rtaga tashlasa, albatta bolalarda aqliy faoliyat bilan ishlashadi, ya'ni biror bir tanish bo'lgan qo'shiqqa o'zlari biror matn qo'yishlari yoki aynan shu qo'shiqni improvizatsiya qilishlari. Undan tashqari biror bir badiiy mantga o'zlari kuy bastalashlari, biror bir kuyga raqs elementlarini o'ylab ko'rishlari. Bolalar bilan ishlash jarayonida ularning aqliy faolligini oshirish, ijodkorligini shakllantirish uchun bolalar bilan biror kuyga raqs elementlari yoki saxnalashtirishni sevishadi. Bu jarayon bir necha bosqichda amalga oshadi:

1. Bolalar asarni tinglashadi;
2. Uning badiiy tahlil qilishadi;
3. Badiiy obrazni o'ylab ko'rishadi;
4. Rollarni taqsimlashadi;

5. Ijro etishadi. Bu bosqichlarning har birida maktabgacha yoshdagagi bolalar oldida yangiyangi masalalar qo'yiladi. III. Musiqa insonning nafaqat kayfiyatiga, estetik rivojiga balki umumiy organizmiga ham ta'sir o'tkazadi. Bola musiqa tinglaganda, kuylaganda, raqs davomida butun organizm faol ishlaydi (nafas yo'llari, mushaklar, qon aylanishi, asab tizimi va boshqa a'zolar). Bu masala bo'yicha ko'plab fiziolog olimlarirniz ish olib borishgan va o'z izlanishlarida juda ko'plab ma'lumotlarni berishadi. Shulardan biri fiziolog olim P.N.Anaxinning ta'kidlashicha: Kichkina go'dak bola major va minor ladida yozilgan asarlarni tinglab ko'rganida shu ladlarga mos kayfiyatini ko'rsatgan ekan».

Bu uning ruhiy psixikasiga ta'sir ko'rsatadi. Qo'shiq kuylashda bolalarda ovoz apparati, tovush paylari va hattoki, talafuzi rivojlanadi. Bola to'g'ri o'trib kuylaganida tanasi, ko'krak qavasi va nafas organlari yaxshi ishlaydi va rivojlanadi. Ritmika bolalarda musiqani his qilish, tananing asosi (asanka), qadamlaming shaxdamligi va yengil yugurishini rivojiantiradi. Shunday qilib, bolalaming har tomonlama rivojida musiqaning o'rni kattadir. Bola musiqani tushunish, uni idrok etish, unga hissiy munosabat bildirish, ijrochilik malakalarini shakllantirishga muntazam olib borilgan musiqa mashg'ulotlari katta ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagি bolalarda qo'shiqchilik ko'nikmalarini tarbiyalash

Qo'shiq kuylash - bolalarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi. U bolalarni nafaqat ruhiy balki jismoniy jihatdan rivojiantiradi. Chunki bola kuylayotganda og'iz, bumn, nafas yo'llari, ko'krak qafasi, umuman olganda barcha a'zolari faoliyat olib boradi. Bola kuylash jarayonida tik gavdasini erkin va to'g'ri o'tirishi talab etiladi. Kuylash jarayonida nafas yo'llari ham rivojlanadi. Bu jarayonlar masalasini juda ko'plab fiziolog-medik olimlar ko'p tadqiqotlar va ishlar olib borishganlar. Bulardan N.A. Vetlugina, A.N. Keneman, M.A. Metlov, S.G. Tovbina, E.P. Iova, LP. Pavlov, A.G. Menabeni va boshqa ko'plab fiziologlarni ta'kidlab o'tsak bo' ladi. Bolalarga kuylash jarayonida matn va musiqa uyg'unligida bo'lganda mata va kuyga e'tibor beriladi. Qo'shiqda matn va musiqiy kuy birikib, tinglovchiga emotsiyonal ta'sir ko'rsatib turli his-tuyg'ularni uyg'otadi. Bu ta'sirchanlik bola tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Bolaning kichik davridan qo'shiqni ma'nosini tushunmasa ham, uning mazmunini va musiqasini tushunmasa ham unga hissiy munosabatni bildiradi. Bola rivojlangani sari, nutqi va hayot davomida olgan ko'nikmalari qo'shiqni, umuman kuyni tushuna olishga yordam beradi. Jamoa bo'lib kuylaganda bolaga kuy qo'shiq matnga nisbatan kuchliroq ta'sir qiladi. K.D.Ushinskiyta'kidlaganidek: «Qo'shiqda, ayniqsa xor jamoasida qalbni tarbiyalovchi uning jumbushga keltiruvchi hissiyotlar mavjud» Ko'pgina hollarda o'g'il bolaning shaxdam yurib marshni kuylayotganini, qiz bolani esa qo'g'irchoqni allalashini kuzatishimiz mumkin. Bolaning ovozi - tabiiy cholg'udir, chunki

bu cholg'u u yoshligidan mavjud. Mana shuning uchun ham uning hayoti davomida hamroh bo'ladi va turli o'yinlarda foydalanadi. Undan tashqari qo'shiq bola hayotining boshqa faoliyatlarida ham qo'llanadi. Masalan, raqs, xorovod, bolalar cholg'ularida ijro etganda. Qo'shiq - bu bolaning dunyoqarashini kengaytirib, yorqin obrazli tasavvurga ega bo'lishga yordam beradigan janrdir. Qo'shiqlarda tabiatga, Vatanga muhabbat, kattalarga, ajodolarga hurmat, o'zaro munosabatlarni yaxshilash va boshqa tarbiyaviy, axloqiy fazilatlar aks etadi va axloqiy qarashlarini o'stirishga yordam beradi. Qo'shiq o'rgatish jarayonida bolalardan katta aqliy mehnat talab etiladi. U yonidagi bolani eshitishni, uning qo'shig'iga o'z munosabatini biidirishni, musiqiy jumlalarni bir-biri bilan solishtirishni, taqqoslashni, fortepiano jo'rligini tinglay olishni, qo'shiqn ni garmonik va melodik tizimini eshita olishni va ijro sifatini baholashni o'rgatadi. Qo'shiq bola organizmiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, nutqini o'stiradi, ovoz apparatlarini rivojlantiradi, qo'shiqchilik nafasini shakllantiradi. Bola qo'shiq kuylashda asosan musiqa hissi, emotsiyal ta'sirlanish, musiqiy eshituv (slux), ritm hissi rivojlanadi. Qo'shiq kuylashning yana bir asosiy xususiyatlaridan biri bu - jamoa bo'lib ko'ylashdir.

Bola eshituv qobiliyati (slux) va ovozini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari

Qo'shiq - tovush hosil qilishning murakkab jarayonlaridan biri bo'lib, asosan ovoz va eshituv organlarining mujassamlashuvi asosini tashkil etadi, ya'ni eshituv apparati va qo'shiqchilik ovozining o'zaro bog'liqligidir. Eshituv qobiliyatining takomillashuvi - boialarning kichik yoshidan rivojlanadi. Ular musiqa rahbari yoki tarbiyachi kuylab berganda qo'shiq, kuy yoki ohangni sofligicha eshitadilar va shundayligicha kuylaydilar. Kichik yoshdagagi bolalar 2-3 ta nota oralig'idagi qo'shiqlarni ko'ylay oladilar. Bolalar kattalar kuylarini eshitib, keyino'zlari ham shu kuyni kattalardek kuylashga harakat qiladilar. Maktabgacha yoshdagagi bolalarda ovoz apparati mukammal rivojlanmagan (tovush paylari rivojlanmagan, nozik, nafas kuchsiz va boshqalar). Bola rivojlangani sari organizm va qo'shiqchilik organlari ham takomillashadi. Maktabgacha yoshdagagi bola ovozi

yeterli darjada yorqin bo'lmaydi. Bu muammolar ustida ko'pgina tadqiqtchilar ilmiy ishlar va izlanishlar olib borishgan. Bolaning ovoz xususiyatlari, uiarning diapazoni imkoniyatlari haqida N.D. Orlov, E.I. Almazov, N.A. Metlov, N.A. Vetlugina, A.D. Voinova, R.T. Zinichlar shular jumlasidandir. Ular o'z ilmiy ishlarida «bolaning tabiiy ovozi re 1 - si 1, ya'ni undan yuqori va pastki notalarni bola kuylaganda tovush zo'riqishi va uni siqib kuylashi mumkin. Bu boialarning tovush paylarining shikastlanishiga olib kelishi mumkin». Bu muammolarga yo'l qo'ymaslik uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan va puxta o'ylab chiqilgan repertuar tanlanishi kerak. Bunda asosiy e'tiborni qo'shiqchilik diapazoniga qaratamiz.

Yoshi Diapazonlari 2 - 3 yosh mi 1 - lya 1 3-4 yosh re 1 - lya 1 ' 4-5 yosh re 1-si 1 5 -6 yosh re 1 - si 1 (do 2). 6-7 yosh do 1 (re l)-do2

Berilgan jadvalda boialarning ovozi pastki, yuqori va ishchi diapazoni mavjuddir. Bolalarga qo'shiq o'rgatayotganda va repertuar tanlaganda nimalarga e'tibor berilishi kerak? Har bir' qo'shiq ma'lum pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni ko'zga tutib tanlanadi. Unda har bir yangi qo'shiq oldingisidan hosil etilgan kuylash malakalarini mustahkamlaydi va ularni rivojlantiradi.

Qo'shiq diarazoni bolalar ovoziga mosligi, badiiy g'oyaviy mazmuni, bolalar dunyoqarashi va yoshiga mos bo'lishi kerak. Qo'shiqlarni quyidagi talablarga ko'ra tanlash tavsiya etiladi:

1. Qo'shiqni tarbiyaviy ahamiyati, g'oyaviy mazmuni, musiqiy tuzilishi va xarakterining bolalar yoshiga mosligi.
2. Qo'shiq matning osonligi, badiiy yuksakligi, bolalaming lug'at boyligiga mosligi va ulaming nutqini va tafakkurini o'stirish uchun xizmat qilishi.
3. Qo'shiq ohangi, uning xarakteri (xushchaqchaq, quvnoq, marsh, mungli, g'amgin, bayramona, ko'tarinki ruhda), lad va tessitura, ovoz diapazoni bolalar yoshiga mos bo'lishi.
4. Qo'shiqning badiiy xususiyatlari va ifodaviyligi, bolalar idrokiga mosligi, garmonik tuzilishi va ohangdoshligi.
5. Qo'shiq shakli (1, 2 qismli yoki kuptet shaklida tuzilganligi) naqoratning mavjudligi. Qo'shiqni tanlashdagi bolalarga qisqa, mazmunli, obrazli, qiziqarli hikoya qilib beriladi. Qo'shiq

mazmunidagi axloq-odob, tabiat, ona Vatan, mehr-muhabbat haqidagi g'oyalarni bolalar ongiga singdirib, ularda qiziqish uyg'otadi. Badiiy qo'shiqlar sirasiga D. Omonullaevaning bolalar uchun yozilgan «Diloromning qo'shiqi», «Buvijonim», «Aziz buston - O'zbekiston», «Navro'zim», «O'zbekiston - Vatanim manim»; N. Norxo'jaevning «0'ynasangchi tipratikan», «Nevaralar qo'shig'i», «Kapalak va kamalak», «Kakligim», «Shaftoliga savolim», «Navo'zim - sho'x sozim», «Salom bergen bolalar», «Buvijonim yaxshisizg, «Gullar manim kulganim», «Yaxshi bola», «Biz askarmiz»; Sh. Yormatovning «Ay-yay-yay», «Islom bobo»; A. Mansurovning «Muzqaymoq», «Vatanginam»; F.Nazarovning «Inoq o'ynaymiz», «Paxtaoy», «Qish chog'lari» va boshqa ko'plab O'zbekiston kompozitorlarining qo'shiqlari bolalar ijodiyotida so'nmas iz qoldirib ulaming badiiy tarbiyasi va didini o'stirishga yordam beradi. Qo'shiqni tarbiyachi ifodali qilib ijro etib beradi. Qo'shiq mazmuniga mos tasviriy san'at qo'shiq mazmuniga va tuzilishiga xos savol-javoblar qilib, qo'shiqni musiqiy jumlalarga bo'lib o'rgatadi. So'ngra qo'shiq mazmuniga mos musiqiy-ritmik harakatlar bilan o'rgata boshlaydi. Mate va ohang talaffuzning aniqligi ma'lum me'yorga tushgandan so'ng, qo'shiqning badiiy ijrosiga erishildi. Qo'shiqni vaqt-i-vaqti bilan sayr vaqtida, mashg'ulotdan-mashg'ulotga qadar takrorlab kuylab turish lozim, aks holda uning matni bolalar xotirasidan ko'tariladi va unga nisbatan qiziqish susayadi. O'qituvchi har bir mashg'ulotda ayniqsa, yangi qo'shiqni o'rganishdan oldin, ilgari o'rgatilgan qo'shiqni takrorlab turish, bolalar ijrosidagi aytim nuqsonlami tuzatib borishga yordam beradi. Bolalar toliqmasliklari uchun qo'shiq o'rgatish shakllari o'zgartirilib turiladi. Masalan: guruhlarga bo'lib o'rgatish; yakkaxon va guruh jo'rligida; musiqiy harakatlar yordamida amalga oshirilib; qo'shiq matniga mos raqs elementlarini o'ylab ko'rishga va o'zлari uni ijro etishga undab ko'rish yaxshi samara beradi. Qo'shiq mukammal o'rganilgandan so'ng, ulaming qiziqishi yanada ortadi. Shuningdek, mashg'ulot shakllarini (noan'anaviy mashg'ulotlar) o'zgartirilib turish ham mashg'ulotlarda bolalaming zerikishini oldini olib, qiziqishini kechaytiradi. Yil davomida bolalar 10-12 ta qo'shiq o'rganishlari ko'zda tutiladi. Bunga erishish uchun qo'yiladigan vazifalar:

bolalarda sof intonatsiya va qo'shiqchilik malakalarini shakllantirish; bolalarga yakka va tarbiyachi bilan qo'shiq kuylash, a'kapella tarzida ijro etish; musiqiy eshituv qobiliyatini, kuyning balandligi, uiarning uzunligi, kuyning yo'nalishi, o'zini eshita olishi (kuylayotganida), ijro vaqtida o'zining xatolarini eshita olishini rivojlantirish; ovoz rivoji, tabiy ijroga erishish; bolalarda ijodkorlik malakalarini rivojlantirish, ular ijro etgan qo'shiqlarini xorovodlar va o'yinlarda qo'llash.

Qo'shiqchilik malakalari . Bola to'g'ri kuylashi uchun qo'shiqchilik, vokal-xor malakalarini shakllantirish kerak. Qo'shiqchilik malakalari - bu to'g'ri holatda kuylash. Qo'shiq kuylash jarayonida bola gavdani ko'tarib bukchaymasdan, stul orqasiga suyanibroq o'tirishi kerak. Qo'llari esatizzaga qo'yiladi. Vokal malakalari. Bu ovoz hosil qilish, nafas va diktsiya. Nafas qisqa, yengil va shovqinsiz bo'lishi kerak. So'zlar aniq va burro talaffuz qilinadi. Xor malakalari. Bu ansambl va tuzilish (stroy)ning o'zaro bog'liqligi. «Ansambl»- francuzcha so'z bo'lib, «uyg'unlashuv» (slitnosf) ya'ni, ovozlaming kuch va balanligining birlashuvidir. Bu jarayonda ovoz unison kuylashgava tembming tekislanishiga erishishimiz kerak.

Kuylash malakalarini rivojlantirish.

Kuylash malakalari qo'shiq yodlash va o'rgatish jarayonida rivojlanadi. Asar murakkablashgani sari malaka rivojlanadi. Bog'cha bolalarining musiqiy tarbiyalanish jarayonida bilishlari kerak bo'lgan mezonlar:

Kichik va o'rta guruh - musiqa rahbari musiqa asbobi yordamida oddiy, murakkab bo'imagan qo'shiqlarni kuylay olishi kerak. Katta guruh - asbobsiz faqat musiqa rahbarining yordami bilan yoki musiqa rahbarisiz musiqa musiqa asbobi jo'rлигida kuylashi, tovushlar balandligi va cho'zimlarini farqlay olishi, qo'shiq kuylash jarayonida to'g'ri, tik, elkani to'g'ri tutib o'tirishi kerak. Maktabgacha taworlov guruhi - yodlagan qo'shig'ini ifodali kuylab berish, oldin yodlagan qo'shig'ini eslab kuylashi, kuylash jarayonida yonidagi bolalarni eshita olishi va kamchilik-xatolarini to'g'irlay olishi, tovushlarning yuqoriga va pastga harakatlanishini farqlay olishi, notalar qisqa uzunligini va notalarning nomlarini bilishi kerak.

Qo'shiq kuylashga o'rgatishning metodlari va yo'llari

Musiqa rahbari bolalarga qo'shiqni o'rgatishdan oldin qo'shiqni tanishtirishi, kompozitor ni haqida, asarning matni, mazmuni haqida gapirib berishi kerak, bir so'z bilan aytganda bolalarda bu qo'shiqni o'rganish uchun qiziqishlarini uyg'otishdir. Qo'shiq o'rgatish jarayonida yosh davrlar bo'yicha ko'rib chihamiz.

Kichik guruh bolalarini kuylashga o'rgatish metodlari Uch yoshda ovoz apparati endi shakllana boshlaydi. Qo'shiqchilik ovozi hali yo'q, nafas qisqa, lekin bolalar shu davrda juda qiziquvchan bo'lib, kattalar ijrochiga bajonudil qo'shiladilar, jumlalarning ba'zi tovushlarini kuylay olishadilar. Asosiy vazifa. Boshlang'jch kuylash malakalarini rivojlantirish va mustahkamlash. Bu yoshdagi bolalar qo'shiqni butunyaxlitligicha kuylay olishmaydilar, faqat ba'zi qismiarinigina kuylay olishadi. To'rt yoshga kelib ovoz kuchayadi, ular eng oddiy qo'shiqlarni kuylay olishadi. Bunda qo'yiladigan vazifa - bolalarda tabiiy tovushda kuylashga, zo'riqmasdan tovushni siqmasdan kuylashga o'rgatish. Bu yoshda muhim ishlardan biri bu talaffuz ustida ishlash. Bolalar bu yoshda hali ko'p so'zlarni ma'nosini tushunmaydilar. Ularga so'zlarning mazmunini va to'g'ri talaffuzini tushuntirish kerak. Bu yoshdagi bolalar umumiyligi tempda kuylashi qiyin kechadi. Bu narsa tarbiyacliining doimiy e'tiborida bo'lishi va bolalaming birgalikda kuylashga o'tgatishi kerak. Besh yoshii bolalar murakkab bo'imagan qo'shiqlarni musiqiy rahbariga ergashib kuylaydilar.

Metodik usullar:

1. Musiqa rahbari tomonidan qo'shiqni ifodali emotsiyal ijroda ko'rsatish;
2. Qo'shiqni birinchi bor tanishtirish jarayonida rasrn. o'yinchoqlar bilan qo'shiqni mazmunini ochib berishga yordam beradi.
3. O'yin shakllarini qo'llash.
4. Ta'limiy usul - musiqa rahbari asarni 2-3 marta fortepianoda chalib beradi va bolalar bilan birgalikda kuylaydilar.
5. Qo'shiq matnini kuy bilan birgalikda o'rganiladi.

O'rta guruh bolalarini kuylashga o'rgatish metodlari Besh yoshdagi bolalar ma'lum darajadagi umumiy musiqiy tayyorgarlikka ega. Ovozi ancha mustahkamlangan bo'lib diapazon (re 1 - si 1) kengaygan. Nafas biroz mustahkamlangan, chuqurlashgan, so'zlarni to'g'ri ta'laffuz qilish malakalariga egadirlar. Asosiy vazifa:

1. Tabiiy tovushda zo'riqmasdan kuylash. Bu malaka ustida muntazam ravishda ish olib boriladi.
2. To'g'ri nafas olish, ya'ni bir jumlani bir nafasda kuylash.
3. To'g'ritalaffuzga e'tiborberish
4. Artikulyaciya ustida ishlash (qo'shiq ijrosi vaqtida og'izni to'liq ochishga, past jag'ni zo'riqtirmasdan, siqmasdan ochib kuylash).
5. Ansambl malakalari - qo'shiqni birga boshlab, birga tugatishga erishish. Bu yoshdagi bolalarni jo'rsiz ijroga o'rgatish (yaxshi o'rganilgan va mustahkam biladigan qo'shiqni jo'rsiz aytishi mumkin) kerak.

Metodik usullar:

1. Qo'shiqni o'rgatish jarayonida fortepiano jo'rligida yoki jo'rsiz olib boriladi.
2. Musiqa rahbarining ovozidan kuylashga o'rgatish bolalar uchun osoniashadi.
3. Qo'shiq o'rgatish jarayonida musiqiy jumlalarni bolalarni guruhlarga bo'lib, navbatma-navbat aytirish (bunday metodni qo'llashdan maqsad bolalaming eshituv jarayonini va diqqatini rivojantiradi).
4. Cho'zib kuylash malakasini o'stirish (kontelenno ijrosi). Bu yoshda kuylash oldidan ovoz sozlash mashqlariga katta e'tibor beriladi. Mashqlar bolalarda qo'shiqchilik ovozini va qo'shiqchilik nafasi rivojiga olib keladi.

Katta guruhda kuylashga o'rgatish metodlari. Tovush hosil qilish ustida ishlaganda zo'riqtirmasdan kuylashga e'tiborini qaratadi, ammo ovoz jaranglash turli-tuman bo'lishini, ya'ni tabiiy, jarangdor, chaqqon, yengil, mayin kuylashga erishish kerak. Qo'shiqchilikda diktsiya va qo'shiqchilikni rivojlantirib o'z-o'zini eshitishga ovoz kuchini boshqarishga, so'zlarni aniq talaffuz etishga o'rgatish. Musiqa rahbari doim bolalar sof kuylashiga

e'tibor berishi kerak. Kuylashning sifati kuylash holatiga bog'liqdir. Ifodali kuylashga erishishda dinamik tuslar, ansambl malakalari to'g'ri bajarilishi muhimdir.

Metodik usullar:

1. Aks-sado usuli.

2. Qiyoslash-taqqoslash metodlaridan foydalaniladi.

Maktabga tayyorlov guruhalarda kuylashga o'rgatish metodlari Maktabga tayyorlov guruhida musiqiy-estetik masalalar alohida ahamiyat kasb etadi. 6-7 yoshli bolalarda kuylashga ehtiyoj kuchayadi. Maktabga bolalarni puxta egallagan bilim va malakalar bilan yuboriladi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalaridan talab etiladigan bilim, malakalar:

1. Qo'shiqnini ifodali ijro etishi: jarangdor, kuychan, yengil ovoz bilan kuylash; ko'krak va elkani ko'tarmasdan nafas olish; jumlaning boshida olingan nafasni jumlaning oxirigacha tejab sarflash; artekulyaciya malakalari, so'zlarni (unli va undosh harflarni) aniq va burro talaffuz qilish.

2. Qo'shiqnini birga boshlab birga tugatishi (tempni tezlashtirmasdan yoki sekinlashtirmasdan); ritm va tempni aniq his qilishi; kuyni sof intonatsiya qilishi, yonidagi do'stini kamchiliginini ayta olishi; tanish bo'lgan qo'shiqnini asbob jo'rligida yoki jo'rsiz ijro eta olish; kuyning yuqoriga va pastga harakatlanishi, uzun va qisqa tovushlarni aniqlay olishi; notalar nomlarini bilishi; yuqori notalar nota yo'lining yuqorisida, past notalar esa pastiga yozilishini bilishi kerak.

3. Jamoa va yakka kuylay olishi. Bunda qomatini tik tutib, ega bo'lgan qo'shiqchilik malakalarini ko'rsata olishi.

4. Qo'shiqchilik diapazonini rivojlantirishi (do (do#) l-re2).

Qo'shiqchilik malakalari:

1. Tovush hosil qilish ustida ishslash (yengil, yuqori, jarangdor, kuychan). Musiqa rahbari qo'shiq o'rgatish jarayonida o'zi yoki yaxshi kuylaydigan bola misolida ko'rsatadi.

2. Unli tovushlar (a, o, u, eh, i)ni to'g'ri talaffuz qilish, Bunda musiqa rahbari kuylashdan oldin ovoz sozlash mashqlarida (lyale-li bo'g'linlari) qo'llashi maqsadga muvofiqdir.

3. Qo'shiqchilik nafasi ustida ishslash.

4. Diktsiya rivoji. Bola matnni mazmunini tushungan holda to'g'ri kuylashi kerak.

5. Intonatsiya (stroy) ning sofligi va to'g'riliqiga erishish.

Metodik usullar:

1. Qo'shiq kuylashdan oldin ovoz sozlash.

2. Qo'shiqni yuqori va past tonaliikkarda transportda kuylash.

3. Kuyni eshitish qobiliyatini rivojlantirish.

4. Kuyni qo'l haraktidako'rsatish (dirijyorlik elementlari).

Musiqiy asar tahliliga namuna: «Yangi yil archasi» M. Abdushukurova she'ri A. Berlin musiqasi Asar mакtabga tayyorlov yosh bolalarga mo'ljallangan. Bu qo'shiqning murakkab joylari ko'p bo'lib, bolalarda kuylash faoliyatini takomillashtiradi. Qo'shiq diapazonimi 1-do 2. Bu qo'shiqda qishning ziynati - qor, quyqncha, tulkicha, qorbobo va boshqa mehmon (hayvon)larni kutayotganlari haqida, umuman olganda, boialarning hayotida yangi yil bilan bog'liq xotiralari o'chmas iz qoldiradi. Uning yorqinligi, bolalar ertak qahramonlari bilan hamnafaslikda bo'lganligi bolalarni o'ziga jalb etadi.

Qo'shiq qiyinchiliklari va ularni bartaraf etish yo'llari:

1. Qo'shiqda sakrama harakatlar ko'p. Bular bolalar kuylashi uchun murakkabliр. shuning uchun sof kuylashga alohida e'tibor qaratish kerak.

2. Qo'shiqda punktir ritmlaridan ham keng foylanilgan va ularni aniq talaffuz etish kerak.

3. Ligali notalar, Bunday notalar asosan jumlalar oxirida uchraydi va buni to'g'ri va sof kuylashga erishish kerak.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN INTERFAOL METOD:



Mashg'ulot jarayonida mavzuni mustahkamlash uchun **“Fikrlarning shiddatli hujumi”** metodidan foydalilanladi va quyidagi muammoli savol o'rtaga tashlanadi:

"Turli toifadagi bolalarni ijtimoiylashtirishda pedagogik metod shakillarni qo'llay olasizmi?"

O'qituvchi talabalarga bolalarda ijtimoiylashish, tushunchalarni hosil qilish uchun "**Fikr erkinligi**" tushunchasi bilan yondashish lozimligini uqtiradi va bunda quyidagilarga amal qilishi lozimligini aytib o'tadi:

- vaqtidan samarali foydalanish;
- har bir bolani faollikka undash;
- ularda erkin fikrlash va uni bayon etish layoqatini shakllantirish.

O'zaro tanishuvda qo'llaniladigan texnikalar

Muzyorar – muomaladagi tusiklarni yengib o'tishga va o'zaro munosabatlardagi «muzni» yorishga qaratilgan mashqdir. Muzyorar, birinchidan, tanishuv jarayonini rivojlantiradi, ikkinchidan, ishtirokchilarни o'zini bemalol his qilishlariga yordam beradi.

Treninga kirish jarayonida har bir ishtirokchi o'zini tanishtiradi. Auditoriyadagilarning sonidan, kurs boshida umumiy kayfiyatidan va boshqa holatlardan kelib chiqib, trener quyidagi tanishuv usullarini tanlashi mumkin:

Juftliklarda **besh daqiqalik suxbat**, so'ngra har bir ishtirokchi o'zining suhbатdoshini tanishtiradi.

Doirada koptokcha bilan o'ynash - bunda qo'liga koptokcha tushgan har bir ishtirokchi o'z ismini hamda o'zi haqidagi ma'lumotni aytishi kerak bo'ladi.

O'xhash va o'xhash bo'lмаган xususiyatlarini top. Agar trening vaqtি kam chegaralangan bulsa, tanishuvning kengroq shakllaridan foydalanish mumkin. Masalan, trening ishtirokchilarini 5-6 ta ishtirokchidan iborat kichik guruhlarga bo'lib, har bir guruhga guruh a'zolarini o'zaro bog'laydigan 5 ta umumiy o'xhash xususiyatlarni yoki hammada har xil bulgan 3 ta xususiyatni topish topshirig'i beriladi. So'ngra guruhlar barcha guruh ishtirokchilarining ismini aytib, topshiriq natijasini taqdim etadilar.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:



1.Boshqotirma tuzish – (Wordda) Mavzuga doir kamida 5ta rebus, krasvord, kazus muammoli vaziyat, sirli cuti, ssenariy, topshiriq va boshqa ko'rinishlarda.

16-MAVZU: RIVOJLANISHIDA MUAMMOSI BO`LGAN BOLALAR MUSIQIY TARBIYASI

Reja:

- 1. Nuqsonli bolalar bilan o'tkaziladigan musiqiy tarbiya mashqlari.*
- 2. Nuqsonli bolalarni ritmik va harakatli musiqa bilan davolash.*

Rivojlanishda buzilishi bo`lgan bolalarda aqliy funksiyalarning aksariyati kechikish bilan shakllanadi. Sog'lig'ida muammosi bo`lgan bolalarda muloqotning rivojlanishi uning me'yordagi rivojlanishidan sifat jihatidan farq qiladi. Ko`pincha "o`ziga xos" bolalar uchun hatto qarindoshlari bilan ham hissiy aloqa o`rnatish qiyin. Bunday bolalarda o`zaro ta'sir qilish va muloqot qilish ko`nikmalari maxsus mehnat natijasida shakllanishi mumkin. Guruh mashg'ulotlari ijobiy fon yaratadi. bolalar o`rtasidagi o`zaro munosabatlardagi faollikni oshiradi va muloqotga moslashishga yordam beradi.¹⁵

NUQSONLI BOLALAR BILAN O'TKAZILADIGAN MUSIQIY TARBIYA MASHQLARI.

Jahonda sog'lig'ida nuqsoni bo`lgan bolalarni rivojlantirish. korreksiyalash va davolash vositasi sifatida musiqa harakatlardan amaliy foydalanish XX-asr boshlari maishiy defektologiyaning shakllanish davrida boshlangan. Bu davrda shveysariyalik o`qituvchi. musiqachi Jak Dalkroz tomonidan ishlab chiqilgan musiqiy-ritmik yo`nalish musiqa ta'limi tizimiga keng joriy etilgan edi.

Ritmikaning shakllanishinig ritm. musiqa va harakatning uyg'unligi bilan belgilanadi. "Ritm yordamida ritmnini tarbiyalash" g'oyasi maxsus ishlab chiqilgan mashqlarni qo'llash yordamida maktabgacha yosh bolalardan boshlab kattalarda musiqiy o`quv (slux). xotira. diqqat. ritm. harakatlarning plastik ifodaliliginini rivojlantirish orqali amalga oshirildi. Shu bilan birga J. Dalkroz musiqani musiqiy va ritmik rivojlanishning o`zagi deb hisoblab. ritmda musiqa tana shakllarini egallashini va tanamizni

¹⁵ Abdullayeva G.S., Muxitdinova M.S.-Musiqaterapiya-alohida yordamga muhtoj bo`lgan bolalar bilan olib boriladigan uzlusiz ta'lif-tarbiya modellaridan biri sifatida. - Uzlusiz ta'lif, 2020, 36 bet.

o`zgartirishini nazarda tutadi.¹⁶ Rossiyada J. Dalkrozning ritmik ta`lim tizimini joriy yetgan N. A. Aleksandrova ritmikaning qo`llanish ko`lamini kengaytirdi; u ritmni rassom. haykaltarosh. musiqachi. dirijyor. mimeist. raqqosa va aktyorning yo`llari ajraladigan umumiy nuqta ekanligini ta`kidladi. Mutaxassisliklarga bo`linish inson faoliyatining turli sohalarida ritmikani qo`llanishi. shu jumladan butun yo`nalishni - terapevtik ritmikani ajralib chiqishi uchun qaratilgan birinchi qadam edi. Shu bilan birga. N. A. Aleksandrova bolalarda ham. kattalarda ham buzilishning yoshi va tabiatiga qarab ritmlarni differensial qo`llash muhimligini ta`kidladi. Ritmika normal rivojlanayotgan bolalar bilan ishlashda qo`llaniladi va musiqiy-pedagogik funksiyalarini bajara oladi. uning rivojlanishida nuqsonlari (nutq. eshitish. ko`rish. ruhiy rivojlanishda ortda qolish. aqliy zaiflik) bo`lgan bolalar bilan ishlashda foydalanishi korreksion vazifalarni ham belgilaydi.

Ruhiy bemorlarni davolashda ritmikani qo`llash bo`yicha birinchi qadamni professor V.A. Gilyarovskiy qo`ydi. Uning rahbarligida 1926-yilda Solovyov nomidagi asab psixiatriyasi shifoxonasida bolalar va kattalar uchun terapevtik ritmikaning maxsus tizimi yaratildi. Amalda bu tizimni ritmikachi V. A. Griner tomonidan qo`llanildi. Ritm musiqaning tashkiliy elementi sifatida xarakatlashtirish asosi bo`lib tizimga qo`yildi. Bundan maqsad bemorning harakatlari va hulqini tartibga solishdir. 1930-yillarda terapevtik ritmika logopedik muassasalarda nutqi buzilgan bolalar bilan reabilitatsiya ishlarini olib borish uchun qo`llanila boshlandi. va butun bir yo`nalish – nutqiy nuqsoni bor bolalar bilan ishlashda logopedik ritmika uchun asos yaratilmoqda.

O`sha vaqtidan beri ritmika turli shakldagi buzilishlari bo`lgan bolalar bilan ishlashda faol qo`llanila boshlandi: markaziy asab tizimining buzilishi bo`lganlar (N.A. Vlasova, V.A. Gilyarovskiy); kar va zaif eshituvchilar (N.A. Rau, Ye.F. Rau, Z.E. Punina, L.Ya. Brozelo, I.N. Musatov, A.M. Qishtimova, N.P. Zbrueva); afaziyasi borlar (Yu.A. Florenskaya, V.A. Griner); duduqlar (V.A. Griner, N.S. Samoilenko, N.A. Vlasova). Mualliflar muammoli bolaga musiqa. ritmning umumiy pedagogik estetik ta`sirining muhimligini.

¹⁶ Muxitdinova M.S. "Nutqida og`ir nuqsoni bor bolalar bilan korreksionrivojlaniruvchi ishlarni olib borishda musiqa mashg`ulotlarini imkoniyatlari" / - Nekus - 2021, 35-37 betlar.

shuningdek. psixofizik sohadagi mavjud buzilishlarni - vosita ko'nikmalarini. xotirani rivojlantirish va ye'tiborni tuzatish imkoniyatini ta'kidladilar. Shu bilan birga. bunday mashg'ulotlar bolaga ta'sir qilish. uning hissiy sohasini korreksiyalashning psixoterapevtik usuli ham ekanligi ta'kidlandi.¹⁷

1920-yillarda kar va zaif eshituvchi bolalar uchun birinchi korreksion bolalar bog'chalari tashkil etildi. Ularning faoliyati mazmuniga taktilvibratsiya. musiqiy o'quvini. vizual xotirani tarbiyalaydigan. harakatlarni muvofiqlashtirishni shakllantiruvchi. ko'nikmalarini. bolaning ichki konsentratsiyasini. nafas olish. ovoz hosil qilish. tovushlarning aniq talaffuzi. bo'g'in birikmalari va nutq usulini rivojlantiruvchi mashg'ulotlar tashkil etadi.

1950-1970 yillarda. Ye. F Shersheneva, Ye. F. Rau asarlarida yosh bolalarda duduqlanishni tuzatishda musiqiy va logopedik ritmikaning muhimligini ta'kidlaydi. 2-3 yoshli bolalar uchun konkret materiallarni taklif qiladi: bolalarning yosh va asab-psixik xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'shiqlar. o'yin mashqlari. qisqa she'rlarning dramatizatsiyasi. davra raqslarini taklif qiladi.

Xuddi shu davrda eshitish qobiliyati zaif bolalarni musiqiy tarbiyasining mazmuni va metodikasi ishlab chiqildi. Olim va amaliyotchilar (E.F. Rau. S.V. Chesheva. Ye.F. Shersheneva. G.I. Yashunskaya va boshqalar) turli analizatorlardan foydalanish asosida musiqani idrok eish qobiliyatini aniqladilar. Taktil-tebranish sezgirligini shakllantirishga ye'tibor qaratildi. musiqa va harakat bilan o'zaro ta'sirda nutqni rivojlantirish ko'rib chiqildi. maxsus bolalar bog'chalarida bayramlarni tashkil yetish va o'tkazish metodologiyasi ishlab chiqildi va oshkor qilindi (I. N. Musatov. Ye.F. Rau. Ye.F. Shersheneva va boshqalar).

Musiqa va harakatning muammoli bolalarga ta'sirini o'rGANISH 1960-1980-yillarda o'tkazilgan. kabi tadqiqotchilar G. A. Volkova. V.A. Yerkman. V.S. Lyapidevskiy. B.I. Shostak. N.A. Tugova. V.I. Seliverstov. G.R. Shashkina. A.V. Kruchinin. O.S. Sternik. O.P. Gavrilushkina va boshqalar nutq. ko'rish. tayanch-harakat tizimi. aqliy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarni tarbiyalash va

¹⁷ Volkova Г.А. Игровая деятельность в коррекции замкания у детей дошкольного возраста. - М., 2013.

o`qitish tizimida reabilitatsiya usuli sifatida musiqiy-ritmik harakatlarning imkoniyatlarini ko`rsatdilar.

Nuqsonli bolalarni ritmik va harakatli musiqa bilan davolash

Musiqiy-ritmik harakatlar tizimi organizmning funksional faoliyatiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Sechenov eshitish va mushak sezgilari o`rtasidagi munosabatni tavsiflab. uning ontogenetik uchun ahamiyatini ta`kidladi. XX-asr boshlarida Yevropada keng tarqalgan Shveysariya musiqachisi va o`qituvchisi J. Dalkroz tomonidan yaratilgan musiqiy-ritmik ta`lim tizimi yesa I. M. Sechenovning nuqtai nazarini tasdiqladi. Hozirgi vaqtda ham normal rivojlanayotgan. ham rivojlanishi zaif bolalar bilan ishslashda qo`llaniladigan J. Dalkroz usuli musiqa va harakatning bir-biriga ijobiy ta`sir ko`rsatadigan munosabatlariga asoslangan. Bu bog`liqlik bolalarda musiqiy va ritmik ko`nikmalarini (ritmik. dinamik. tembrli musiqiy o`quv. musiqa asarining shakli. xarakterini farqlay olish qobiliyati). musiqiy xotirani. diqqatni. harakatni muvofiqlashtirishni ta`minlaydigan. musiqiy ekspressivlik va ularning o`yinlarda. raqslarda. mashqlarda turli harakatlarda uzatilishi qobiliyatlarni shakllantirishni ta`minlaydi.

1960-yillarda Polshalik logoritmist Aureliya Rozental nutq terapiyasiga ritmoplastika elementlarini kiritishga harakat qildi. A. Rozental dasturiga J. Dalkrozinning ritmik mashqlari kiritilgan bo`lib. ular bir tomonidan duduqlanuvchilarning nutqini rivojlanirish jarayonida aritmiya paydo bo`lishining oldini oladi. u sodir bo`lganda esa uni barqarorlashtiradi. ikkinchi tomonidan. tirik organizmning harakatga bo`lgan ehtiyojini qondiradi va ijobiy hissiy fon kuchlanishni olib tashlashga yordam beradi.

G. I. Yashunskayaning 1970-1980 yillarda ishlab chiqqan kar bolalar uchun musiqiy ta`lim usullari. bolaning musiqiy faoliyatga bo`lgan qiziqishini barqarorligini ta`minladi. musiqani idrok etish va his qilishni. o`qituvchining yordami bilan musiqiy-harakatli obraz yaratish qobiliyatini. plastika. harakatlarning ekspressivligini. muhitda orientatsiya qilishni. musiqa bilan harakatni muvofiqlashtiradi.

Kar va zaif eshitadigan maktabgacha yoshdagagi bolalarning musiqiy idrokini rivojlanirish. harakatlar. musiqa va nutqning ritmik intonatsion tuzilishi yordamida ularning ritm tuyg'usini

shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar L.V. Glubokova. G.V. Korotkova. N.I. Sladkova. N.A. Tutova. A.S. Kagarliskaya va boshqalar tomonidan o'tkazilgan. Bu davrda G. V. Korotkova kar va zaif eshituvchi bolalarni musiqiy tarbiyalash bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqdi. shuningdek elektroakustik asbob-uskunalar yordamida kar va zaif eshituvchi maktabgacha yoshdag'i bolalarda musiqa elementlarini eshitish orqali idrok etishni rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rsatdi.

Ko'rish qobiliyati buzilgan maktabgacha yoshdag'i bolalarni o'qitishda musiqiy-ritmik harakatlardan foydalanishning ahamiyati. mazmuni va o'ziga xosligi L.I. Plaksina. V.A. Kruchinin dasturlari va o'quv qo'llanmalarida o'z aksini topgan.

Badiiy faoliyat yordamida bolalar rivojlanishidagi o'zgarish va korreksiyalash imkoniyatlarini ilmiy asoslash sohalari so'nggi paytlarda sezilarli darajada kengaydi. Teatr faoliyatining aqliy zaifligi bo'lgan bolalarga ijobiy ta'siri. tasavvurni rivojlanishidagi sifat o'zgarishlari. fikrlash. e'tiborning belgili-ramziy funksiyasi. shaxsiyat sohasining rivojlanishidagi og'ishlarni tuzatish imkoniyati Ye. A. Medvedeva tadqiqotlarida ochib berilgan. Badiiy faoliyatning bu turida voqealarni jonlantiruvchi teatr sahna ko'rinishi. uni ohang bilan to'ldiradigan. ijrochiga ham. tomoshabinga ham hissiy ta'sirni o'tkazuvchi musiqa alohida ahamiyatga ega.

Musiqa san'atining turli xil kombinatsiyalarda (harakat. teatr faoliyati bilan) muammoli bolaga nisbatan korreksiya imkoniyatlari. birinchi navbatda. u bola uchun ijobiy tajriba manbai bo'lib xizmat qilishida namoyon bo'ladi; yangi ijodiy ehtiyojlarga. ularni qondirish usullariga. musiqiy madaniyatni shakllantirishni kognitiv. hissiy-irodaviy va shaxsiy sohalardagi og'ishlarni korreksiyalashni amalga oshirishni ta'minlaydi. ijtimoiy moslashuv uchun sharoityaratadi.¹⁸

Muammoli bolalarni musiqiy tarbiyalash usulining tarixi korreksion ritmika. ularning ilmiy bilimlar sohasi sifatida rivojlanishi jamiyat madaniyatining rivojlanishiga bog'liqligini va

¹⁸ Герон Э. Проявление индивидуальных особенностей человека в темпе его движений // Вопросы психологии. - 2001. - № 2

ularning rivojlanishini belgilab beruvchi bir qator ilmiy bilimlar bilan chambarchas bog'liqligini ishonchli tarzda ko`rsatadi.

Musiqiy-ritmik harakatlardan foydalanish amaliyoti shuni ko`rsatadiki. ular muammoli bolalar bilan korreksion ishlarda (ritmik mashqlar. musiqiy o`yinlar. raqslar. aylana raqslar shaklida) qanchalik erta qo'llanilsa. bolaning nutqini rivojlantirishdagi natijalar: ihtiyyoriy faoliyat. vosita qobiliyatları. plastiklik . harakatlarning ifodaliligi. og'zaki bo`lmagan muloqot. shuningdek. musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishda shunchalik yuqori bo`ladi. Musiqiy faoliyat turi sifatida musiqa ostida harakat ikki komponentdan iborat:

- musiqiy va ritmik qibiliyatlar (musiqiy ifoda vositalarini: ritm. temp. dinamika. shakl. musiqa asarining xarakterini harakatlar bilan yetkazish qobiliyati);
- ifodali harakatlar malakalari (asosiy. buyum bilan va buyumsiz gimnastika. syujetli-obrazli harakatlar. raqs).

